


AZIZ NESIN

HAZILKASH ODAMLAR

HIKOYALAR

eng sara hajviy hikoyalar to'plami



• JAHON ADABIYOTI TURKUMIDAN •

JAHON ADABIYOTI TURKUMIDAN

AZIZ NESIN

HAZILKASH ODAMLAR

Hikoyalar



ZIYO NASHR

Toshkent

2022

UO'K 821.512.161-31
KBK 84(5Tur)
N 48

Tahrir hay'ati:

**Naim Karimov, Erkin A'zam, Xurshid Do'stmuhammad,
Suvon Meliyev, Shuhrat Sirojiddinov, Dilmurod Quronov,
Nurboy Jabborov, Uzoq Jo'raqulov, Ulug'bek Hamdamov,
Abdurahmon Jo'rayev**

Turkchadan tarjimon:

Miad HAKIMOV


Nesin, Aziz.

N 48 **Hazilkash odamlar** [Matn]: hikoyalar / Aziz Nesin; tarjimon:
M. Hakimov. – T.: „Ziyo nashr“ nashriyoti, 2022. – 160 b.

ISBN 978-9943-6833-6-5

Mashhur turk yozuvchisi Aziz Nesin nomi kitobxonlarimizga yaxshi tanish. Adibning ko'pgina hajviy qissalari va hikoyalari o'zbek tiliga tarjima qilingan. Qo'lingizdagi to'plamdan yozuvchining hikoyalari o'rin olgan. Bu hikoyalarda hayotda uchrab turadigan tashvish va muammolar qalamga olinadi. Bu kamchilik va qusurlarni hajv tig'iga olgan yozuvchining mahorati sizni maftun etishiga shubha yo'q.

**UO'K 821.512.161-31
KBK 84(5Tur)**



ISBN 978-9943-6833-6-5

© Miad Hakimov (tarj.).
© „Ziyo nashr“ nashriyoti, 2022.

NASHRIYOTDAN

Biz o'tgan mingyilliklar davomida jahon sivilizatsiyasiga ulkan hissa qo'shgan, uni o'zgartira olgan xalqmiz. Madaniyat, san'at, axloq, falsafa, fan va adabiyot sohasida buyuk ajdodlarimiz qoldirgan ulkan meros hali-hamon dunyoning barcha rivojlangan mamlakatlari tomonidan e'tirof etilib, o'rganib kelinadi. Imom al-Buxoriy, Imom at-Termiziy, Burhoniddin Marg'iloniy, Ahmad Farg'oniy, Muso al-Xorazmiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Abu Nasr Forobiy, Bahouddin Naqshband, Abullays Samarqandiy, Yusuf Xos Hojib, Ahmad Yugnakiy, Mahmud Koshg'ariy, Ahmad Yassaviy, Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur, Boborahim Mashrab singari yuzlab ajdodlarimiz borki, biz ularni hech ikkilanmasdan jahon miqyosidagi mutafakkirlar deyishga haqlimiz. Ammo bugungi avlod ularning buyuk shaxsiyati, tarixi, jahonshumul shon-shuhrati bilangina cheklanib qolmasligi lozim. Ajdodlarning madaniy, ma'rifiy, ilmiy, ijtimoiy, adabiy faoliyati, hayot tarziga doimo hushyor nigoh va ibrat ko'zi bilan qarashimiz maqsadga muvofiq. Tarixiy manbalarni sinchiklab o'rganadigan bo'lsak, mutafakkir ajdodlarimiz jahon madaniyati, ilmiy va badiiy tafakkuri bilan doimiy tarzda hamqadam, hamnafas bo'lib kelganlar. Jahonda ro'y berayotgan birorta madaniy-intellektual o'zgarish, biror badiiy tafakkur namunasi bobolarimiz nazaridan chetda qolmagan. Ajdodlarimiz ularni o'qib, uqishar ekan, o'z milliy madaniyatlarini rivojlantirish, jahon xalqlaridan ortda qolmaslikni maqsad qilganlar. Ko'plab xorijiy tillarni bilganlari, xorij mutafakkirlari yozgan asarlarni tarjima qilganlari bu o'rinda qo'l kelgan. Eng muhimi, xorij madaniyati, badiiy-ilmiy tafakkuri namunalari nisbatan shaxsiy to'xtamlari, xulosalari va tanqidiy nuqtayi nazarlari bo'lgan.

Bugun biz, mamlakatimiz Prezidenti kitobxonlik madaniyatini takomillashtirishni davlat siyosati darajasiga ko'targan bir paytda, o'tmishda yashab o'tgan buyuk ajdodlarimiz an'anasini izchil davom ettirishimiz, jahon madaniyati, san'ati, adabiyoti namunalari bilan izchil va tizimli tarzda tanishib borishimiz zarur.

Xalqimiz ijtimoiy-madaniy hayotidagi mana shunday ulkan ehtiyojni nazarda tutib, „Ziyo nashr“ nashriyoti xayrli bir ishga qo'l urishga bel bog'ladi. Ya'ni joriy yildan e'tiboran jahon nasri namunalari yuz jildligini chop etishga kirishdi.

Mazkur nashrda siz turk, rus, ingliz, italyan, fransuz, nemis, hind, xitoy, arab, eron, yapon, amerika adabiyoti namunalari bilan tanishasiz. Yuz jildlikda Ch. Dikpens, L.N.Tolstoy, A. Dyuma, N.V.Gogol, O. de Balzak, A.P.Chexov, Gi de Mopassan, J. London, G. Flober, M. Sholoxov, G.G.Markes, A. Kuprin, V. Shukshin kabi siz muhtaram o'quvchiga nisbatan tanish yozuvchilar asarlari bilan birga, S. King, U.Folkner, V. Vulf, Mo Yang, Chan May Txyun, V. Losa Mario, T. Bug'ra, Dundar Alp, Dino Butssati, R. Akutagava, I. Bunin, K. Chandar, Abdul Muis, Y. Zamyatin singari jahon xalqlari tomonidan e'tirof etilgan-u, ammo o'zbek kitobxonlarining aksariyati ilk bor uchrashayotgan yozuvchilar asarlarini o'qishga muyassar bo'lasiz.

Mazkur yuz jildlik jahon nasrining deyarli barcha janrlarini qamrab oladi. Unda siz jahon o'quvchilarini hayratga solib kelayotgan romanlar, qissalar, novella va hikoyalardan bahramandlik hissini tuyasiz.

Tarjimalar ichida Abdulla Qahhor, Zumrad, Odil Rahimiy, Qodir Mirmuhamedov, Vahob Ro'zmatov, Ozod Sharafiddinov, Ibrohim G'afurovdek mashhur tarjimonlar o'g'irgan asarlar qatorida umidli yosh tarjimonlar ijod namunalari ham o'rin olgan. Albatta, tarjima asarlar tarkibida rus tili vositasida amalga oshirilganlari ko'proq. Bunda biz tajribali, mahoratli tarjimonlar o'g'irmalariga bo'lgan ishonch va hurmatni bosh mezon qilib oldik. Shu bilan birga, ingliz, fransuz, nemis, turk, arab, fors tillaridan qilingan original tarjimalarning mutaxassislar tomonidan tan olingan namunalari ham qamrab olishga urindik. Eng muhimi, bu o'rinda badiiy tarjimalar sifati, milliy tilimiz jozibasini qanchalik aks ettirganiga asosiy e'tiborni qaratdik. Yuz jildlikni tayyorlash jarayonida imkon darajasida xalqimiz ma'naviyati va axloqiy o'lchamlariga muvofiq keladigan asarlarni tanlashga harakat qildik.

Ammo shuni alohida ta'kidlashni istardikki, „Jahon nasri namunalarini yuz jildligi“ni chop etish nashriyotimiz uchun ilk tajriba. Shunday bo'lgach, mazkur yirik loyihaning kamchiliklari, maromiga yetmagan jihatlari bo'lishi tabiiy. Bu jarayon muttasil davom etib, tajriba va mahorat, texnik imkoniyatlar oshgan sari kamchiliklar ham bartaraf bo'la borishiga ishonamiz. Va, umid qilamizki, xayrli niyat bilan boshlayotgan ishimizdagi juz'iy kamchiliklarni aziz kitobxonlarimiz ma'zur tutadilar. Muhtaram adabiyotshunoslarimiz, adiblarimiz va adabiyot muallimlarimiz keyingi nashrlarni amalga oshirish jarayonida o'zlarining qimmatli maslahatlarini ayamaydilar.

Yaratgan Alloh ishimizni xayrli, ajr-mukofotlarga loyiq, jonajon xalqimiz uchun manfaatli qilsin!

DAHSHATLI TUSH

Istanbul radiosi eshittirishlarini tugatdi. Shu kecha ikki hikoya bilan bir felyetonni qo‘ldan chiqarishim kerak, buning ustiga, allaqaysi bir jurnalning savollariga javob tuzib chiqishim zarur. Bu narsalarning hammasi ertalabgacha bitishi shart. Ammo ishning mazasi bo‘lmay turibdi – faqat bittagina hikoyani yozoldim, xolos. Shu tobda ichimga chiroq yoqsa yorimaydi.

Hikoyaning yana bittasini ham do‘ndirib tashlayman degan niyatda bir dasta oq qog‘oz ham tayyorlab qo‘yganman, lekin nimani yozishimni bilmay xunobman.

Qornim tatalab ketganday bo‘ldi. Qiziq, nimani yozishni bilmay turganimda, doim shunaqa bo‘ladi. O‘zimni chalg‘itish uchun bahona qidirib qolaman. Yuqori chiqib qaragam, hamma dong qotib uxlab yotibdi. Oshxonaga kirdim. Sovib qolgan palovdan boshqa hech vaqo ko‘rinmadi. Shu tobda menga uni kim ham isitib berardi, deysiz.

Qaytib joyimga o‘tirdim. „Yaxshisi uxlash kerak! Ertalab barvaqtroq tursam, hammasini bitirib qo‘yaman!“ deb o‘yladim o‘zimcha.

Vaqt chorak kam uch bo‘libdi.

Odam bolasi uyquda ham yashaydi. Lekin bunaqa yashashning nima keragi bor! Yashaganingdan keyin tirik ekaningni sezib, turmush sirlarini bilib yashasang-da.

Qamoqxonada yotib chiqqan bir oshnam bor. Shu oshnam o‘zini xohlagan vaqtda tush ko‘rishga o‘rgatibdi. U hamisha menga: „Tush ko‘rsang, umring uzayadi“, – deb yurardi.

Bugun kechasi tush ko'rib chiqishimni o'zim bilaman. Shunisi ham borki, ishing bitmay, chala qolgandan keyin, albatta asabing buziladi, ko'rgan tushing rosa dahshatli bo'lishi turgan gap.

Shularni o'ylab yotib uxlab qolibman. Aytganimdek, juda dahshatli tush ko'rdim. Yaxshiyamki... Begona mamlakatga kelib qolgan emishman. Qanday mamlakatligini bilmasmishman-u, lekin o'zimcha uni Amerikagami, G'arbiy Germaniyagami o'xshatarmishman. Haddan ziyod keng, serhasham bir zalda emishman... Sizlarni bilmadim-u, lekin men tush ko'rayotganimni o'zim bilib turaman.

– E, Oq uyga kirib qolibsan-u, – dedim o'zimga o'zim. Zaldagi uzun stol tevaragida odamlar g'uj bo'lib o'tirishibdi. Qayerga kelib qolganimni, bu yerda o'zi nima g'ap bo'layotganini so'ray deymen-u, tilim bormaydi. Aslida o'zim rasmiy vazifa bilan kelganman, shuning uchun xijolatpazlikdan qo'rqaman. „Kelgan joyini ham bilmas ekan!“ – deb ta'na qilishlari mumkin-da, axir. Shularni o'yladim-da, so'ramay, o'zim bilib olaman deb, ahd qilib qo'ydim.

Rasmiy muzokaralar ketyapti. Mamlakatimizdan yakka o'zim vakilmishman. Zalda o'tirgan ajnabiylarning hammasi o'ziga zeb bergan, bashang, sersavlat odamlar emish.

– Xush kelibsiz! – deb ulardan biri meni qutladi. – Siz mamlakatingizdagi ahvolni gapirib berasiz.

Avvaliga qo'rqib ketdim, keyin o'zimga o'zim dalda berdim: „E, parvo qilma, nima bo'lardi, bu tush-ku“. Tushlikka-ku tush-a, ammo tushligini bilib qolishsa...

– O'zim bilgan narsalarni bajon-u dil gapirib beraman, – dedim dadillashib.

– Mamlakatingiz qoloq mamlakat-a, shundaymi?

Jon-ponim chiqib ketdi. Xudoyo o'zing sharmanda qilma, bunisiga nima deymen? Bordi-yu, „Ha, mamlakatimiz qoloq“, – deb yuborsam, chet elliklar oldida uni yomonotliq qilib qo'yaman. Jinoyat qonunida bu og'ir gunoh hisob-

lanadi. „Qoloq deganingiz nimasi, biz juda ilg‘ormiz“ – deydigan bo‘lsam, yolg‘onchi bo‘lib qolaman. Nima qilsamikin? Yaxshisi, yolg‘on gapirib qo‘ya qolay. Jinoyatchi bo‘lgandan ko‘ra, aldoqchi bo‘lgan ma‘qul, nega desangiz, yolg‘on gapga jazo yo‘q.

– Nega indamaysiz? – deb so‘rab qolishdi.

– Aybga buyurmaysizlar, savolni eshitolmay qoldim.

– Mamlakatingiz qoloq-a, shunday emasmi?

– Bu nima deganingiz?! – dangal so‘radim men ham.

– Hamma shunaqa deydi. Biz ham shunday deb eshituvdik.

– Bo‘lmagan gap, muhtaram janoblar! Shuni bilib qo‘yingki, bizning dushmanimiz ko‘p. Sha‘nimizga tuhmat qilayotganlar ham shular.

Hamma hayron, hamma yoqa ushlagan.

– Demak, biz noto‘g‘ri eshitgan ekanmiz-da, – dedi kimdir salmoqlab.

– Ha, shundoq.

– Sizlar noziktabiati odamlarsiz, „qoloq“ degan so‘zga g‘ashingiz keladi. Mayli bo‘lmasa, shu so‘zning o‘rniga „kam taraqqiy etgan“ degan iborani ola qolaylik. Ma‘qulmi?

– Yo‘q, bo‘lmaydi. Biz kam taraqqiy etgan mamlakat emasmiz aslo, biz juda-juda taraqqiy etib ketganmiz.

Yana hamma hayratda.

– Sizlarda elektr ko‘rmagan shaharlar bormi?

Yana „ha“ deydigan bo‘lsam mamlakatimizga dog‘ tushadi. Rosa arosatda qoldim-ku!..

– Yo‘q, bo‘lmagan gap!.. Hamma shaharlarimizda, hamma qishloq va qishloqchalarimizda elektr bor.

– Qoyil... Ajoyib...

– Lekin mamlakatingizda elektr quvvati uchun ko‘p haq olinadi deyishadi, shu gap to‘g‘rimi?

– Nima, elektr quvvatini aytyapsizmi?.. Iya, bizda elektr tekinku!

– Ajoyib... Juda antiqa...

Chet elliklar oldida mamlakatimni sharmanda qilmayotganim uchun o‘zimda yo‘q xursandman. Ha, to‘g‘ri-da, agar gazetalar shu gaplarimni ko‘chirib bosishsa bormi, qanday foydali ish qilayotganimni eshitib vatandoshlarim, albatta tasanno deyishardi.

– Sizlarda ijara haqi juda osmonda, uy-joy masalasi cha-toq emish, rostmi shu? O‘rtamiyona odam oladigan maoshi-ning yarmini ijara haqiga to‘lamasa, boshpanasiz qolar-mish-a?

Ichimda birov: „To‘g‘risini gapiraver, to‘g‘risini ga-piraver“, deb qistaydi. Unga men: „Holim voy bo‘ladi“, – deyman. U yana meni o‘z holimga qo‘ymaydi: „E, bu tush-ku. Tush ko‘rayotganingni ular bilib o‘tiribdimi, nima deganingni qayoqdan bilishardi. Loaqal tushingda to‘g‘ri gapirib olsang-chi“. A‘zoyi badanimni sovuq ter bosdi. Manglayimdagi terni sidirib tashladim-da, xaxolab kulib yubordim.

– Xa-xa-xa! Bizning mamlakat haqida shunday fikrdamiz deng! Gapning po‘skallasini aytaman. Xudodan bitta-yu bit-ta tilagim bor, u ham bo‘lsa shuki, bizni ko‘rolmaganlarning ko‘zi ko‘r bo‘lsin. Uy-joy masalasida zarracha tanqisligimiz yo‘q. Bildingizmi? Barcha madaniyatli mamlakatlardagiga o‘xshab bizning odamlarimiz ham maoshining atigi o‘n protsentini to‘lab, ajoyib uylarda turishadi.

– Xizmatchilar-chi?

– Xizmatchilar oila a‘zolarining soniga qarab ijaraga uy olishadi. Noliydigan joylari yo‘q. Ijara haqi ham shun-chalik ozki, kam pul to‘laganing uchun uy egasidan xijolat chekasan kishi.

– Undoq bo‘lsa, uy egalari nega bola-chaqali odamlarni qo‘ymaydi, deyishadi?

– Ana xolos! Qip-qizil yolg‘on-ku bu! Kim aytdi buni siz-ga! Ijarada o‘tiradigan odam bizda uy egasini ko‘rmaydi ham.

Munitsipalitet qoshida uy-joy bilan shug'ullanadigan mahkama bor. Ijaraga turmoqchi bo'lgan odam mana shu mahkamaga boradi-da, taxminan shunday deydi: „Menga besh xonali uy kerak, vannaxonasining toshi ko'm-ko'k bo'lsin, qizili to'g'ri kelmaydi, xotinimning asabi qittak nozikroq“.

– Mamlakat deb mana buni aytsa bo'ladi! – zaldagilarning zavqi kelib qiyqirib yuborishdi. – Ura!

Men ham bo'sh kelmay, yurtimizni ko'klarga ko'tarib maqtab ketyapman.

– Eshitishimizga qaraganda, yurtigingizda ishsizlar ko'p, ish sharoiti og'ir, mehnat haqi juda oz emish-a?

– Iya, sizlar o'zi kimga ishonasizlar: har xil g'arazgo'y-largami yo mengami? – deya o'shqirib berdim.

– Sizga-da, albatta...

– Unday bo'lsa quloq soling. Ishchilar to'g'risida gapirib bera qolay... Bizning ishchilarimiz juda yaxshi turmush kechirishadi. Bildingizmi? Ularning o'zlari hech narsadan nolishmaydi-ku, boshqalarning tinch yurmaganiga hayronman... Qani, menga ayting-chi, qaysi bir mamlakatning ishchisi biznikiga o'xshab ko'p haq oladi? Hech kimniki! Biznikilar shunchalik ko'p pul olishadiki, to'g'risini aytsam, ortiqchalik ham qiladi... Sir bo'lsa ham sizlarga shuni aytib qo'yay, agar bizning ishchimiz ovqati, kiyim-kechagi va ijara haqidan ortib qolgan pulini yig'ib yursa, bir oyning ichida bemalol kattakon fabrika qurib olishi mumkin. Lekin u fabrikani boshiga uradimi. Busiz ham uning joni rohatda...

– Voy-bo'!.. Zap mamlakat ekan-ku bu!

Qani endi mamlakatimizni rosa maqtayotganimni Anatoliya agentligi bilib qolsa-yu, boshqa yoqlarga ham olib eshittirsa... Bu shirin xayollarim zoye ketmasmidi.

– Maorif masalasi qalay? Aholining sakson foizi savodsiz, deyishadi.

– Ana xolos... Lof ham evi bilan-da. Yolg'on gap shunaqa bo'ladi deb o'ylovdim-a. Odamlarimiz shundoq savodxon-

ki, kitob o'qish-u, xat yozish degan narsalar jonlariga tegib ketgan. Hammaning savodi chiqqan... Garov o'ynab bitta savodsiz odam topib ko'ring-chi! Professorlar, jurnalist va yozuvchilar ham bizda yo yozishadi, yo o'qishadi. Hattoki, bir o'tirishda ham yozib, ham o'qiydigan odamlarimiz bor. Yozuvchilarning ham, kitobxonlarning ham tagi mo'l. Bizda shunchalik maktab ko'pki, o't-betdan yo'l ochish kerak bo'lib qolsa, to'ppa-to'g'ri maktablarni buzib o'tib ketaverishadi, o'qituvchilarning bo'lsa son-sanog'i yo'q... Bittasini chaqirsang, sakkiztasi „labbay“ deb keladi.

– Maktab ochish uchun Amerikadan keltirilgan uskunalarga nima deysiz?

– Iya, bu hazil edi-ku. Kuch-qudratimizni begonalardan yashirish uchun shunday qilgan edik-da. Biz jo'rttaga maktablar uchun bino yetishmaydi, degandik.

– Shoshmang, bu yerda bir gap borga o'xshaydi, – o'tirganlardan biri sapchib o'rnidan turib ketdi, – o'zingiz yozgan maqolalarni o'qiganmiz. Gazetalardagi felyetonlaringizda hamisha mamlakatda maktab va o'qituvchilar yetishmaydi, deb yozasiz-ku...

– Hali shunga ishonib o'tiribsizlarmi? Qo'yinglar-e! Buni men oppozitsiya uchun, ya'ni muxoliflar paydo qilish uchun yozaman. Xalqimiz muxolif bo'lishni zap yaxshi ko'radi-da. Hamma narsa qoyilmaqom, deb yozadigan bo'lsak, xalqimiz bizdan ranjib qoladi. Mana shuning uchun maktablar yetishmaydi, deb yozamiz, obunachilarni ko'paytirish uchun shunga o'xshagan narsalarni to'qib yuramiz. Bunaqa gaplar mahalliy axborot hisoblanadi, chetga boshqachasini yuboramiz.

– Sizlarda yo'llar yo'q, borlari ham xarob deyishadi, bunga nima deysiz?

Bunday gaplar me'damga tekkani uchun irg'ib o'rnimdan turdim.

– Bas endi, men ketaman.

– Ha, yo‘l bo‘lsin, bu yerdan hech qayoqqa chiqib ketolmaysan, hozir tush ko‘rib yotibsan...

Demak, hammasini tushimda ko‘rayotganimni ular ham bilishar ekan-da.

– Qo‘yib yuboringlar, ketaman.

– Qayoqqa?

– Yurtimga...

Eshikka qarab yurdim. O‘tirganlarning hammasi „gur“ etib ustimga yopirildi, birpasda meni burchakka taqab qo‘yishdi.

– Qo‘yib yuboringlar meni!

– Sen tush ko‘ryapsan, hech qayoqqa ketmaysan!

Na qo‘limni va na oyog‘imni qimirlata olaman.

– Yana bitta savolim bor, – dedi bittasi biqinimga tur-tib, – sizlarda erkinlik bormi, yo‘qmi?

Qo‘rqqanimdan tilim aylanmay qoldi.

– Hm... Hm... Hm... – yo‘talib ham oldim. Gapim bo‘g‘-zimdan chiqmaydi.

– Qani, gapir, gapir, erkinlik bormi? – deya hammasi bir og‘izdan so‘rashdi.

Nihoyat, yana tilga kirdim, g‘o‘ldirab turib aytdim:

– Bor... Juda ko‘p, to‘lib-toshib yotibdi...

– Mamlakatingizda hamma erkinliklardan bormi?

– Sizga qaysi biri kerak o‘zi?

– Aytaylik, matbuot erkinligi.

– Bor bo‘lganda qandoq... Bizda hammasi bor. Qalashib yotibdi. Matbuot erkinligi ham bor. Istagancha topiladi. Meni qo‘yib yuboringlar endi!..

– Demak, sizlarda hamma erkinliklar bor ekan-da?

Ichimda o‘ylayman: „Tong. albatta otadi... Bu dahshatli tush bir umr cho‘zilishi mumkin emas. Nima bo‘lsa ham, albatta tong otadi, men uyg‘onaman...“

– Sizlarda matbuot erkinligi bormi?

– Bor deb aytdim-ku, axir... Ha, bor!

– Bor bo‘lsa juda soz, ammo matbuot haqidagi eski qonun hali amalda deyishadi-ku. Bu qanday erkinlik bo‘ldi?

– Ha, nima bo‘pti... Sizlarga nima... Amalda bo‘lsa bo‘laversin, axir endi qo‘llanilmaydi-ku... Bizning mamlakatimizda sulton Fotih Istambulni bosib olayotganida ish bergan to‘plar ham bor, xo‘sh, hozir bularning keragi bo‘lmasa, albatta yo‘qotib yuborish shartmi? Biz boshimizga qanday kulfatlar tushganini unutmashlik uchun demokratiyaga zid bo‘lgan mana shu qonunni saqlab kelyapmiz. Bizda matbuot erkinligi va boshqa juda ko‘p erkinliklar bor. Bular shunchalik ko‘pki, qayoqqa sig‘dirishni ham bilmay garangmiz.

– Mamlakatda iqtisodiy ahvol chatoq, byudjet nuqul zarar ko‘ryapti, deb eshitdik. Bunga nima deysiz?

Xudoyo mushkulimni o‘zing oson qil, bunisiga nima deb javob beraman? Qora terga botib ketdim-ku!

– Nima, butun umrim uyquda o‘tadimi? Yetar menga shuning o‘zi! – deya qichqirib yubordim.

– Agar to‘g‘risini aytmasang, hech qachon uyg‘onmaysan.

Rostini aytadigan bo‘lsam, mamlakatimizga qarshi propaganda yuritgan bo‘laman... Yo parvardigor, sho‘rlik boshimni qandoq kulfatlarga solding!

– Ekonomikamiz siz o‘ylagandek yomon ahvolda emas. Aksincha, juda porloq. Shunday porloqki, ko‘rsangiz ko‘zingiz qamashadi... Byudjetga kelsak, zarar bilan foyda tenglashib qolgan. – Shu yerga kelganda gapning beliga tepib, shartta to‘xtatishdi.

– Demak, ma‘lum bo‘ladiki, sizlar yordamga muhtoj emas ekansiz, – dedi hozir bo‘lganlardan biri, – bizga haqiqiy ahvolni aytib berasiz degan maqsadda sizni chaqirtirgan, mabodo yordamga muhtoj bo‘lsangiz, qarz ochib, sizlarga mablag‘ bermoqchi bo‘lgan edik... Ko‘rinib turibdi, ishlaringiz joyida, yordamga hojat ham yo‘q ekan. Xo‘p, xayr.

Bu gapni eshitib es-hushimni yig‘ib oldim.

– Nima?! – deb ovozinning boricha bo‘kirdim. – Demak, meni chet eldan yordam olishga vakil qilib yuborishgan ekan-da. – Mayli, nega buni ilgariroq aytmadingiz, bilganimda shunga qarab to‘n bichardim, gapning to‘ppa-to‘g‘risini aytib berardim.

– Xo‘p, xayr.

Alamimga chidayolmay ho‘ngrab yig‘lab yubordim. Buni qarang, chet eldan yordam olish mumkin ekan-ku, men qo‘ldan boy berib qo‘yibman-a. Alam qiladigan joyi shundaki, mamlakatimni ajnabiylar oldida yomonotliq qilib ko‘rsatgan, jinoyat qilgan bo‘laman deb o‘ylab, yordamdan quruq qolibman.

Yig‘idan uyg‘onib ketdim. Hali tong yorishmagan ekan.

Shamchiroqni yoqdim. Stulga o‘tirdim. Tushimda rostdan ham yig‘lagan ekanman. Ko‘z yoshlarimni artib olib, hozirgina ko‘rgan dahshatli tushimni qog‘oz betiga tushira boshladim. Nahotki, hech tong otmasa-ya! Qurib ketkur tun biram cho‘zilib ketdiki...

AFSUSKI, ILOJI YO‘Q!

Hamma menga:

– Bo‘ldi endi, boshingni ikkita qilib qo‘ymasak bo‘lmaydi! – deydigan bo‘lib qoldi.

Aslida o‘zimning ham niyatim shu, lekin ko‘nglimga yoqadigan qizni topolmay turibman.

– Bitta juda odobli qiz bor! – deya bir qizni ta‘riflab qo‘lishdi.

Bilib turibman, gap qizning odobidan ketsa, albatta husnida biror nuqsoni bo‘ladi.

– Judayam odobli bo‘lmasa ham mayli, ishqilib, aftangori sal durustroq bo‘lsa bo‘ldi, qaraganda ko‘ngil aynimasa bas, – dedim ularga.

– Iya, nima deyapsan, ko‘nglingdagidek qiz-a!

– O‘zim ham xuddi shunidan xavotir olib turgan edim.

– Juda madaniyatli qiz, naq o‘zing!

Hay, bunisi ham ma‘qul, deyalik. Demak, madaniyatli qiz ekan-da, xo‘p. Bundoq o‘ylab qarasangiz, madaniyatli degani ko‘p g‘alati narsa o‘zi. Gazeta va jurnallarda bosiladigan e‘lonlarda ko‘rgan bo‘lsangiz kerak, bo‘yoqchining shogirdidan tortib, katta amaldorgacha – hammasi madaniyatli xotin qidiradigan bo‘lib qolgan.

– Qizning onasi nemis, otasi turk.

– Qoyil, ayni muddao.

Jonivorlarning ham, odamlarning ham duragayi yaxshi bo‘ladi. Umar Sayfiddinning¹ mashhur hikoyasidagi madam fon Sadreshteyn esimga tushdi. Kifti keng, o‘zi polvonnamo nemis ayoli edi u. Sportchilarga o‘xshab kiyinadigan bu xotin har kuni ertalab qo‘lida to‘rva ko‘tarib, gurs-gurs qadam tashlab bozorga borib kelardi.

– Bo‘lg‘usi kelin nemis, fransuz, italyan tillarida bemalol gaplashadi.

Qirq yil bo‘ydoq yurib, bejiz kutmagan ekanman, deb qo‘ydim ichimda. Sabrning tagi oltin deb shuni aytishar ekan-da.

Mening halovatimni buzgan madmuazel Elefra bo‘ldi. U yoshi ellik to‘qqizga borib qolgan, ko‘rinishi qoq baliqqa o‘xshagan bir xotin edi.

– O‘zi biram ko‘hlikki, tre joli²... – dedi u. Qaddi-qomati kelishgan, uzun bo‘yli, o‘ziyam tre kyultive³... Innaykeyin, tagi juda toza.

– Madmuazel Elefra, – dedim unga, – siz unga mening to‘g‘rimda ham gapirdingizmi? Har holda yoshim qirqqa borib qolgan...

– Aytdim, aytdim... erkak kishining qirq yoshda aqli kiradi, – dedi.

¹ Yirik turk yozuvchisi (1884–1920).

² *Tre joli* – g‘oyat chiroyli (*frans.*).

³ *Tre kyultive* – juda oqimishli (*frans.*)

– Bo‘yim past ekanligini ham shipshitib qo‘ydingizmi?

– Ha, bunisini ham aytdim, bo‘yi past bo‘lsa, aqli baland bo‘ladi, – dedi.

– Bedavo reportyor ekanligimni, paypoq yamaydigan qizlarga o‘xshab oyiga atigi ellik lira haq olishimni, o‘shanda ham xo‘jayinning gapini ikkita qilmasligim shartligini gapirdingizmi?

– Gapirdim! O‘zining uch joyda hovli-joyi bor. Hech narsadan muhtojligi yo‘q.

Bo‘pti. Endi o‘zidan ko‘rsin. Har kim ekanini o‘radi, degan gap bor. O‘ziki boshiga balo sotib olmoqchi ekan, bo‘pti, men roziman.

Ochig‘ini aytsam, uylangani ko‘nglim yo‘q. Ammo bir oshnam har kuni quloq-miyamni yeydi. Erta-yu kech miyamda yong‘oq chaqadi:

– Jon do‘stim, uylana qolgin, ikkalamizning taqdirimiz shunga bog‘liq. Mana shu la‘nati qashshoqlikdan bir amallab qutulaylik.

– Esingni yedingmi, og‘aynijon, – deyman unga. – Axir shu zamonda bunaqa qiz menga tegarmidi!

– O‘zingni ko‘pam go‘llikka solaverma! Boshingga baxt qushi qo‘nganida tentaklik qilma endi! Qani, tezroq harakatingni qil!

O‘ylab-o‘ylab, oxiri rozi bo‘ldim. Madmuazel Elefra qizni ishxonamga olib keladigan, o‘rtog‘im ham o‘sha yerga boradigan bo‘ldi. Shunga kelishdik.

Mana, belgilangan kun ham keldi. Bo‘ydoqlik qandoq azob ekanligini bilgan biladi, bilmagan qayoqdan biladi. Bir kun oldin kechqurun oq ko‘ylagimni yuvib, balkonga yoyib qo‘ydim. Aksiga, kechasi bilan yomg‘ir quyib chiqdi. Ertalab ko‘ylakni olib qarasam, jiqqa ho‘l. Boshqasini kiya qolay desam, kir ekan, yana birining yoqasi g‘ijimlanib yotibdi. Bo‘lar ish bo‘ldi dedim-u, ho‘l ko‘ylakni yaxshilab siqib, yoqasi bilan yengini kraxmalga soldim. Keyin daz-

molni obdan qizdirib, ko'ylakka bosdim. Shu zamonning ko'ylaklari juda g'alati-da: yoqaning astari nima uchundir avrasidan keng bo'ladi. Qancha dazmol bossang ham, hech tekislab bo'lmaydi. Kostyumni benzin bilan tozaladim. Bundoq qarasam, na toza ro'molcha bor va na paypoq! Soqol olayotgan edim, allanarsaning kuygan hidi dimoqqa urdi. Turib qarasam, qizigan dazmol shimimning ustida qolib ketgan ekan, tizzadan kuydiribdi. Ming la'nat shunaqa hayotga! Ilgari uylanmasam ham, endi uylanaman! Hali qurimagan ko'ylakni kiydim. Shoshganda labbay topilmas deganday, soqol olayotganda yuzimni uch-to'rt joyidan kesib olgan ekanman, tirqirab qoni chiqib yotibdi.

Kechikiyapman. Yo'ldan taksi olib, o'pkamni qo'ltiqlagancha idoraga kirib keldim. Eshik oldida meni kutib olgan o'rtog'im:

– Qayoqda sanqib yuribsang? Bir soatdan beri seni kutib o'tirishibdi, – deya to'ng'illab berdi.

– Xo'sh, o'zi qalay? Qaymoqdaymi?

Oshnamning yuzi devorday oqarib ketibdi.

– Hozir o'zing ko'rasan!

Imtihon berayotganda ham bunchalik hayajonga tushmagan, ishim oliy sudga oshirilganda ham bunchalik qo'rqmagan edim. Yuragimni hovuchlab, ichkari kirdim? Kirdim-u, darhol madmuazel Elefrani, uning yonida esa... hayvonot bog'idan qochgan bir maxluqni ko'rdim. Dahshat ichida o'rtog'imga qaradim. U yuzini devorga o'girib olibdi.

– Keldingizmi?

– Kechirasiz, kuttirib qo'ydim!

Ko'zlarimiz to'qnashdi. Oldimda turgan shu stolni dast ko'tarib madmuazel Elefraning boshiga tushirsammikin! O'zim ham husnda beriroqman-u, lekin bu darajada emas-da. Menga olib berishmoqchi bo'lgan bu qizdan faqat bir maqsadda foydalansa bo'ladi: uni chodirga kiritib qo'yanam-u, tashqaridan turib: „Odamlar-u, odamlar, eshitmadim de-

manglar, dunyoda yettita ajoyibot bo'lsa, sakkizinchisini chodirning ichida ko'rasiz! Kelib qoling, ko'rib qoling!" – deb qichqiraverasan.

Avvaliga uni sayil va bayram kunlari ko'cha-ko'ya odamlarga tomosha qildirsa, keyin esa qishloqma-qishloq yurib, butun Anatoliyaga ko'rsatib chiqsa bo'ladi.

Ilojini topsang, Yevropa bilan Amerikaga ham yetaklab borsang bo'ladi. Qolaversa, savobli ish qilgan ham bo'lasan, mamlakatingni chet ellarda targ'ib qilib, begonalarni uning hayvonot olami bilan ham tanishtirib chiqasan.

Nihoyat, u bilan qo'l berib so'rashdik.

– Qalaysiz? Salomatmisiz?

– Mersi! O'zingizdan so'rasak?


Madmuazel Eleftraning savoli tomdan tarasha tushgandek bo'ldi:

– Qalay, yoqdimi?

– Madmuazel Eleftra, Istanbulda hayvonot bog'i ochilarmish, siz eshitmadingizmi?

– Yo'q, eshitmadim, – sovuqqina javob berdi u.

Ilgarilari armiyada to'p tortadigan bir xil otlar bo'lardi. Harbiy paratlarda bu boyaqishlarning tumshug'i bilan yag'rinidan duv-duv ter to'kilardi. Bu qiz ham o'shanaqa otga o'xshaydi. Lekin menga xotinlikka mo'ljallangan bu maxluqning oldida o'sha otning afzal tomoni bor – u jim desang, jim bo'ladi. Bunisi esa chakagi tinmay valdiraydi, buning ustiga, og'zi kompas strelkasiday bir tomonga yo'nalib turganligidan nima deyayotganligini hecham tushunib bo'lmaydi. Odatda birov gapirganda, javob bermaslik odobdan emas, lekin uning gapiga tushunmayotgan bo'lsam nima qilay! Gapiga tushunmagan taqdiringda ham odamning ko'ziga qarab, „ha“ yoki „yo'q“ deb tursang bo'ladi, ammo manavining qovoqlari ko'zini yopib qo'yganligi uchun, bozor kunlari tuynukdan savdo qilayotgan baqqolga o'xshab o'lazarak qaraydi. Xullas, Xudo uni yaratgan-u, bu badba-



shara maxluqni ko‘rib o‘zi ham hayron bo‘lgan. Xudo har narsaga qodir, deb shuni aytar ekan-da!

To‘rt tilni biladi, deyishgan edi, bo‘lmagan gap ekan. Ma‘lum bo‘lishicha, do‘konda ishlab yurganida sal-pal fransuzchani bilib olgan, mijozlar uni ko‘rib do‘konga kirmay qo‘yganlaridan keyin ishdan quvilgan ekan. Onasini nemis deyishuvdi, bu gap ham chatoq chiqdi. Aslida onasi emas, bundan o‘n yil oldingi qo‘shnisi nemis bo‘lgan ekan. „Uch joyda uyi bor“ deyishgan edi, turgan-bitgani lof bo‘lib chiqdi. Uchta hovlisi emas, uch xonali uyi bor-u, bu ham garovga qo‘yilgan ekan. Buning ustiga, uy sakkiz aka-ukaning o‘rtasida ekan.

– Qalay, sizga yoqdimi? Hozir gaplasha qolaylik! – yana so‘radi mendan madmuazel Eleftra.

Mushkul ahvolda qoldim. Bordi-yu, iltifot yuzasidan „ha“ deyidigan bo‘lsam, darrov to‘ydan gap boshlanishi aniq. Tilim g‘o‘ldirab qoldi:

– Bilasizmi... Bunaqa nozik masalada... Labbay? Erkak kishidan oldin... Xotin kishining fikri... e... Menga qolsa, albatta... Mening fikrimni bilmoqchi bo‘lsangiz...

Qiz boyaqishga bundoq qarasam, og‘zimga ko‘z tikib o‘tirgan ekan. O‘rtaga jimlik cho‘kdi.

– Havo biram yaxshiki!..

Cho‘kayotgan odam xasga yopishadi, deganday, darrov uning gapini ilib oldim:

– To‘g‘ri aytasiz, xonim, havo juda ajoyib. Bu yil...

Ob-havodan gap ketsa, bir hafta surunkasiga gapirishim mumkin.

Ammo shu on rahmim qo‘zg‘adi. Buni qarang, Xudo qarag‘agan bechora bir qiz turmushga chiqmoqchi bo‘libdi-yu, uning yolg‘iz umidi men ekanman. Sizga yolg‘on, xudoga chin – ko‘zimga yosh oldim. „Shu sho‘rlikka uylana qol! – dedim o‘zimga o‘zim. – Hayotingda ko‘p nojo‘ya ishlar qilgansan, nari borsa bu ham shuning bittasi bo‘lar. Qolaversa, savob ish qilgan ham bo‘lasan!“

– Bu yil havo o‘tgan yildagiga sira o‘xshamaydi.

– Shundoq, afandim!

Qizning betiga tikilaman. Yashirib nima qilay, miyamga bir fikr keldi: unga uylangach, bir kunmas bir kun uning ana shu betidan, albatta o‘pishga to‘g‘ri kelar. Men o‘shanda labimni tekkizishim mumkin bo‘lgan nuqtani uning yuzidan qidiraman. Bo‘jama bilan husnbuzar dastidan tirnoqday bo‘sh joy qolmabdi. Yana o‘sha niyatda qizning soch va qo‘llariga razm solaman. Tavba, hech qayerida bo‘sh joyi yo‘q-a! „Sen shoirtabiat kishisan, – tasalli beraman o‘zimga o‘zim, – xayolga boy odamsan, shuning uchun uning aftiga qaraysan-u, boshqa bir jononning yuzini xayolingga keltirasan“.

O‘sha kuni rosa ikki soat ob-havodan gaplashib o‘tirdik. Ular bilan xayrlashayotganimda, qizning chap oyog‘i o‘ng oyog‘idan kaltaroq ekanligini payqadim. Bu gal qizning nuqsonini ko‘rib rahmim keldi.

Ular eshikdan chiqib ketishi bilan oshnam mendan so‘radi:

– Xo‘sh, nima deysan?

– Men shu qizga uylanaman!

– Iya, esingni yedingmi?

– Bundan yaxshi xotin topolmayman! Shunga albatta uylanaman.

Kechqurun madmuazel Eleftra kelib qoldi.

– Uylanadigan bo‘ldim! – dedim unga.

– Kimga?

– Kimga bo‘lardi?! Siz bilan kelgan qizga-da!

– Afsuski, iloji yo‘q, – dedi u bosh chayqab. – Siz unga yoq mabsiz!

XOTIN KISHI BO‘LGANIMDA-YU...

Salomat trikotaj fabrikasiga darvozabonlikka kirib, sakson lira oylik oladigan bo‘ldi. U bunaqa maosh bir kishi u yoqda tursin, chorak kishiga ham yetmasligini bila turib,

shunday qildi, chunki u o'zining ishchanligiga, uddaburonligiga ishonardi. Axir uning bu qobiliyati bir kun emas-bir kun xo'jayinning qulog'iga yetmay qolmaydi, ana undan keyin oylikning oshishi ham gapmi! Aslida darvozabonlik qilish unga to'g'ri kelmasdi-ya, lekin nachora, dunyoning ishlari shunaqa ekan. Hatto o'zi darvozabon bo'lishga arzimaydiganlarning ham eshigini besh-o'nlab tuppa-tuzuk odamlar qo'riqlay berar ekan. Xullas, dunyoning ishlari charxpalak degandek, xo'jayinlar bilan darvozabonlar o'rin almashgan ekanlar-da.

Salomat oyligim oshib qolar, deb erta-yu kech jonini jabborga berib ishladi. Hatto, qani endi tungi qorovul bo'lib olsam, deb ko'ngliga ham tugib qo'ydi. Tungi qorovul 200 lira oylik oladi-ya. O'zi unchalik qiyin ish emas.

Odam bolasi astoydil niyat qilsa, albatta niyatiga yetarkan. Bir kuni uni xo'jayin chaqirtirib:

– Xizmatingdan xursandman, – dedi.

– Rahmat, afandim, salomat bo'ling.

Keyin xo'jayin undan:

– Uylanganmisan? – deb so'rab qoldi.

– Ha, uylanganman, – dedi u biror nojo'ya ish qilib qo'ygan odamday qimtinib.

Keyin, aybini birato'la bo'yniga olib, yengil tortmoqchi bo'lgan kishiday boshini egib, qo'shib qo'ydi:

– Ikkita bolam ham bor, beyafandim.

Xo'jayin ham koyigan, ham achingan bo'ldi.

– Ana xolos! Tirikchilik qanday o'tyapti?

– Bir amallab, beyafandim.

– Kel, senga bir yaxshilik qilay. Kunduzi darvozabonlikdan qutulgach, kechasi qorovullik qila olasanmi?

– Qo'limdan keladi, afandim.

– Buni qara, kunduzi olti soat darvozabonlik qilasan, kechasi sakkiz soat navbatda turasan. Jami o'n to'rt soat bo'ladi. Yana o'n soat bo'sh vaqting qoladi. Rozimisan shunga?

– Qulluq, beyafandim.

– Kechasi ishlaganing uchun oyligingga yana o‘ttiz lira qo‘shib beraman.

– Rahmat.

200 lira oylik oladigan tungi qorovul uyquasi qattiq bo‘lganligi uchun darhol ishdan bo‘shatildi, o‘rniga uni tayinlashdi. Kunduz kunlari u darvozada turadigan, kechalari esa bo‘yniga shaqildoq osib, fabrikani qo‘riqlaydigan bo‘lib qoldi. Maoshi 110 liraga chiqdi.

Kechani kecha, kunduzni kunduz demay ishlayverdi. Xo‘jayin ham befahm odam emas-ku, payti kelib uning jonbozligini inobatga olar, qo‘lidan keladigan yaxshiligini aymas, axir. Masalan, aytaylik, fabrika kotibining o‘rniga o‘tsa, qanday soz bo‘lardi. Kotib oyiga 300 lira haq oladi-ya!

Odam bolasi bir narsani niyat qilsa, niyatiga yetarkan. Bu gal ham shundoq bo‘ldi.

– Xizimatingdan mamnunman, – dedi xo‘jayin uni chaqirib. – Senga yana bir yaxshilik qilmoqchiman. Kechalari har holda bekor o‘tirarsan. Arzimagan yozuv-chizuv ishlari bor edi, shuni qilmaysanmi? Oyligingga yana 60 lira qo‘shib berardim...

Bundoq o‘ylab qarasa, oyiga 170 lira oladigan bo‘larkan.

– Iloyim biringiz o‘n bo‘lsin, afandim, – deb javob berdi u xo‘jayinga.

300 lira maosh oladigan kotib qahva ichish va chekishdan qo‘li bo‘shamay, ishga qaramay qo‘yganligi vajidan fabrikadan quvildi. Buning yumushi ham darvozabonga o‘tdi. Endi u kunduz kunlari darvozabonlik qiladigan, kechalari esa fabrikani qo‘riqlash bilan birga, yozuv-chizuv ishlarini ham bajaradigan bo‘lib qoldi.

U tinim bilmay ishlayverdi. Xo‘jayinning ham ko‘zi bor-ku, uning bu ishlarini ko‘rmay o‘libdimi. Fabrikaning buxgalteri 400 lira maosh oladi-ya! Qani endi buxgalter ham bo‘la qolsa...

Odam bolasi bir narsani astoydil niyat qilsa, niyatiga yetarkan. Kunlardan birida xo'jayin uni yana chaqirib qoldi:

– 170 lira sizga kamlik qilayotganini sezib turibman, shuning uchun bir oz oshirib bermoqchiman.

– Tashakkur, afandim, – deya minnatdorchilik bildirdi u.

– Ancha bo'sh vaqtingiz bor ko'rinadi. Uyda bekor o'tirganingizda fabrikaning hisob-kitobi bilan shug'ullansangiz devdim.

– Jonim bilan, afandim.

– Juda soz, maoshingizga yana 45 lira qo'shib beraman.

400 lira oylik oladigan buxgalter to'rt amalni chalkashtirib yuborganligi uchun ishdan quvildi.

Bizning darvozabon endi 215 lira oylik oladigan bo'lib qoldi. Kunduzi u olti soat eshikda turadigan, kechasi sakkiz soat fabrika qo'riqlaydigan va shu vaqt ichida yozuv-chizuv ishlarini ham qiladigan, uyida esa fabrikaning hisob-kitobi ustida bosh qotiradigan bo'ldi.

U bor kuchini ayamay, ter to'kib ishladi. Endi omborga mudir bo'lish tushiga kiradigan bo'lib qoldi. Ombor mudirining maoshi 450 lira-ya!

Odam bolasi bir narsani astoydil niyat qilsa, niyatiga yetarkan.

Yana uni xo'jayin chaqirib qoldi.

– Sizga bir yaxshilik qilmoqchiman, ombor mudirligini ham olib bersam, nima deysiz?

– Minnatdor bo'laman, beyafandim.

– Juda yaxshi, maoshingizga yana 35 lira qo'shib qo'yanman. Borib, omborni qabul qilib olavering!

Ombor uchun olingan ba'zi mollarni adashib o'zining uyiga tashib ketadigan parishonxotir omborchining pattasi qo'lga tutqazildi. Ombor mudirligi ham darvozabonga o'tdi.

Ish ko'pligidan uning qo'li qo'lga tegmay qoldi. Xo'jayin ham ho'kiz emas-ku, kezi kelganda uning tirishqoqligini inobatga olar, axir. Mana, inobatga oldi ham.

Xo'jayin bir kuni uni huzuriga chaqirib:

– Sizdan g'oyat minnatdorman, juda xursandman... – dedi. – Ishlagan tishlaydi-da. Ochig'ini aytganda, darvozabonlik sizga yarashmaydi. Boshqa yumushlar zimmangizda qolaveradi-yu, men sizni fabrikaga direktor qilib ham tayinlamoqchiman.

Direktor bo'lish-a? Buni eshitib Salomat dovdirab qoldi! O'zi-ku ayni muddao-ya! Odam bolasi bir narsani astoydil niyat qilsa, niyatiga yetarkan. Mana, fabrikaga direktor ham bo'lib oldi.

– Oyligingizga 90 lira qo'shildi, – dedi xo'jayini.

Darvozabonlikdan bo'shaganligi sababli maoshi 80 lira kamaydi. Lekin yangi lavozimi uchun qo'shimcha ravishda to'qson lira ola boshladi. Xullas, oyiga hammasi bo'lib 260 lira maosh oladigan bo'ldi.

2500 lira maosh olib kelgan direktor xo'jayinning sekretari bilan „don olishib“ qolgani uchun fabrikadan qovildi.

Fabrikada qirq ishchi, ikki usta va yigirmaga yaqin mashina bor. Oddiy ishchi bo'lish uning qo'lidan kelmaydi, ustalikni eplay olmaydi, mashinalarning o'rnini esa bosolmaydi. Idorada o'zi bilan xo'jayinning sekretaridan boshqa hech kim qolmagan.

U bo'sh paytlarida sekretar qiz bilan valaqlashib o'tirib, unga nuqul xo'jayinni maqtab ketardi:

– Baraka topkur, xo'p tillo odam-da. Men fabrikaga sakson lira oladigan darvozabon bo'lib kiruvdim. Meni tungi qorovul qilib tayinladi, oylikni 110 qildi. Innaykeyin, kotiblikni ham beruvdi, maoshim 170 ga chiqdi. So'ng hisob-kitob ishlarini ham inoyat qilgan edi, 215 lira oladigan bo'ldim. Shundan keyin omborchilikni ham qo'shib beruvdi, oylik 250 liraga yetdi. Mana endi direktor ham bo'lib oldim. Maoshimni aytmaysizmi – 260 lira-ya!

Sekretar qiz ham unga bo'sh kelmadi:

– Men fabrikaga pol yuvadigan bo‘lib kirganman. Oyligim 40 lira edi. Keyin xo‘jayinning kir-pirini yuvadigan, uyini su-purib-sidiradigan bo‘ldim, haqim 60 liraga chiqdi. So‘ngra mashinistkalikni ham o‘rganuvdim, 80 lira to‘laydigan bo‘ldi. Uyida ovqat qilib berishga, ro‘zg‘origa qarashishga o‘tdim, 100 lira ola boshladim. Keyin... keyin bo‘lsa, xo‘jayin uchun kim bo‘lib qolganimni o‘zingiz ko‘rib turibsiz. Menga yana 15 lira to‘laydigan bo‘ldi. Hozir 115 lira olib turibman.

Bir kuni u qizga qarab:

– Ko‘p ishlab, toliqib qolyapsan-da, – dedi.

– O‘zingiz-chi? – javob berdi u. – Nahotki maoshingiz kamlik qilmayotgan bo‘lsa! Oyligingiz oshishini nahotki istamasangiz?

U qizning betiga tikildi. Idorada shu sekretar qiz ikkovi-gina qolganligi uning esiga tushdi. Keyin bu qizning qo‘-shimcha vazifasi nimadan iborat ekanligini ko‘z oldiga kel-tirib, seskanib ketdi.

– Yo‘q-yo‘q, – dedi u, – oyligimning oshishini istamay-man. Shunisiga ham shukr. Xotin kishi bo‘lganimda nima bo‘lardi-a? Xudo ko‘rsatmasin! Xo‘jayin seni ham ishdan haydab, oyligimga yana 20 lira qo‘shib berardi... Yo‘q, kerakmas... erkak kishi bo‘lganimga xursandman... Ammo lekin xotin kishi bo‘lganimda-yu...

FARZAND

Bu xotinning sochi ko‘kimtir rangga bo‘yalgan bo‘lsa ham, peshanasiga osilib tushgan uch tutami oqish ko‘rinardi. Ko‘zidan oqqan yosh betidagi bo‘yog‘ini chaplashtirib yu-borgan. Ich ko‘ylagining bog‘ichi yaponcha ko‘ylakning chap yelkasidan osilib tushgan. U shu alfozda hovliqib polit-siya bo‘limiga kirib keldi:

– Bolaginamdan ayrilib qoldim! Yolg‘izimni olib qo-chibdi! Voydod, yordam bering.

– Kim o‘g‘irladi? – deb so‘radi undan komissar.

– Erim o‘g‘irladi, komissar to‘ra, yashamagur erim!

Uning irkit yuzidan ko‘z yoshi tinmay dumalab turibdi. U eri bilan qo‘ydi-chiqdi bo‘lganini, ajralish haqida sudga ariza berganini, eri besh yashar o‘g‘li Metinni olib qochganini yig‘lab gapirib berdi.

– O‘g‘ilnamni topib bering, komissar to‘ra. Bolaginam u muttahaarning qo‘lida xarob bo‘ladi!

Uning gapdon xotinligi bilinib turibdi, o‘zi ham rosa shallaqiga o‘xshaydi. Komissar uni tinchlantirib, kursiga o‘tqazgandan keyin erining turar joyini surishtirdi.

Oradan ko‘p o‘tmay, ikki politsiyachi bilan bir kishi va besh yoshlardagi bola ichkari kirishdi. Boyagi xotin bolani ko‘rishi bilan o‘zini unga tashladi, ammo eri ham anoyi emas ekan, bo‘sh kelmadi. Er-xotin Metinni ikki qo‘lidan ushlab, ikki tomonga tortqilay ketishdi. Mahkama ichi bolaning dodlab yig‘laganidan, er-xotinning qiy-chuvdan to‘s-to‘polon bo‘lib ketdi. Metinni ajratib olishga politsiyachilarning kuchi yetmadi. Unisi u yoqqa, bunisi bu yoqqa tortaverganidan bolaning qo‘li chiqdi-yu, otasi qo‘yib yubordi.

Xotin bolaga bir hamla qilib, uni qo‘ltig‘idan oldi-da, ko‘chaga qochdi. Eri orqasidan quvlamoqchi bo‘lib bir silkingan edi, politsiyachilar ushlab qolishdi.

– Komissar afandim, – dedi u, – xotinning kimligini bilmaysiz. Mening maqsadim o‘g‘limni yurtga foydali odam qilib tarbiyalash. Bu xotinning qo‘lida qolsa, tarbiyasi buzilib ketadi.

Komissar javob berdi:

– Bolaning yoshi beshda ekan, u onasining qo‘lida qolishi kerak.

– Axir, bu mumkin emas-ku. Sud ham bolani menga hukm qiladi. Nega deganda onasi...

U, xotini yengil oyoq bo‘lganligi uchun politsiya qo‘liga tushganligini, bunaqa xotinga bola tarbiyasini ishonib bo‘lmasligini aytdi.

Oradan o'n besh kun o'tdi. Er-xotin bu gal kasalxonaning oldida janjallashib qolishdi. Onasi qo'li chiqqan Metinni kasalxonadan olib chiqayotganda, eri kelib qolib bir hamla bilan bolani olib qochdi. Xotin ham kalxatdek unga tashlandi. Metinning bir qo'li taxtakachlanganligi uchun ona oyog'idan, ota esa sog' qo'lidan tortardi. Bu gal bolaning boshqa joyi mayib bo'ldi – chap qo'li yelkasidan chiqib ketdi. Olishuvda ota ustun keldi. U og'riq azobidan chinqirib yig'layotgan o'g'lini sudraganicha o'zini tor ko'chaga urdi. Endi bola bechoraning ikkala qo'li ham mayib bo'ldi. Lekin ota shunisiga ham rozi edi:

– Bu xotinning tarbiyasini olgandan ko'ra, bolamning bir umr mayib bo'lgani yaxshi.

Oradan bir oy o'tdi. Kunlarning birida kechqurun ko'cha yuzida mashina to'xtadi. Mashinadan tushgan ayol ko'chada o'ynab yurgan bolalarning oldiga yugurib keldida, Metinga yopishdi. Lekin shu zahotiyuq qayerdandir bolaning dadasi paydo bo'la qoldi. Bola yana arosatda qoldi, uning dod-faryodini eshitib odamlar to'plandi.

– Bola bechorani muncha qiynaysiz, xonim, axir uni o'ldirib qo'yasiz-ku, – deyishdi yig'ilganlar.

– Shu sullohning uyida qolib rasvo bo'lgandan ko'ra, shu yerda o'lgani yaxshi! – deb qichqirardi onasi zo'r berib bolaning bir oyog'idan tortar ekan.

Metin-ku o'lgani yo'q, lekin olishuvda er-xotin uning ikki oyog'idan ikki tomonga cho'zib tortgani uchun avvaliga uning ishtoni, keyin choti yirtildi. Ona bolani bag'riga bosib mashinaga solib qochdi.

Metin bir oy kasalxonada yotib chiqdi. Ona qo'ltiqtayoq-da chiqqan o'g'lini suyub bag'riga bosdi.

– Bo'taginam, – dedi onasi, – o'zim xor bo'lib yursam ham, seni, albatta odam qilaman.

Sud er-xotinning ajralish haqidagi arizasini ko'rayotgan kuni zalda to'polon ko'tarildi. Xotin bolani olib qochgan eri-

ning orqasidan quvlab qoldi. Naq zinaga yetganida u eriga changal solib, bolani undan yulib oldi. Yulib oldi-yu, shu mahal oyog'i chalishib ketib, qo'lidagi Metin bilan birga zinadan dumalab tushdi. Boshi yorilgan bola hushidan ketdi.

Xotin o'rnidan tura solib, o'g'lini bag'riga bosganicha eshikka yugurdi. Ko'chaga yugurib chiqishi bilan orqasidan eri yetib keldi. Biri bolaning boshidan, ikkinchisi oyog'idan o'ziga tortdi. Hali ham hushiga kelmagan Metin og'riq azo-bini sezmas edi.

– Bolaginamni senga bermayman!

– Ko'raman bermaganingni!

Politsiya o'rtaga tushdi. Oxiri Metinni otasi olib ketdi.

Uzoq davolanishdan keyin Metin tuzalib chiqdi. Ba'zi jarohlarni hisobga olmaganda, bola sog' edi. Ota-ona o'rtasida bo'lib o'tgan ikki olishuvda uning ikki qo'li mayib bo'ldi. Er-xotinning uchinchi to'qnashuvida Metinning oyog'i sinib, taxtakachlandi, singan oyoq narigisidan uch santimetr kalta bo'lib qoldi. Ota-onaning ilgarigi jamiki olishuvlari keyingisining oldida holva edi. Boshi bilan zinadan yumalagan bola bir ko'zidan ajraldi, o'zi esa butunlay telba bo'lib qoldi.

Sud bolani onaga hukm qildi. Ota hukm ustidan shikoyat yozdi, keyin natijasini kutib o'tirmay, o'g'lini sobiq xotini-ning uyidan olib qochdi. Ammo oxirgi paytda ishi yurishmay qoldi. U ota-onasini ajratolmay qolgan Metinni uyiga olib kiray deb turganida, orqadan xotini yetib keldi.

Yarim kechada qiy-chuv boshlandi. Bechora Metin bir necha marta qo'ldan qo'lga o'tdi. Janjalni eshitib, ko'cha qorovuli bilan politsiyachi yugurib keldi.

– Ovunchog'imni bu zolimning qo'lidan olib bering! – ularga yolvordi xotin. – Men uni katta odam qilib tarbiyalayman.

Metin esa ho'ngrab yig'lardi.

– Voy sharmanda-yey, men uni vatanim uchun tarbiyalayman desam bermaydi-ya, – pishillaydi ota xotini-ning qo'lidagi bolani bo'ynidan tortib.

Bu suronda quloqdan ajrab, qovurg'asi singan Metin onasida qoladigan bo'ldi. Biroq onaning quvonchi ko'pga cho'zilmadi. Oliy sud otaning da'volarini to'g'ri deb topib, bolani unga hukm qilib berdi. U politsiyaning yordami bilan Metinni qaytarib oldi. Ochig'ini aytgan-da, qaytarib oldi deyish unchalik to'g'ri emas. Bolani ikkala mayib qo'lidan mahkam ushlab olgan ona dod soldi:

– Voydod, o'ligimni olsang ham, bolamni ololmaysan. Sen buni rasvo qilasan!

– Qo'yib yubor deyman, shallaqi! – bo'sh kelmadi ota ham. – Qo'yib yubor buni, men uni odam qilaman.

Xayriyat, politsiya o'rtaga tushdi, bo'lmasa bolani onasining qo'lidan tortib ololmasdi.

* * *

Metin uchun bo'lgan tortishuv nihoyat tugadi.

Metin janjal-suronda na boshidan va na oyog'idan ajradi, na u tarvuzning ikki pallasiday bo'linib, yarmi otada, yarmi onada qoldi. Ikki o'rtadagi tortishuv uning olamdan ko'z yumishi bilan poyoniga yetdi.

Ota, vatanga munosib farzand tarbiyalab berish niyatida boshqatdan uylandi. Ona esa hozir og'iroyoq – bunisini, albatta katta odam qilib tarbiyalaydi.

USTASI FARANGLAR

Biz oliy hunar maktabida o'qiymiz. Ichimizda eng yoshi yigirma uchga chiqqan. Maktabimizga yangi direktor tayinlanganiga ikki oy bo'ldi. U ishni oldingi direktor nimalar qilganini o'rganishdan boshladi. Buni qarangki, oldingi direktor anchagina ishlar qilib qo'ygan ekan. U maktab yer-to'lasini bir yarim metr chuqurlatib, suvoqdan chiqargan, oqlatgan va oshxonani shu yerga ko'chirtirgan ekan. Yuqori qavatdagi oshxonani sinfxonaga aylantirgan ekan. Sinfxonasi bo'lmagan maktabni maktab deb bo'ladimi, axir!

Oldingi direktor yana qanday karomatlar ko'rsatgan? Uning buyrug'i bilan sinfxona devorlari sariqqa, yotoqxona esa pushtiga bo'yatilgan ekan.

Xo'sh, innaykeyin-chi? Innaykeyin, ilgari bitta partada ikki kishi o'tirardi. Talabalar yonma-yon o'tirganlarida gap-ga tushib ketib, dars miyalariga kirmaydi. Shuning uchun u partalarni bir kishilik qilib yasattirgan.

Yangi direktor mana shularning hammasini bilib olgandan keyingina, astoydil ishga kirishib ketdi. Oldingi direktor quruvchi deb nom chiqargan bo'lsa, quruvchi qanaqa bo'lishini mana, endi bilasiz!

– Bu zimiston qanaqa joy o'zi?

– Oshxona.

– Iya, eslaring joyidami, yerto'lada ham oshxona bo'ladimi? Axir bunaqa joyda ishtaha degan narsa xippa bo'g'iladi-ku! Darrov tekislab tashlang bu yerto'lani!.

Oshxona ilgarigi joyiga ko'chdi. Bir kishilik partalar sinfxonalardan chiqarib tashlandi. Eski partalar qayta joy-joyiga qo'yib chiqildi.

– Bolalar yonma-yon o'tirsa, miyasi yaxshi ishlaydi.

Devorlarning bo'yog'i ham o'zgartirildi – pushtisi oqqa, sarig'i yashilga bo'yaldi.

Oldingi direktorning bema'ni ishlarini shu ko'yda tuza-tib chiqqan yangi direktor o'zining qurilish bobidagi tesha tegmagan planlarini ro'yobga chiqarishga kirishib ketdi.

– Bu qanaqa gap – oliy maktab deb atalsa-yu, hovuzi bo'lmasa!

Yangi direktor shu birgina gapi bilanoq hammaga yoqib qoldi.

– Bu odam ketvorgan usta ekan-ku!

Maktab bog'ining qoq o'rtasida hovuz qaziladigan bo'ldi. Qum, shag'al, sement va g'isht keltirildi. Lekin... Ish avji qizigan paytda usta direktor kattaroq ishga ketdi-yu, hovuz qurilishi o'lda-jo'lda qoldi.

Uning oʻrniga tayinlangan yangi direktor ham sergʻayrat chiqib qoldi. Xona devorlariga yangi boʻyoq berildi. Qadimgi yertoʻlaga yana oshxona koʻchib tushdi. Yotoqxonaga kino zaliga aylantirildi. Ikki oʻrinli partalar sinflardan uloqtirildi.

– Bu nima degan gap, bu yer boshlangʻich maktab emas-ku! Partalar oʻrniga birpasda stol va stullar qoʻyildi.

Biz bu islohotlarga uncha parvo qilmadik. Lekin oliy hunar maktabining boʻlajak koʻrki – hovuzning taqdiri nima boʻlarkin, degan oʻy bilan bandmiz.

– Xoʻsh, manavi chuqur nima? Qum bilan shagʻal nima qilib yotibdi bu yerda? – deb soʻrab qoldi direktor.

– Hovuz qilmoqchi edik, afandim.

– Nima, nima? Hovuz deysizmi? Bu qanday bemaʼnilik! Koʻmib tashlang bu chuqurni!

Qazilgan joy qum, shagʻal, gʻisht va sement bilan koʻmib tashlandi.

Qurilish bobida bunisi eski direktorni bir choʻqishda qochiradiganga oʻxshaydi.

– Hozirgi yoshlar yevropacha raqs tushishni bilmaganliklari uchun koʻpincha jamoatdan ajralib qoladilar. Qolaversa, katta yigʻinlarda raqs bilmay qizarib qolishadi, – dedi bir kuni direktor.

Hovuzga moʻljallangan joyda raqs maydonchasi qilindigan boʻldi. Yerni yaxshilab tekislab, ustidan beton quyishdi. Betonga avji pardoz berib turilganda direktorimiz toʻsatdan maktabdan olinib, kattaroq ishga tayinlandi.

Yangi kelgan direktor bularning hammasidan ham oʻtib tushadiganga oʻxshaydi.

U ishni sinflardagi stollarni chiqarib tashlashdan boshladi.

– Bu yer nima – maktabmi yo qimorxonami? Yoʻqoting bu stollarni!

Stollar bir zumda ikki oʻrinlik partalarga almashtirildi.

Devorlarning rangi ham oʻzgarmay qolmadi: sarigʻi pushtiga, pushtisi pistoqiga, oqi koʻkka, koʻki oqqa qaytadan

bo'yab chiqildi. Sinflar, oshxona va yotoqxonalarining joyi o'zgardi. Navbat raqs maydonchasiga keldi.

– Bu nima? – so'radi uddaburon direktor.

– Raqs maydonchasi... Oldingi direktor buyurgan edi, chala qoldi.

– Nima? Bu yer qimorxonami o'zi? Bu maktabdan chiqqanlar nega chalamulla desam, gap bu yoqda ekan-da. Hozir ko'zimdan yo'q qillaring bu o'yinxonani.

Maydoncha birpasda buzib tashlandi.

– Avvalo, insonga tan sog'liq kerak, – hikmatli bir gapni aytib qoldi direktor. – O'quvchilar badantarbiya bilan shug'ullanishlari kerak.

Raqs maydonchasining o'rnida qo'lbola stadion quriladigan, bir tomonda tennis, ikkinchi tomonda voleybol o'ynaladigan bo'ldi. Stadiongga gimnastika bilan shug'ullanish uchun har xil anjomlar keltirildi. Ularni o'rnatish uchun yer kovlab, beton chuqurlar qazildi. Ish ayni tobiga kelay deb turganida, direktor boshqa joyga ketib qoldi.

Uning o'rniga kelgan kishining oldida eski direktorlar cho't bo'lmay qoldi. Yangi direktor maktabga birinchi kelgan kuniyoq, xo'jalikni ko'zdan kechirayotib, so'rab qoldi:

– Bu anjomlar nimasi?

Kimdir „oldingi direktor..“ deb og'iz juftlagan ham ediki, gapni cho'rt kesib o'shqirib berdi:

– Yo'qotinglar bu temir-tersaklarni!

– Xo'p bo'ladi, taqdir.

– Bu yer oliy maktabmi yo tomoshaxonami? Maktab degan joyda avvalo bog', qolaversa, fontanli hovuz bo'lishi shart.

Quruvchilik zakovati sezilib turgan yangi direktor o'zidan oldingilar qilib ketgan hamma narsalarni buzdirib, sindirib tashladi. Qurilish ishlari yangidan boshlandi.

Chala qolgan sport maydonchasi yana kovlana boshlandi. Lekin uni kovlash juda amrimahol bo'ldi. Chunki bu

yerda hovuz, raqs maydonchasi, stadion qurmoqchi bo'lib ish boshlanganida har gal beton yotqizilgan. Ustma-ust yotqizilgan beton chunonam metin bo'lib ketibdiki! Yerni dinamit bilan portlatmoqchi bo'lishgan edi, beton qolib, uylarning oynalari chilparchin bo'ldi. Yer kovlaydigan elektr lom ham ish bermadi. Yer kovlash neft qudug'i qazishdan ham qiyin bo'ldi. Nihoyat, noilojlikdan betonning ustiga tuproq yotqizib, unga rosa o'g'it solishdi. Shundan keyin bu yerga daraxt, gul ko'chatlari o'tqazildi, chim yotqizildi. Qarabsizki, quling o'rgilsin bir bog' bo'ldi-qo'ydi. Ammo bog'imizning umri qisqa ekan, direktor yana o'zgardi.

Yangi direktor g'oyat ishbilarmon odam chiqib qoldi. U maktabga kelgan kuniyoq yerda yotgan qarag'ay va xurmo nihollarini, har xil o'g'itlar bilan qora tuproqni ko'rib, jonponi chiqib ketdi:

– Bu qanday befarosatlik! Bu yer oliy maktabmi yo botanika bog'i bilan o'rmon xo'jaligimi?

Keyin sal hovuridan tushib, buyurdi:

– Darrov gumdon qilinglar buni! Bu yerni yaxmalak qilamiz!

Yaxmalak bo'lsa yaxmalak-da, bizga nima. Biroq yaxmalak bo'ladigan yerga tosh terilayotganida biz maktabni bitirdik. Qo'lga diplom olayotganimizda terilgan tosh ustidan beton yotqizishayotgan edi. O'shandan buyon qaytib maktab betini ko'rmaganligim uchun uning taqdiri nima bo'lganligini, keyin kelgan direktorlar nima ishlar qilishganini bilmayman. Buni qarang-a, ha-hu deguncha oradan yigirma yil o'tib ketibdi-ya!

Maktabimizda bir odat bor edi: har yili maktabni bitiruvchilar sharafiga „Loviya kuni“ degan tantanali marosim o'tkazilardi. Maktabni ilgari bitirib ketganlar ham bu bayramga taklif etiladi. Keksa va yosh avlod shu tariqa bir-biri bilan bu yerda tanishib oladi.

Sinfdosh o'rtloqlardan biri maktabga direktor bo'lib qolgan ekan, o'sha baraka topkur meni ham traditsion kechaga aytirib yuboribdi.

Biz yigirma bir yildan buyon ko'rmaganligimiz uchun maktabimizni zo'r qiziqish bilan aylanib chiqdik. Bir paytlari men bilan bir sinfda o'qigan direktor o'rtog'im mehmonlarga izoh berib turibdi:

– Shu maktabga direktor bo'lib kelganimda sinflar yuqori qavatda, oshxona esa pastda ekan. Bundoq qaragam, o'quvchilar derazadan atrofga qarab, xayollarini buzishar ekan. Darrov sinflarni quyi qavatga ko'chirib, oshxonani yuqoriga olib chiqdim. Keyin laboratoriya bilan yotoqxonalarining ham o'rnini almashtirdim. Hojatxonalar turkcha ekan, yevropacha qildirdim. Sinf devorlarini...

Tushlik mahali bo'lib qoldi. Yigirma bir yil ilgariyidagiga o'xshab qo'ng'iroq chalindi. Bir zumda qiy-chuv ko'tarildi. Maktabni turli yillarda bitirib chiqqan mehmonlar zir yugurib, oshxona qidirishadi, biri yotoqxonaga, boshqasi esa sinfxonaga kirib qoladi. O'zimni aytmaymizmi? Oshxona qolib, hojatxonaga kirib ketibman. Ma'lum bo'lishicha, bizdan keyin kelgan direktorlardan biri oshxonaning o'rnini hojatxonaga aylantirgan ekan. Bir amallab oshxonani topdik. Ziyofat tugagach, direktor maktabni tamomlayotgan yoshlarga qarata nutq so'zladi:

– Mening yosh o'rtloqlarim! Insoniyat madaniyati ijodkor kishilarning mehnati bilan rivoj topadi. Har bir ma'rifatli odam o'zidan oldingi avlodlar boshlab bergan go'zal va zarur narsalarni ehtiyotkorlik bilan asraydi, so'ngra bularni yanada takomillashtirib, keyingi nasllarga topshiradi. Insoniyat madaniyati xuddi estafetaga o'xshaydi – u avloddan avlodga o'tib boradi. Mana bugun sizlar hayot ostonasiga qadam qo'ymoqdasiz. Sizlar ham o'zingizdan ilgari yaratilgan narsalarni takomillashtirasiz-da, so'ngra xuddi bizga o'xshab keyingi nasllarga uzatasiz. Shu tariqa biz madaniyat taraqqi-

yotiga hissa qo'shgan bo'lamiz. Mamlakatimizni taraqqiyot yo'lidan boshlab boraylik! Mening yosh hamkasblarim! Agar biz sizga quruvchilik zavqini baxsh etgan bo'lsak, o'z burchimizni sharaf bilan bajargan bo'lamiz. Ijodkor quruvchi bo'ling! Ishingizda muvaffaqiyat tilayman.

Direktorning nutqi gulduros qarsaklar bilan qarshi olindi.

So'ngra biz „Faxriy kishilar xonasi“ni tomosha qildik. Maktabimiz tarixida biror arzigulik iz qoldirgan kishilarning rasmlari shu xonaga qo'yilgan ekan. Bo'yi barobar olingan bu suratlarining ostiga egalarining qilgan ishlari yozib qo'yilibdi.

Yozuvlarni birma-bir o'qib chiqqach, kimning nima qilib ketgani bizga ravshan bo'ldi:

Saidbey: maktabimizda birinchi bo'lib hovuz qurdirdi.

Jalolbey afandi: maktab o'quvchilari uchun birinchi bo'lib raqs maydonchasi ochib berdi.

Muhtaram Ruhibey: maktabimizga birinchi bo'lib gimnastika maydonchasi qurdirib berdi.

Muhtaram Najotibey: maktabimizda birinchi bo'lib bog' yaratdi.

Muhtaram Ahmad Tener: maktabimizga birinchi bo'lib yaxmalak qurdirdi.

Maktabga qancha direktor kelgan bo'lsa, hammasi to'g'risida shunaqa gaplar yozilgan.

Direktor o'rtog'im men bilan xayrlashar ekan, bir joyni ko'rsatib dedi:

– Omon bo'lgur oldingi direktor hov o'sha joyni futbol maydoni qilmoqchi bo'lgan ekan. O'zing o'ylab ko'r, do'stim, shu ham gap bo'ptimi! Axir, bu yer oliy maktabmi yo futbol klubimi?

– O'zing nima qilmoqchisan u yerni? – so'radim undan.

– Darvoqe, bilmay turibman, hali biror fikrga kelganim yo'q... Shunday bir narsa qurish kerakki... Sen nima deb maslahat berasan?

– Gapimga kirsang, sen o‘sha yerga, maktabimizga direktorlik qilgan hamma odamlarning haykalini o‘rnatib chiq. Bu bilan sen ham ularning hurmatini o‘rniga qo‘ygan bo‘lasan, ham yosh avlodga ibrat bo‘ladi!

U bilan xayr-ma‘zur qilib, jo‘nab qoldim. O‘rtog‘im mening taklifimni to‘g‘ri ma‘noda tushungan ekan, o‘sha yerga haykallar o‘rnatibdi. Oxirgi direktorning haykalini o‘rnatay deb turganida, boyaqish boshqa ishga o‘tib ketibdi. Keyin eshitishimcha, uning o‘rniga kelgan yangi direktor haykallarni oldirib tashlab, machit qurishni buyuribdi. Uning buyrug‘i bilan qurilayotgan machit bitganmi yo bitay deb turganida u boshqa ishga o‘tib ketganmi – azbaroyi Xudo, bunisidan xabarim yo‘q.

MING MARTA SHUKUR!

Kadiko‘yda Bo‘stonji tomonga qatnaydigan tramvayning oxirgi vagoniga bir amallab chiqib oldim. Vagonning orqa tomonidagi maydonchada sakkiz kishi tiqilishib ketyapmiz. Oyog‘iga kigiz mahsi bilan kalish, boshiga yirtiq shapka kiyib olgan bir mo‘ysafid qo‘lidagi to‘rvani orqa tomondagi oynakka qo‘ydi. Shapka kiygan o‘rta yashar yo‘lovchi og‘ziga somon tiqilgan savatini temir sandiq ustiga qo‘ygach, yonidagi odamga murojaat qildi:

– Oshnam, ehtiyot bo‘ling, ichida tuxum bor.

Sakkiz yo‘lovchi orasida tuxumdan gap ochilib ketdi. Aslida savatda tuxum o‘rniga mix bo‘lganida ham nima to‘g‘risida bo‘lmasin, baribir gap bo‘lardi. Chunki odam odamni ko‘rganda yig‘ilib qolgan gaplarini aytib ichini bo‘shatgisi keladi.

– Tuxum qanchadan bo‘ldi? – deb so‘radi yirtiq shapka kiygan boyagi mo‘ysafid.

– E, so‘ramang, tuxumning narxi chaqib olaman deydi.

– Hozir narxi osmonga chiqmagan narsa qoldimi, hammasi shunaqa...

Charm kamzul kiygan, qop-qora mo'ylovli odam bilan ikkovimizgina gapga aralashmadik. Qolgan olti kishi fotihaga qo'l ochib, omin deyayotganday baravariga „to'g'ri“ deb yubordi.

– Hozir arzon narsa qoldimi o'zi?

– Arzonchilikni tushda ko'ramiz, afandim, tushda.

– Shu ketishimiz bo'lsa, oxiri nima bo'larkin-a?!

– Ishqilib, oxiri baxayr bo'lsin-da!

– Shu ketishimiz bo'lsa, oxiri baxayr bo'lishiga ko'zim yetmay qoldi.

– Kecha narxi ikki lira turgan narsa bugun ikki yarim liraga chiqib ketadi-ya. Axir, bu nima degan gap? Sen uyda uxlab yotganingda ular kechasi bilan narxlarni oshirib chiqishadimi, nima balo.

– Qimmatlikka qimmat-a... Lekin bozorda molning o'zi yo'q-da, og'ayni.

Olti yo'lovchi shu tarzda biri olib-biri qo'yib gapirar, biri gapirayotganda boshqalari „shunday“, „to'g'ri, juda to'g'ri“, „rost gap“ deb tasdiqlab turishardi.

Tramvay Oltiyo'lga kelib to'xtadi. Tushadigan odam bo'lmadi. Bizning maydonchaga yana bir yo'lovchi chiqdi.

– Tirikchilik juda og'ir bo'lib qoldi, – dedi tuxumlarning egasi, – ilgarilari naq ajdahoning og'zidan ovqat olardik. Endi o'sha ajdar og'zidagi ovqat ham naq ichiga kirib ketdi. Qani, mard bo'lsang og'ziga qo'lingni tiqib ko'r-chi.

Yangi chiqqan yo'lovchi gapga aralashdi:

– Qimmatchilik tinkani quritgani yetmaganday, ijara haqi sillani quritib tashladi.

Yana hammasi baravar „to'g'ri“ deb yuborishdi.

Shu ko'yi biri qimmatchilikdan, boshqasi ijara haqi balandligidan, yana biri kerakli narsani topib bo'lmasligidan, boshqasi uy-joydan gapirib jig'ibiyron bo'lardi. To'g'risini aytсам, men o'sha yerda eshitgan gaplarimni hozir yozishga ham botinolmayman. Ular shu darajada qizishib ketishgan

ediki, ko'rgan kishi bularni ishdan chiqib, horigan-charchagan holda uylariga emas, xuddi norozilik bildirish uchun biror mitingga ketishyapti, deb o'ylashi mumkin edi. Ularning ovozlari balandlashib, aytayotgan gaplari chinakam nutqqa aylanib ketardi. Ularga qarab: „Hoy, vatandoshlar, bunaqa qilmang, gaplaringiz to'g'ri-ku, lekin siz aytgandek unchalik emas. Qolaversa, bunaqa joyda past-baland gaplarni aytaversangiz, boshingiz baloga qolishi mumkin“ demoqchi bo'ldim-u, lekin yuragim betlamay indayolmadim. Jahli chiqib turgan odamning yoniga yo'lab bo'ladimi! Sizni u bir balo qilib qo'yishi ham mumkin. Ularning fikriga qo'shilmaganimdan keyin indamay ketaversam nima qiladi?

Tramvay Yo'g'irtchi bekatidan jilishi bilan ular yana avjga chiqib ketishdi. Menga o'xshab boyadan beri jim kelayotgan charm kamzulli odam chidab turolmay:

– Qidirgan narsani topib bo'lmaydi, deb kim aytdi? Ming marta shukr, hamma narsa to'kinchilik, – dedi.

Gapni gapirgan u bo'ldi-yu, men qo'rqib ketdim. O'rtada janjal chiqib, yetti kishi bir bo'lib charm po'stinlini bema'lol dabdala qilib tashlashi mumkin. Yetti yo'lovchiga sekin razm soldim. Ular ham charm po'stinliga tikilib turishibdi. O'rtaga jimlik cho'kdi. Go'yo ular bu odam nima deganini, maqsadi nima ekanligini tushunmaganday.

– Nima bo'lsa yo'q deysizlar. Nima yo'q ekan? Ming marta shukr, qidirsam hamma narsa topiladi.

Yetti yo'lovchi hayratda. Yuzini ajin bosgan xomush yo'lovchi birinchi bo'lib o'ziga keldi:

– Ming marta shukr. Hamma narsa topiladi.

Boshqalar ham yana „omin“ demoqchi bo'lganday, babbaravariga:

– Ming marta shukr! – deb yuborishdi. Xudoga shukr, yurtimizda qimmatchilik yo'q, – dedi charm po'stinli odam.

– Qimmatchilikni o'zimiz qilamiz, – javob berdi unga hozirgina qimmatchilik haqida g'azab bilan gapirib turgan

yo'lovchi, – hammayoq qimmatçilik, deganimizdan keyin qimmatçilik bo'lib ketaveradi-da.

– To'g'ri. U narsa yo'q, bu narsa yo'q, deyaverib, bori-ni ham quritdik. O'rtamizdan baraka ko'tarildi. Ming marta shukr, hamma narsa serob.

– Ming marta shukr.

– Ming marta shukr.

– Men sizlarga gapirib beraman, mana o'zingiz ko'ring – dedi ularga charm kamzulli odam, – o'zim shofyorman. Bundan o'n olti yil burun oyiga bir yuz yigirma lira olardim. O'sha paytlarda bir kilo qand o'ttiz qurush¹ turardi. Hozir bo'lsa bir kilo qand ikki lira. Lekin maoshim ham oshgan – olti yuz lira olaman. Xo'sh, nima gap ekan? Qandning narxi ko'tarilgan bo'lsa, maoshlar ham oshgan-da.

– Ha, oshgan, ming marta shukr.

– Hozir qo'lda pul ham ko'p, – dedi qimmatçilik ha-qida gap boshlaganlardan biri. – Ming marta shukr, pul se-rob.

– Hammol ham hozir kuniga o'n besh lira ishlasa ham, kam deydigan bo'lib qoldi.

– Juda to'g'ri.

Yirtiq shapkali chol gapga aralashdi:

– Yo'qçilikka ham, borchilikka ham o'zimiz aybdormiz. Bittasi turib „choy yo'q“ deydigan bo'lsa, hamma choyga yopishadi. Qarabsizki, choy topib bo'lmay qoladi. Shunday qilgandan keyin, bor narsa ham yo'qoladi-da. Ming qatla shukr, hamma narsa bor.

– Xudoga shukr, hamma yoqda to'kinçilik.

Tramvay Feneryo'liga kelib to'xtagan edi, yo'lovchilar-dan biri:

– Ming marta shukr, ming marta shukr, – deganicha vagondan tushib ketdi.

¹ Bir lira yuz qurushdan iborat.

– Ko‘rinib turibdi, hozir sanoatimizda ko‘tarilish bor, – yana gap boshladi charm kamzulli, – shuning uchun chetga mol chiqaryapmiz-u, o‘zimiz mol olmayapmiz. Ba’zi narsalar topilmayotganligining sababi ham shunda.

„Ming marta shukr“ga o‘rganib qolganlardan biri:

– Topilmayapti, ming marta shukr, – deb yubordi.

U shu zahotiyoyq xatosini tuzatdi:

– Ha, hozir ko‘tarilish payti-da, nari borsa bir-ikkita narsa topilmaydi, xolos. Payti kelib ular ham topilib qolar, ming marta shukr.

Yana charm kamzulli gapga tushdi:

– Ming marta shukr, Istanbul shu vaqtga qadar bunchalik ko‘tarilishni, bunchalik farovonlikni ko‘rmagan.

– To‘g‘ri aytasiz, hecham ko‘rmagan, ming marta shukr. Ya‘ni hozir ko‘ryapti. Sulton Fotih zamonidan buyon qo‘l urilmagan ko‘chalar ochilyapti.

– Ha, ochilyapti, ming marta shukr.

– Ba‘zi narsalarni buzib tashlashyapti.

– Buzib tashlashyapti, ming... Hah, yo‘llar ochishyapti.

„Ming marta shukr“ni ming marta eshitib, Jaddai bo‘stonga yetib keldik. Maydonchada ketayotgan yo‘lovchilar birin-ketib tushib, bu yog‘iga charm kamzulli odam bilan ikkovimiz qoldik. U to‘satdan:

– Siz nima deysiz? Boyadan beri og‘iz ochganingiz yo‘q! – deb yuborsa bo‘ladimi.

Manavi rasvogarchilikni qarang, nima qilaman endi? Boshimni egib, yelkamni uchirdim-da, ikki qo‘limni ikki tomonga yoydim. Bu „nima deyishga hayronman“ deganim edi. Men na boyagi gaplarga qo‘shiladigan pessimist, na „ming marta shukr“ deydigan optimist edim. Charm kamzulli yana qo‘ymadi:

– Xo‘sh, siz nima deysiz?

Tramvay bunchalik tez ketmayotgan bo‘lganida, o‘lay agar, vagondan sakrab tushib qolardim. Noilojman, charm

kamzulli esa savolini yana qaytardi. Men ham yana yelka uchirib, bilmayman, deganday labimni burdim.

– Shunaqa pastkash odamlar ham bor-a? – deb so‘radi mendan.

– Kimni aytyapsiz? – dedim hayron bo‘lib.

– Hozirgina ming marta shukr deb valdirab kelganlar-ni-da.

– Ha...

– Hozir hammasi meni so‘kyapti. „Ming marta shukr“ deb turganlaridayoq buni sezgan edim. Bularni qayoqqa sud-rasang, o‘sha yoqqa ketaverishadi. Faqat sudrashni bilsang bo‘ldi.

Tramvay Eranko‘yga yaqinlashib qoldi.

– Nima deysiz, qimmatchiligi rostmi o‘zi?

Charm kamzulli mendan qanday javob kutayotganligini bilmaganligim uchun mushkul ahvolda qoldim.

– Chindan ham qidirgan narsa topilmaydimi? Chindan ham qimmatchilikmi?

– Ming marta shukr! – dedim men ham.

Shu payt tramvay to‘xtagan edi, bir sakrab yerga tush-dim. Charm kamzullidan qutulganimga chindan ham ming marta shukr!

XILVATGOH

– Kitoblaringizga qoyilman!

Avvaliga yozuvchi birodarlarimga o‘xshab bu maqto-v uchun tashakkur bildirmoqchi bo‘ldim-u, keyin fikrimdan qaytdim.

– Bundan ham yaxshiroq yozishim mumkin edi-yu, lekin sharoitning mazasi yo‘q-da, – deb qo‘ya qoldim.

– Iya, nega? – so‘rab qoldi u.

– Nega bo‘lardi, uyimiz tor, bola-chaqa ko‘p. Har kuni uyda to‘s-to‘polon. O‘zingizdan qolar gap yo‘q, yozuvchilik

kasbi aqliy mehnatga kiradi, shunaqa bo'lgandan keyin, ish paytida suv quygandek jimlik bo'lishi kerak. Miyangga endi bir fikr kelganda bittasi „dada, buni qarang“ deb akasidan shikoyat qilib qoladi. Bunisini aldab-suldab ovutsang, ikkinchisi karnay chalib yuboradi. Shundan keyin o'g'illar birpasda mushtlashib ketishadi. Xullas, qiy-chuv ichida boshing qotib, garang bo'lib ketasan. Kallang garang bo'lib turganda, qoyilmaqom narsa yozib bo'larmidi!

– Bola-chaqa serobmi deyman? – yana so'raydi u.

– Atigi o'n bitta! – deb javob beraman.

„Xudo umr bersin!“ degan javobni eshtarman, deb turgan edim, „yo'q“ deb baqirib yubordi.

– Menga aytyapsizmi? – deb so'radim undan.

To'g'risini aytsam, jon-ponim chiqib ketdi. Hozir uni yerga yotqizib, belangi qilishdan ham toymaydiganman.

– Sizga emas, shunchaki o'zim aytdim-da.

– Bu yerda ikkovimizdan boshqa hech kim yo'q-ku!

– Hadiksirash yomon narsa! Hadiksiragan odam har narsani o'ziga olaveradi. Ko'chada mashina buzilib, paqillab qolsa ham, bunaqa odam „ana, meni o'ldirishmoqchi“ deb o'ylaydi. Ha, mayli, bola-chaqangizga qaytaylik. O'n bitta dedingizmi? To'g'ri, yozib-chizadigan odam uchun o'n bitta bola ko'plik qiladi, bittasi ham ko'plik qiladi... yozuvchi degan odam umuman bola-chaqadan chetroqda yurgani ma'qul. Vaqt isrof bo'ladi-da, vaqt.

– Vaqt-ku, isrof bo'lmaydi-ya, lekin ularni katta qilish qiyin.

– Yozuvchi bola-chaqadan chetroqda yurgani ma'qul. Ha, shunday. Farzand ko'rish har kimning ham qo'lidan kelaveradi, ammo yozuvchilikni har kim qilavermaydi.

– Ilojim qancha, o'n bitta, hattoki o'n bir yarimta farzandim bor... Bittasi endi yo'lga kirdi...

– Bordi-yu, bir xonadonda yakka o'zingiz tursangiz, o'sha ajoyib asaringizni necha kunda bitkazishingiz mumkin?

– Miyamda asarlar shunchalik qalashib yotibdiki, tinchroq uy bo‘lsa, ikki oyda bittasini qotirib tashlayveraman.

– Juda soz. Undoq bo‘lsa o‘zim turgan uyni sizga olti oyga bo‘shatib beraman.

Oldiniga hazil qilyapti, deb o‘yladim. Lekin meni mashinaga o‘tqazib, uyiga olib borganidan keyin gapiga ishondim. Uy emas, katta bir saroy deysiz. O‘zim ham buni ko‘rib hang-mang bo‘lib qoldim.

– Odatda biz uy ichimiz bilan Nishontoshida qishlaymiz, – dedi u. – Kecha ko‘chib bordik. To mayga qadar, olti oy shu uy sizniki. Qani, bir boplab asar yozing-chi, bir ko‘raylik... Loaqal men shu yo‘l bilan dunyo adabiyotiga jinday hissa qo‘shgan bo‘larman.

To‘g‘risi, o‘zimni yo‘qotib qo‘ydim.

– Sizdan faqat bitta iltimosim bor, – dedi u men bilan xayrlasha turib, – hovlida bitta it-u, uyning ichida kuchukcha bilan sa‘va qolyapti. Shularga qarab tursangiz bas.

– Jonivorlarni o‘zim ham yaxshi ko‘raman, – deb javob berdim unga.

Shunday ajoyib saroyni menga tashlab ketyapti-ya. Tavba, tushimmi, o‘ngimmi? Dastlab saroyni bir tomosha qilib chiqdim. Atrof shunaqayam sokinki, go‘yo bu sokinlikni quiloq bilan eshitib, ko‘z bilan ko‘rib turgandayman... Nazarimda shundoqqina qo‘limni uzatsam, uni ushlab oladigandayman. Keyin yuqori qavatga chiqdim. Uy derazasidan shunday ajoyib manzara namoyon bo‘lar ekanki, asti qo‘yavering. Yozuv stoliga o‘tirib, o‘zimcha o‘yladim: „Bunaqa sharoitda hatto befahm odam ham shoir bo‘lib ketishi turgan gap!“

Zo‘r ishtiyoq bilan qo‘lga qalam oldim. Qog‘oz betini endi qoralayman deb turgan edim, to‘satdan qo‘ng‘iroq ovozi eshitildi. Uy juda katta emasmi, u uchidan bu uchiga zir yuguraman, ovoz qaysi tomondan kelayotganini bilolmayman. Yuqori qavatdagi xonalarning hammasiga birma-bir kirib chiqsam ham, nima chalinayotganini topolmadim. Qo‘ng‘i-

roq esa hamon jiringlaydi. Qora terga botib rosa yugurib chiqqanimdan keyin, uchinchi qavatdagi telefonga ko'zim tushdi. Trubkani olib quloq solib ko'rgan edim, hech kim javob bermadi. Jiringlayotgan ovoz hamon tinmaydi. Demak, bu telefon emas ekan. Uyda yana boshqa telefon bo'lsa-chi?

Yana zinama-zina yugurib bo'ladiganim bo'lgach, ovoz ko'cha darvoza tomondan kelayotganligini sezib qoldim. Borib qaragam gazeta sotuvchi kelgan ekan.

– Kerak emas! – javob berdim unga. – Bugundan boshlab bu uyga gazetaning keragi yo'q.

Eshikni qulflab, yana joyimga borib o'tirdim. Endi qo'lga qalam olgan edim, yana qo'ng'iroq jiringlab qoldi. Birinchi qavatga tushdim. Eshikni ochib ko'rsam, hech kim yo'q. Bolalar laqillatyapti shekilli desam, ko'chada zog' ham ko'rinmaydi. Lekin boyagi ovoz sira tinmaydi. Bilsam, orqa eshik taqillayotgan ekan. Sutchi kelibdi.

– Kerak emas! Bugundan boshlab bu uyga sut olib ke-lishning hojati yo'q!

– Bir haftalik qarz edilar...

Uy egasi bunaqa ajoyib joyni menga olti oyga tekinga tashlab ketdi-ya! Darrov sutchining pulini berib yubordim.

Yuqoriga chiqib, endi o'tirgan edim, yana bir narsa „jiring“ etib qoldi. Oldin ko'cha eshikka, keyin esa orqa eshikka yugurdim. Hech kimning daragi yo'q. Bu uyda o'zi qancha eshik bor ekan?

Zir yugurib qidiraman, uchinchi eshikni topolmayman. Shumtaka bolalar meni kalaka qilayotganga o'xshaydi. Men ko'cha eshik tomon yugurganimda, ular orqa eshik qo'ng'irog'ini chalib qochayotgan ko'rinadi. Ularni qo'lga tushirish uchun orqa eshik yonida poylab turdimda, qo'ng'iroq jiring etishi bilan eshikni shartta ochdim – yana hech kim yo'q! Bachchag'arlar bu gal ham qochib qolibdi. Telefon esimga tushdi. Qani, borib bir ko'ray-chi uni ham. Chindan ham telefon jiringlayotgan ekan.

- Labbay!
- Nozan xonim kerak edilar.
- U kishi uyda yo‘qlar, afandim.

Joyimga borib o‘tirishga ulguranimcha yo‘q. Yana o‘sha tovush. Yugurib borib telefonni oldim. Yo‘q, bu emas ekan. Eshikka chopdim. Pochtalyon kelgan ekan. Bergan xatini oldim. Zinadan chiqayotgan edim, yana bir narsa chalindi. Zing‘illab borib ko‘cha eshigini ochgan edim, hech kim ko‘rinmadi. Telefonni oldim, javob yo‘q. O‘pkamni qo‘ltiqlaganicha dam yuqori chiqaman, dam pastga tushaman. Shu payt allaqaysi qushning „Ku-ku! Kuku!“ degan ovozi eshitib qoldim. Borib ko‘rsam, devordagi soat sayrayotgan ekan. Mehmonxona devorida ikkita soat bo‘lib, biri jiringlasa, ikkinchisi sayrar ekan. Soat sayrab bo‘lgan ham ediki, telefon jiringladi:

– Nozan xonim uyda yo‘qlar, Istambulga ko‘chib ketganlar.

To‘rt tomonga yuguraverib, bo‘ladiganim bo‘ldi o‘zi. Jiqqa terga botib, mehmonxonaning o‘rtasida turgan edim, yana bir narsa jiringlab qoldi.

Asti tushunolmay qoldim: bu uyda qancha qo‘ng‘irog‘-u, qancha soat bor o‘zi! Bu gal kiraverishdagi soat nag‘ma qilayotgan ekan. O‘lar bo‘lsam o‘ldim endi! Goh u eshikning qo‘ng‘irog‘i chalinadi, goh bu eshikning... Eshikka yugursam, telefon jiringlaydi. Miyam g‘ovlab ketganidan eshikmi deb yugursam, telefon jiringlayotgan bo‘ladi. Bir mahal birov taqillatyapti, deb yugurib borib eshikni ochsam, bir bola ko‘chada velosipedining qo‘ng‘irog‘ini chalib o‘tgan ekan.

Kech kirdi ham, ammo men biror satr yozganim yo‘q. Zinadan pastga chiqib-tushaverib, qirq kilometrcha yurib qo‘ydim. Qo‘ng‘iroq chalib, eshik qoqqanlarning soni biram ko‘p bo‘ldiki, asti so‘ramang. Pulga aloqasi bo‘lgan odamlarning hammasi – baqqoldan tortib to suv tashuvchi-

gacha kelib ketdi. Telefon bo'lsa qirq martacha jiringlagan-dir. Burnimdan tortsa yiqilgudek bo'lib o'ringa cho'zildim. Keyin o'zimga o'zim tasalli berdim:

– Birinchi kuni o'zi shunaqa bo'ladi. Uyda hech kim yo'qligini endi hamma bilib oldi. Ertaga bittayam qo'ng'iroq chalinmaydi. Faqat yozish bilan band bo'laman.

Endi ko'zim ilingan edi, allaqanday narsa qulog'imga chalindi. Lekin bunisi qo'ng'iroq ovozigga o'xshamaydi. Qo'ng'iroq chalinadigan bo'lsa, ilojini topib qo'rganman. Eshikni ochmasam, telefonni olmasam, o'zidan o'zi tinib qoladi. Lekin mana bunisi nima bo'ldi ekan? Hech to'xtamaydi-ya. Ko'rpaga burkanib olgan edim, bo'lmadi. Quloqqa paxta tiqib ko'rdim – foydasi yo'q. Chor-nochor ovoz kelayotgan tomonga yurdim. Xonalarni birma-bir qidirib chiqqach, bir payt vannaxonada yotgan kuchuk bolasini ko'rib qoldim. U ham meni ko'rishi bilan ovozini o'chirib, oyog'imga suykala boshladi. Bechora och qolgan ekan-a! Oshxonadan topgan-tutganimni keltirib berdim.

Joyimga kelib yotdim. Hamma narsa jim bo'ldi-yu, lekin soatlar tinchigani yo'q – biri jiringlasa, ikkinchisi sayraydi. Buning ustiga kuchuk bolasi ham g'ingshishini qo'ymaydi. Ahyon-ahyonda telefon ham jiringlab qoladi. Tun yarim bo'ldi. Qani endi soatlar bilan kuchukning jag'i o'cha qol-sa. Noiloj, kuchukchani xonaga olib kirdim, qulog'im ancha tinchidi. Lekin bu makkor yotishim bilan yana huriy boshladi. Yalinib-yolvoraman, silab-siypayman xumparni, qani endi ovozini o'chirsa. Oxiri yonimga olib yotgan edim, chakagi o'chdi.

Navbat endi hovlidagi itga keldi.

Jinni bo'lib qolayozdim, yo'q, rasmana jinni bo'lib qoldim ham. O'rnimdan tura solib, derazaga yugurdim:

– O'chir ovozingni, itvachcha, o'chir hozir... O'chir!

Bir amallab uning ovozini o'chirgan edim, yonimdagi kuchukcha yana nag'ma qila boshladi. Xullas, itlar va soat-

lar bilan olishib chiqib, bir amallab tong ottirdim. Endi tashqaridagi tovuqlar bilan xo‘rozga gal keldi. Holsizlikdan madorim qurib ketganligi uchun bularning qichqirig‘iga parvo qilmay yotaverdim. Bir payt tepamdagi sa‘va sayrab qolgan edi, qafasi bilan olib vannaxonaga tiqdim. O‘n minutcha ko‘zim ilingan ekan, bir narsa „viz“ etgan edi, cho‘chib uyg‘onib ketdim. Shunchalik charchabmanki, cho‘chib uyg‘onganimdan yugura solib tom tepasiga chiqib ketibman. Tom tepasida sal o‘zimga kelganday bo‘ldim. Yo‘q, bunaqa joyda bir satr ham yozolmayman. Bola-chaqa holva ekan bularning oldida... Bolaga o‘chir desang ovozi o‘chiradi. Manovi itlar, soat va qo‘ng‘iroqlar baqirganingni biladimi! Egalari qandoq yashasharkin bu uyda? Qo‘ng‘iroqning o‘zi uchun ozmuncha odam kerakmi! Rosa xilvat uyni topgan ekanmiz-da! Bir qarorga keldim. Savob uchun uyini menga bo‘shatib bergan o‘sha odamning oldiga borib bunday deymen: „Uying o‘zingga siylov! Sen qushingga, itlaringga qaraydigan boshqa xizmatkor top. Men to‘ydim!“

Eshikni ochib, ko‘chaga chiqqan edim, bir kishi meni to‘xtatdi:

– Bu yil uyni poylash sizga qoldimi?

O‘zimni-ku jonim chiqib turibdi, bu yana so‘raydi-ya. Undan tezroq qutulish uchun javob berdim:

– Ha, shunaqa!

– Puli qancha bo‘ldi?

– Qanaqa pul?

– Ehtiyot bo‘ling, kamiga ko‘nib o‘tirmang. O‘tgan yili bir odamni besh yuz liraga ko‘ndirishgan edi, boyaqish jinni bo‘lib qolayozdi. Bu yerni „serqo‘ng‘iroq uy“ deyishadi.

Menga yaxshilik qilmoqchi bo‘lgan odamning oldiga g‘azab bilan kirib bordim. Oldida bir odam o‘tirgan ekan, sal o‘zimni bosdim:

– Men fikrimdan qaytdim.

– Iya, nega?

– Uy juda katta ekan. Mendan boshqa hech kim yo‘q... In-naykeyin, juda ham xilvat joy ekan, diqqinapas bo‘lib ketdim...

– Shunday bo‘lishini bilardim. Siz qiy-chuvga o‘rganib qolgansiz, xilvat joyda ishlayolmaysiz...

– Bu yozuvchi deganini bilaman men! – dedi u birozdan keyin. – Tinch joy bo‘lsa, undiq qilamiz, bundiq qilamiz deb og‘iz ko‘pirtirishadi. Shunaqa joy topilib qolguday bo‘lsa, „diqqinapas bo‘lib ketdim“ deb bahona qilishadi. Kallada o‘zi hech vaqo yo‘q-da, shuning uchun yozisholmaydi.

Uni bir balo qilib qo‘yishdan qo‘rqib, eshikka otildim. Uygga kelgach, chuqur nafas oldim. Ammo quloqlarimda hamon o‘sha ovoz: „Jiring!!!“

YASHASIN QASHSHOQLIK

Bank degani zap rohatijon narsa-da: uy-joy deysanmi, pul, yutuq, maosh deysanmi – hammasi shundan chiqadi. Bas, shundoq bo‘lgandan keyin ro‘zg‘orda yuz lira qoqishtirgin-da, darrov oborib bankka qo‘y. Omading kelmay, pulingga yutuq chiqmay qolishi ham mumkin, mabodo shundoq bo‘lganda ham sendan nima ketadi? Haqing kuymaydi, bankda turave-radi, baribir protsentini qurtdek qilib sanab olaverasan.

Bu gaplarning yolg‘oni yo‘q. Men ham bir necha yildan beri yuz lira to‘plab, bankka qo‘yay deyman-u, ammo ilo-jini topolmay xunobman. Kamarni qattiqroq tortib, zo‘rg‘a besh-o‘nta tanga yig‘ib qo‘ysam, lop etib bir ishkali chiqadi-yu, pul jonivor shunga sarflanib ketadi. Nazarimda bu pul degani go‘yo bir-biri bilan kelishib olgan-u, mening cho‘ntagimda yuz lira bo‘lib jamlanmaslikka qattiq qasam ichgan. Pul o‘jarlik qilaverganidan keyin men ham bo‘sh kelmay qo‘ydim, xullas, bir amallab yuz lira yig‘dim. Ne hasratda yiqqan pulimdan yana ajrab qolmay, degan xavo-tirda pulni darrov oborib bankka qo‘ymoqchi bo‘lgan edim, kechikibman, bankda ish vaqti tugab qopti.

Yuragim taka-puka: qo'limdagi pul hozir simobday erib, bir zumda g'oyib bo'ladiganday. Shundoq bo'lsa ham boshim osmonga yetgan, vaqtim chog'. Naq boshiga davlat qushi qo'ngan odamning o'ziman.

Pulchamni yostiqning tagiga qistirib, o'ringa yotdim. Ko'zimga uyqu kelmaydi. Qoyilmaqom qilib yuz lirani to'plaganman-da, shuning uchun o'zimga o'zim aql sotaman; bir narsaga qattiq kirishsang, albatta shuni qilar ekansan. Gap istakda qolgan. „Kam pul topaman!“ yoki „Turmushimning mazasi yo'q, hamma yoq qimmatchilik“ degan bahonalar bekorchi gap. Axir yuz lira to'play oldim-ku! Bundan chiqdi, agar istasam ikki yuz, besh yuz, ming, boring-chi, o'n ming lira ham to'plashim mumkin. Ha, shunday!

Shundan keyin shirin xayollarga berilib ketaman. Mana, ming lira o'n mingga, o'n mingi yuz mingga, yuz mingi esa yuz millionga chiqadi. Jamiki nol raqamlarini bir safga tizaman-da, tim qorong'ida ularni o'ng tomondan uchta-uchta qilib chiqaman, keyin baland ovoz bilan deyman: „Yuz million, bir milliard, o'n milliard, yuz milliard...“ Ha, bir narsaga qat'iy kirishsang, albatta buning uddasidan chiqasan!

Ilgari gazetalarda millionerlarning turmushini yozi-shardi. Bizning zamonamizda millionerlarning bozori kasod bo'lib, oyoqdan qolib ketdi. Shuning uchun ham men milliarder bo'lib oldim. Mana, trillionerman. Dunyoda trillioner bo'lganmi o'zi? Iya, bo'lmaganmi? Bo'lmagan bo'lsa mana o'zimiz bo'lamiz-da! Millioner va milliarder bo'lish ham-maning qo'lidan kelaveradi. Bo'lganga yarasha trillioner bo'lgan ma'qul! Trillioner-a! Hazilakam gap emas bu.

Miyam shishib ketdi. Qorong'ida barmoq bilan havo-ga bir raqamini chizib, yoniga nollar qo'yib chiqdim. Bitta nol, ikkita, uchta, beshta, o'nta, o'n bitta, mana o'n ikkita. Rosa o'n ikkita nol yozdim. Iya, boyagi birni ikki raqami-ga almashtirsam bo'lmaydimi? Ikki trillion. Mana bo'lma-

sa uch trillion! Yana bitta nol qo‘shgan edim, o‘ttiz trillion bo‘ldi. Ko‘rpa ostidan qo‘limni chiqarib yana bitta nolni boplab tashlagan edim, qarabsizki, uch yuz trillion bo‘ldi. Kuzda uchib yuradigan mezonga o‘xshab raqamlar xonada muallaq turib qoldi. Bularning ichida o‘yinqaroqlari sho‘xlik qilib qochib ketmoqchi bo‘ladi-da, tiyg‘anib ketadi. Men bu tirranchalarni yo‘ldan ushlab kelib, joyiga turg‘izib qo‘yaman. Ular ko‘zni shamg‘alat qilib yana qochishadi, yana tutib kelaman. „Pul topish qiyin emas, uni saqlab qolish qiyin“, degan gapni eshitib yurardim. To‘g‘ri gap ekan. Mana hozir raqamlarga kuchim yetmay qoldi. Shumtakalar xuddi billiard soqqasiga o‘xshaydi-ya: birpasda dumalab ketadi. Rostini aytsam, bular baribir mendan qochib qutulolmaydi. Nega desangiz, boy bo‘lishga qat‘iy jazm qilganman!

O‘rnimdan turib, sigaret tutatdim. Raqamlarni ko‘rgan sari zavqim oshadi. Qurmag‘urlar biram chiroyli, biram do‘mboqki... Boy bo‘lishning zavqi ham o‘zgacha bo‘larkan!

Tong yorishdi. Darrov yostiq tagini paypasladim, haytovur pul joyida ekan. Irg‘ib turib, bankka yugurdim. Bank u yoqda tursin, hali baqqollar ham do‘konini ochmagan ekan. Noiloj ochilishini kutib turibman. Shu payt bir og‘aynim uchrab qoldi:

– Nima gap? Senga nima bo‘ldi?

– Shundoq... Hech nima bo‘lgani yo‘q, – dedim unga.

– Ko‘zingga qon to‘lgan, ranging za‘faron. Ayt, nima bo‘ldi?

– Kechasi uxlamagan edim, shuniki bo‘lsa kerak... Ishim ko‘p, uxlashga vaqt yo‘q.

Bankka pul qo‘yayotganimni ko‘rmay qo‘ya qolsin, degan maqsadda u bilan tezgina xayrlashdim. Mana, bank ham ochildi. Yurak yutib ichkari kirdim. Voy-bu! Zap ketvorgan joy ekan-ku bu! Hamma yoqda gul tuvaklar, chiroyli ayollar-u, olifta erkaklar. Shiftdagi ajoyib qandillarni aytmay-

sizmi? Xuddi podsholarning saroyiga o'xshaydi-ya. Ichkari-rida taxminan yigirma choqli xizmatchi o'tiribdi. Atrof yog' tushsa yalaguday yarqiraydi, jihozlar yap-yangi. Yuragimni vahm bosib ketdi. Iya, bankka qo'yadigan pulimning foiz mana shu o'tirganlarga sarflanar ekan-da? Manovi quling o'rgilsin buyumlar, manovi hisob mashinalari-yu mashinistkalar – hammasi mening pulimga kelarkan-da? Yo'q, bunaqasi ketmaydi! Senlarga pul berib qo'yadigan ahmoq yo'q!

– Xush kelibsiz, afandim, xizmatlariga tayyormiz!

Bankda ishlaydiganlar biram xushmuomala bo'ladiki! Bunaqa gapdan keyin bankdan chiqib ketolmadim. Pulimni qo'liga berdim. Yuzidan tabassum arimaydigan bu xizmatchi ikki minutga qolmay ishimni to'g'rilab berdi. U chek qog'oziga qo'shib bitta yon daftar ham in'om qildi.

Ishxonadagi o'rtoqlarim o'sha kuni:

– Senga bir narsa bo'lganga o'xshaydi, yurgan yo'lingda ham uxlayapsan, – deya meni rosa kalaka qilishdi.

Hech kimga sirimni ochmadim. Peshin bo'lgan ekan, men bilan bir stolda o'tiradigan og'aynim:

– Qani, yur ovqatga! – deb qoldi.

– Qornim to'q, – degan javobni qildim.

Aslida ertalabdan beri hech nima totiganim yo'q. Ishlab topolmasang, tishlab pul to'plashing mumkin. Kechqurun bitta teshikkulcha bilan nafsimga urdim. Kecha uxlamaganligim uchun barvaqt o'ringa kirdim. Lekin yostiqaqa bosh qo'yishim bilan ko'z oldimda yana o'sha raqamlar chirpirak bo'la ketdi. Bu gal ham kelgan joyidan boshladim.

Nol raqamlaridan biri chiroqqa girgитton bo'lgan parvodek bir aylanib chiqdi-yu, boyagi yuztaliklarning yoniga borib qo'ndi. Ming... o'n ming.... yuz ming... million... Nollar. nollar... nollar... Barmog'im bilan bu nollarni bir safga tizib chiqaman-da, olib borib joy-joyiga qo'yaman. So'ngra ularga buyruq beraman:

– Senlar ko‘pam xarxasha qilavermanglar! Men xarxashani yomon ko‘raman. Intizom – turmushning asosidir. Nollar, qani borib joy-joyingga tur-chi! Chaqqon bo‘l!

Vahimaga tushgan nollar joyiga borib turadi. Xuddi generalga o‘xshab ularga do‘q uraman:

– Safga tur!

Nollar qator tizilishadi.

– Qani... Marsh!

„Gurs, gurs, gurs!“

Bir, ikki, uch, to‘rt, ming, yuz ming, bir million!

Nollarga o‘n daqiqa dam beraman.

– Yashavor! – deb baqirishadi ular.

Nollar bilan mashq qilib, tong ottirdim. Majolsizlikdan zo‘rg‘a ko‘chaga chiqib beixtiyor bank tomon yurdim. Go‘yo bankdagi pulimni birov opqochib ketadi-yu, ajralib qoladigandayman.

Bugun ham pishloq bilan quruq non yeb yotdim. Ko‘zim yumulib ketayotgani uchun ertaroq yostiqa bosh qo‘ydim. Qani endi uyqu degani kela qolsa! Nol qurmag‘urlar qoq yarim kechada o‘yinga tushib ketishdi. Bir payt qarasam, bank tufayli hovli-joyli bo‘lib qolibman. Qani, shu yutgan uyimga ijaraga odam qo‘ysam-u, besh yillik haqini oldindan olsam bo‘lmas-mikin? O‘zim hozir arzonroq kvartirada turaman. To‘xta-chi, oyiga yuz yigirma lira to‘lab, bunaqa joyda turish non tepkilik emasmi? Ertagayoq arzonroq uy topmasam bo‘lmaydi. Shahar tashqarisida yigirma liraga kichikroq xona topish mumkin-ku. Bundan chiqdi, har oyda yuz liradan pul yonimga qoladi, uni bemalol bankka qo‘ysam bo‘ladi. Bir yilda bir ming ikki yuz lira yig‘ilib qoladi-ya! O‘n yilda esa 12 ming, yuz yilda 120 ming bo‘ladi. G‘oyibdan boyish deb shuni aytadilar-da. Shunaqa paytda isrofgarchilik qilib nima qilaman?

Kiprik qoqmay, yana tunni tongga uladim. Ishxonaga yo‘lni bank tomondan soldim. Oshna-og‘aynilar endi men bilan salomlashmay ham qo‘ygan. Salomlashmasa salom-

lashmas, menga nima! Choy-qahva olib berishdan qutulibman-da. Leman telefon orqali meni so'ragan edi:

– Bugun ishga kelmadi, – deb yubordim.

Aslida shu Lemanga uylanmoqchi bo'lib yurgan edim, bugun bu fikrimdan qaytdim. Bankka pul qo'ygan kunimdan e'tiboran uni ko'rgim kelmay qoldi. Axir oilalik bo'lish serchiqim bo'lish degan gap-da. Kipriklarim xuddi tegirmon toshi osib qo'yganday yumilib ketyapti. Stolga bosh qo'yib, mizg'ib olmoqchi bo'lgan edim, nollar raqqosalarga o'xshab sakrayverib hech ko'z o'ngimdan ketmadi.

Ishdan chiqib, uyqu keltiradigan hapdori olib ketaman deb qo'ydim. O'rtoqlarimdan bittasida shunaqa dori bor ekan, rahmi kelib ozroq berdi. Dori ham kor qilmadi. Shu kecha shunaqa boyib ketdimki, asti so'ramang. Bir mahal bundoq qarasam, butunlay sinibman! Milliard-milliard liralardan ajralibman. Singan millionerlarga o'xshab o'zimni o'zim o'ldirishimga sal qoldi. Bu yomon niyatdan qaytishimga bankdagi yuz lira sababchi bo'ldi. Keyin yana boyib ketdim. Shu darajada boyidimki, dunyodagi hamma pullar mening qo'limga kelib tushdi, hech kimda bir miri qolmadi. Jamiki muxbirlar ketma-ket mendan intervyu olyapti.

– Bunchalik boyib ketishingizning sababi nima?

Sirimni ularga aytib berarmidim.

– Mehnat qilib boyidim. Tug'ilganimda sariq chaqa ham pulim yo'q edi.

Shundan keyin hotamtoyligim tutib ketdi. Oldiniga pul uchun o'zim o'ldirgan odamlarning bola-chaqalariga paypoq sovg'a qildim. Bemor ishchilarga bittadan piyoz ulashdim. Shaxsan o'zim yer-suvini tortib olgan dehqonlarga hovuch-hovuch tuproq berib chiqdim. Qo'yingki, olamda qanaqa savob ish bo'lsa hammasini qildim. Odamlar xursand: „Qanday dilovar, qanday saxiy odam ekan bu!“

Xayrli ish qilaman deb bugun ham uxlayolmadim. Ochlik va uyqusizlikdan oyoqda turadigan holim yo'q. Ertalab

to'g'ri bankka bordim. Ichkari kirdim-u, chek qog'ozini xizmatchining oldiga uloqtirdim:

– Qani, yuz liramni bu yoqqa cho'zing!

– Bir yo'la hammasini olmoqchimisiz? – hayron bo'lib so'radi u.

– Ha, hammasini, hammasini olaman! – deya baqirdim. – Yetar endi! Oshna-og'aynidan ajraldim, odamgarchilikdan chiqdim, sihatimni, baxtimni yo'qotdim. Ming la'nat bunaqa turmushga! Hamma pulimni bering!

Asabim tobiga yetganidan o'zimni tutolmadim. Bankdagi hamma xizmatchilar atrofingga yig'ilib, meni yupata boshlashdi:

– Beyafandim, pulingizni olasiz, xotirjam bo'ling, albat-ta olasiz!

Pulni oldim. Yonimda yana sakson lira bor. Restoranga yugurdim. To'yib ovqatlandim. Bu yerdan chiqib, eng zo'r mehmonxonaga bordim. Uch kecha-yu uch kunduz qotib uxladim. Uh, shunaqa dunyo ham bor ekan-ku. Yonimdagi pulning hammasini sarflab tamomladim.

Boylarning boshiga tushadigan savdolarni o'ylasam, o'zinning turmushimdan xursand bo'lib ketaman. Bedorlik, ochlik azobi, sinib xonavayron bo'lish yoki o'g'riga talanish vahimasi u bechoralarning boshiga nimalar solishini men juda yaxshi bilaman! Yashasin qashshoqlik!

TOMDAGI JINNI

Mahallada duv-duv gap:

– Nima deysan, tomga jinni chiqibdi! Tomga jinni chiqibdi!

Tomga chiqib olgan jinnini tomosha qilish uchun ko'chaga xaloyiq to'plandi. Bu xabarni eshitib oldiniga bo'limdan, orqasidan yuqori boshqarmadan politsiyachilar yetib keldi. Ularning ketidan hovliqqanicha o't o'chiruvchilar ham kelib qolishdi.

– Jon bolam, bo‘ldi endi, pastga tusha qol! – deya yalinib-yolvoradi jinnining onasi.

O‘t o‘chiruvchi azamatlar „jinni tomdan sakrab qolsa, et-beti mayib bo‘lmasin tag‘in“ degan xavotirda brezent chodirni ochib yoyishdi. Ulardan to‘rttasi chodirning to‘rt tomonidan ushlab, pastda gir aylanib yuribdi.

Politsiya komissari jinnini yaxshi gap bilan tomdan tushirmoqchi bo‘ldi:

– Iltimos qilaman, ukam, tomdan tush endi.

– Meni oqsoqol qilib ko‘tarsalaring tushaman, bo‘lmasa o‘zimni yerga otaman.

Shuncha yalinib-yolvorishadi, shuncha qo‘l ko‘tarib do‘q urishadi – qani endi unga ta’sir qilsa.

– Ho‘v uka! Qani tush pastga!

– Voy mug‘ambirlar-e! Meni tushirib, o‘zlaring chiqib olmoqchisanlar-a!

– Xo‘p, aytganini qila qolaylik, oqsoqol bo‘lsa bo‘la qolsin, – dedi kimdir olomon ichidan.

–Yo‘q, bo‘lmaydi, – unga qarshi chiqdi ikkinchi biri, – jinnini oqsoqol qilib bo‘ladimi?

– Tavba. Axir u rostakam oqsoqol bo‘layotgani yo‘q-ku.

– Baribir bo‘lmaydi, – gapga aralashdi hassa tayangan bir mo‘ysafid chol, – bular uchun rostakam yoki yolg‘ondakamning farqi yo‘q.

– Shundoq deya qolsak, balki yerga tusharmidi.

– Tushmaydi. Men bularning fe‘lini yaxshi bilaman. Bir marta yuqoriga chiqib olsa, ikkinchi qaytib pastga tushmaydi.

– Qani bir ko‘raylik-chi!

– Tushmaydi dedim-ku!

Shu payt allakim yerdan turib qichqirdi:

– Bo‘pti, seni oqsoqol qilib ko‘tardik. Qani tush endi!

Jinni chapak chalib yubordi:

– Tushmayman, tushmayman! Meni shahar munitsipalitetiga saylamlasalaring, o‘zimni yerga otaman!

– Ana aytmovdimmi shunaqa bo‘ladi deb! – yonidagilarga qarab dedi boyagi chol.

– Mayli endi, nima desa shuni qilib ko‘raylik-chi.

– Baribir pastga tushmaydi. Odam bolasi shunday baland tomga chiqadigan darajada jinni bo‘lgan bo‘lsa, qaytib yerga tushmaydi.

– Bo‘pti, bo‘pti! – yuqoriga qarab baqirdi komissar, – seni munitsipalitetga sayladik. Qani, uka, tush pastga endi, mana o‘rtoqlaring ham seni kutib qolishdi.

Jinni tomda o‘ynab ketdi:

– Tushmayman! Munitsipalitetga rais qilib ko‘tarmasalaring tushmayman.

– Ana ko‘rdinglarmi, buni issig‘ida tushirish kerak edi. Endi o‘laqolsa pastga tushmaydi, – dedi chol.

– Hoy yaxshilar, shuni rais qilsak, qila qolaylik, kelinglar endi, – dedi o‘t o‘chiruvchilarning boshlig‘i yuzidagi terni arta turib. Keyin uning o‘zi qo‘lini og‘ziga karnay qilib, qichqirdi: – Hov uka! Mana tush endi. Seni rais qilib ko‘tardik, qani ishni boshlab yubor.

U yana muqom qila ketdi:

– Hecham tushmayman! Jinnini munitsipalitetga rais qilib ko‘targan tentaklarning ichida men nima qilaman! Tushmayman dedim, tushmayman!

– Undoq bo‘lsa yana nima deysan!

– Ministr qilib ko‘tarsangiz, o‘shandagina oldingizga tushishim mumkin.

Yerdagilar bir muddat fikrlashib olgach, rozi bo‘lishdi:

– Juda soz, seni ministr qilib ko‘tardik. Bas, tush endi. Mana, bu yoqqa qara, seni hamma kutib turibdi.

Jinni burnini ko‘rsatib masxara qildi:

– Tushmayman dedim, tushmayman. Jinnini ministr qilib ko‘targan laqmalarning yonida men nima qilaman?

– Hoy uka, mana seni ministr qilib ham sayladik, endi tezroq tushmasang bo‘lmaydi, boshqa ministrlar kutib qolishdi.

– Ho, bu yerda sizlarga ahmoq bormi pastga tushadigan! Men tushsam-u, sizlar darrov jinnixonaga qamab qo‘ysalaring-a! Tushmayman!

Gapga yana chol aralashdi:

– Bekorga ovora bo‘lyapsizlar, u tushmaydi endi. Men bu jinnilarning fe‘lini yaxshi bilaman. Qani sizlarni ham ministr qilib qo‘yishsin-chi, albatta tushgingiz kelmaydi-da.

Jinni esa ovozining boricha baqirdi:

– Agar bosh ministr qilib ko‘tarmasalaring, hozir o‘zimni yerga otaman!

Olomon yerdan turib hayqirdi.

– Xo‘p bo‘ladi, mana seni bosh ministr qilib ko‘tardik.

– Bunga ham ko‘nmaydi! – dedi chol.

Jinni yana tom tepasida sayray ketdi:

– Faqat podsho qilib ko‘tarsalaring tushaman. Bo‘lmasa hozir o‘zimni tomdan tashlayman.

Bundoq qarashsa, chol haqqa o‘xshaydi. Endi undan maslahat so‘rab qolishdi:

– Qani xo‘sh, siz nima deysiz? Podsholikka ham rozi bo‘laylikmi?

– Bo‘lar ish bo‘ldi, – javob berdi u. – Endi nima desa, shuni qilishga majbursiz.

– Xo‘p, aytganing bo‘ldi, seni podsho qildik, mana endi tusha qol! – deya hayqirdi olomon.

Tomni boshiga ko‘tarib o‘yinga tushayotgan jinni bunga ham rozi bo‘lmadi:

– Yo‘q, tushmayman.

– Yana nima muroding bor? Axir seni podsho qilib ko‘tardik-ku!

– Bunisi bo‘lmaydi, tushmayman. Agar meni jo‘shgan jahonga sohibqiron qilmasalaring, hozir o‘zimni tomdan tashlayman.

– Rostdan ham tashlarmikin? – so‘rashdi choldan.

– Ha, tashlasa tashlayveradi.

– Xo‘p bo‘ladi, seni sohibqiron qilib ko‘tardik! – deya qichqirishdi odamlar, – tusha qol endi!

Jinni javob berdi:

– Tushmayman, sizdaqa xomkallalarning oldida mendaqa sohibqiron nima qiladi?

– Xo‘sh, nima qil deysan? Ayt aytadiganingni!

– Men sohibqironman-a? – so‘radi tepadan jinni.

– Ha, albatta, sohibqironсан! – javob berishdi yerdagilar.

– Modomiki sohibqiron ekanman, xohlasam tushaman, xohlamasam yo‘q. Tushmayman.

Komissar tutaqib ketdi:

– E, o‘zini tomdan tashlasa, tashlayvermaydimi. Nima, nari borsa dunyoda bitta jinni kam bo‘ladi-da.

U shundoq deyishga dedi-yu, lekin buning ortiqcha dahmzasini o‘ylab qoldi.

– Endi nima qilamiz, otaxon, – cholga murojaat qildi o‘t o‘chiruvchilarning boshlig‘i. – Bu tentak hecham yerga tushmasmikin?

– Tushishi mumkin.

– Qanday qilib?

– Menga qo‘yib beringlar, tushiraman.

Hamma qiziqib cholga qaradi.

U yetti qavatli uyning tomida turgan jinniga qarab qichqirdi:

– Sohibqiron hazratlari, oltinchi qavatga tashrif buyurishlari mumkinmi?

– Juda soz! – javob berdi jiddiy ravishda jinni.

U tom tuynugidan o‘tib, narvonga chiqdi-da, undan pastga tushib, oltinchi qavatda to‘xtadi.

– Qiblagohim beshinchi qavatga chiqishni lozim ko‘radilarmi?

– Albatta!

Hamma hayron.

Chol to'rtinchi qavatdan yerdagilarni tomosha qilib turgan jinnidan yana so'radi:

– Shahriyor, muqaddas poyqadamingiz bilan uchinchi qavatni muborak qilib bera olishingiz mumkinmi?

– Bo'ladi!

Qarashsa, jinni uchinchi qavat oynasining to'g'risida turibdi. Endi u tomdagiga o'xshab chapak chalib o'ynayotgani ham yo'q. Yuzida allaqanday viqor.

– Qiblagohim, ikkinchi qavatga chiqib ko'rishni ko'ngil-lari tortadimi?

– Mumkin.

U ikkinchi qavatga ham tushdi.

– Hazrati oliylari birinchi qavatga ham qadam ranjida qilishni xohlaydirmi?

Narvondan tushib, olomonning ichiga kirib qolgan jinni to'g'ri cholning oldiga bordi-da, uning yelkasiga qoqib dedi:

– Sen ham jinni ekansan, ko'rinib turibdi. Jinni jinnining fe'lini yaxshi tushunadi-da.

Keyin komissarga o'girilib qo'shib qo'ydi:

– Mana endi qo'limni bog'lab, jinnixonaga olib ketaversang bo'ladi. Jinniga qanday muomala qilish kerakligini bilib olgandirsan endi?

Politsiyachilar jinnining qo'lini orqasiga bog'lab olib ketishgach, olomon cholni o'rab oldi.

– Otaxon, karomatingizning siri nimada?

– E, bolalarim, hazilakam ish emas bu, – javob qildi u. – Suyagimiz shu ish bilan qotgan, qirq yildan beri siyosat qozonida qovrilib yuribmiz.

Chol bir xo'rsinib olgach, qo'shib qo'ydi:

– Qani endi shu topda mening ham iligim baquvvat bo'lsa-yu, shunaqa baland bir tomga chiqib olsam. Sira tushmasdim. Tushiradigan mard hali onasining qornida yotibdi.

NOZIK BAROMETR

Mening aziz bir do'stim bor.

Nima haqda yozishimni bilmay, bir kuni ishxonada xunob bo'lib o'tirgan edim, bir odam kirib keldi. Kir-di-yu, yugurib oldimga kelib, peshanamdan cho'lpillatib bir o'pdi.

– Qoyilman, mard yigit ekansan! – deya hayqirdi u.

Mardligim o'zimga ham ma'lum bo'lgani uchun iltifoti-ga e'tibor bermadim. U gapida davom etdi:

– O'zing ham zap yozuvchisan-da. Qalamingdan zahar tomib turadi-ya!

Zahar tomib turadigan qalamim uchun bir kuni zaqqum yutishim mumkinligini o'sha kezda butunlay unutib, shirin so'zlariga mahliyo bo'lib qoldim.

– Boplayver bu xumparlarni! Qancha ursang, shuncha oz ularga! Bu yaramaslarga faqat sening qalaming bas keladi. Aslo tap tortma! Ha, dadil bo'laver!

Shu-shu u bilan inoqlashib ketdik. Eh, harqalay biz shi-rin gapning qulimiz-da.

Faylasuflar odam bolasiga turlicha ta'riflar berishgan. Lekin mening o'ylashimcha, odam – bu o'zini inson deb yurgan eshakning o'zi. Nega desangiz, o'shanda men odam-ligimga bordim. Do'stimning shirin gaplariga uchib, qa-lamimga yana zo'r berdim. Hali-hali esimda – ertasi kuni prokurorga ro'para bo'ldim. Undan bir amallab qutulib ke-layotgan edim, mendan maslahatini ayamagan boyagi osh-namni ko'chada ko'rib qoldim. U meni ko'rmadi. Yonidagi ikkita sherigiga uqtirayotgan gaplari qulog'imga chalindi:

– Shunaqa ham yozib bo'ladimi, azizim?! Axir bu xiyo-nat-ku! Axir u ajnabiy odam emas-ku!

Oradan ancha vaqt o'tdi. Bir kuni o'sha oshnam o'pka-sini qo'ltiqlaganicha oldimga yugurib keldi. Oldingidan ham zo'rroq mehribonlik bilan bo'yninga osildi:

– Kechagi felyetoningni rosa miriqib o‘qidim, do‘stim. O‘ziyam antiqa chiqibdi. Qalamingga Xudo quvvat bersin. Vatanimizni sizlar qutqarib qolasiz. Aslo bo‘sh kelma, dadil yozaver.

Chindan ham odam degani o‘zini inson hisoblab yurgan eshakning o‘zginasi ekan. Vatanimizning omon qolishi mening felyetonlarimga bog‘liq ekan-da, dedim-u, yozadiganimni yozib tashladim. Bu gal bir emas, ikki politsiyachi oyog‘imni yerga tekkizmay o‘tirgan joyimdan to‘g‘ri tergovga olib bordi. So‘roq berib qaytar chog‘imda yana oshnamning hasratini eshitib qoldim. U yonidagi odamga zo‘r berib gapini ma‘qullayotgan edi:

– Afandim, mamlakatdagi ahvolni yaxshilash kelib-ke-
lib shunga qolibdimi? Bunaqa ishga tumshug‘ini suqib nima qiladi? Har kim o‘zining chegarasini bilishi kerak-da, axir. Chegaradan tashqari chiqishga hech kimning haqqi yo‘q. Bunaqa qilaversa tergovga tushish emas, dorga osilishi hech gap emas-a!

Bu safar ham jazodan omon qoldim. Sutdan og‘zi kuygan qatiqni ham puflab ichadi, deganlaridek, endi ancha ehtiyot bo‘lib, yo‘q narsalarni yozib yurdim.

Eshitsam, aziz do‘stim yana mendan rozi emasmish.

– Bilamiz, biz bunaqa odamlarni, – deb yurganmish u – Bir cho‘qishlik holi bor ekan, mana endi adoyi tamom bo‘ldi. Bunday yozuvchilar bir marta yalt etadi-yu, keyin so‘nib ketadi. Bo‘lmasa ikki marta tergovga tushdim, deb allaqayoqdagi bo‘lmaq‘ur narsalarni yozib yurarmidi.

Ilojim qancha, do‘stimning gapi to‘g‘ri. Bir payt o‘zi ham kelib qoldi.

– Bu xomkallalar hajviya nimaligini tushunishmaydi. Sen, oshnam, yozuvingdan qolma. Ha, dadil bo‘l, bir gap bo‘lsa, bu yoqda biz bormiz, – dedi u.

Dalda bergani uchun minnatdorchilik bildirdim. Modomiki orqamizda suyanadigan shunaqa zo‘r tog‘ bor ekan,

suyanamiz-da. Ertasiga to'ppa-to'g'ri politsiya qo'liga tushdim.

Qamoqdan chiqqan kunim ko'chada do'stinga ro'para keldim. Suyunganimdan bag'rimga bosay deb, o'zimni tashlagan edim, lip etib gavdasini chetga oldi. Zarb bilan borib do'kon oynasiga urildim. O'zimga kelib qaragam, oshnam tushmagur juftakni rostlab qopti.

Endi ehtiyot bo'lib, yengilroq yozmasam bo'lmaydigan o'xshaydi. Shunday qildim ham.

– Ha, endi, ertami-kechmi shunaqa bo'lishi kerak edi. Esiz, esiz, bu bechora ham pulga uchib, sotilib ketibdi-da, – do'stim shunaqa deb menga achinib yurganmish.

Do'stlarimni hech xafa qilgim kelmaydi. Yana qalamimga zo'r berdim. Birinchi gal yengil qutuldim-u, lekin ikkinchisida oyog'im osmondan keldi.

Ancha vaqt ishsiz tentirab yurdim, kirmagan ko'cham, uchramagan idoram qolmadi. Oxiri ming azobda bir joydan zo'rg'a ish topdim. Sal o'zimga kelib, orqa-o'ngimni endi olib yurgan edim, yana o'sha oshnam ko'rinib qoldi.

– Qoyilman senga, juda serg'ayrat, juda botir odam ekansan. Azizim, sen yo'qni bor qiladigan kishisan, – deya sayrab ketdi, so'ngra men bilan xayrlasha turib qo'shib qo'ydi. – Bilasanmi, shu kunlarda bir oz puldan siqilib yuribman. Menga yuz lira topib berolmaysanmi?

Do'stinga ko'proq yordam ko'rsatolmasligim uchun uzr aytib, so'rganini berdim.

– Asti qo'rqma, orqaga chekinma, sening qilayotgan ishing – bu xalq uchun, – dedi u chiqib ketayotib.

Men ham orqaga chekinmadim. Oqibat shu bo'ldiki, bu gal meni to'ppa-to'g'ri qamoqqa tiqib qo'yishdi.

Meni ko'rgani kelgan bir o'rtog'im yo'lda do'stimni uchratganini gapirib berdi.

– Afandim, – debdi u o'rtog'imga, – unga ko'p nasihat qildik, gapimizga kirmadi. Har bir ishning o'z mavrudi

bo'ladi. Ko'ngling nimani istasa, shuni yozishing mumkin, lekin yo'li bilan, mavrudi bilan qilish kerak-da. Mana oqibati nima bo'ldi: qulog'idan cho'zib, avaxtaga tiqib qo'yishdi.

Men chinakam do'st, asl og'ayni mana shunaqa bo'lishi, yuragida bor gapni ochiq-yoriq aytishi kerak, deb hisoblayman.

Qamoqdan qutulib chiqqanimdan keyin ancha vaqtgacha ish qidirib tentirab yurdim. Nihoyat, bir joyga o'rtnashdim. O'zimga o'zim „ishqilib bu yog'iga ehtiyot bo'l“ dedim-da, ishni boshlab yubordim. Qalamim ham joyida, qimirlab turibdi. Umringdan baraka topkur do'stim bir mahal mendan xabar olgani kelib qoldi.

– Buyursin, do'stim, buyursin, – dedi u meni ko'ra so'lib. – Joying o'zingga yarashib turibdi. Yozishni faqat senga chiqargan, senga. Bu yog'iga yozaver endi, ha, yozaver. Sening yozgan narsalaringni xalq o'z fikrining ifodasi deb bilmoqda. – Keyin ikki qo'lini baland ko'tarib, xonada o'tirganlarga eshittirib hayqirdi: – Sen dono odamsan, afandim, donosan.

Keta turib „Ishimning mazasi yo'qroq...“ deya gap boshlagan edi, bu yog'ini eshitib o'tirishni o'zimga ep ko'rmay, darrov yonimni titkilab ko'rdim.

– Aybga buyurmaysan, do'stim. Ikki yuz lira pulim bor ekan, shuni baham ko'ramiz.

Jahli chiqqanga o'xshadi:

– Hazilingni qo'y, azizim. Senga Xudo yetkazsin. Menga sal ko'proq pul kerak edi.

– Yuz ellik lira yetadimi?

– Hammasini beraver.

– Mayli, ola qol. Menga atigi o'n lirasini qoldirsang bas.

– Unaqa qilma, do'stim. Hammasini beraver.

– Xudo haqqi, yonimda boshqa pul yo'q. Loaqal o'zimga besh lira qolsin.

– Iloji yo‘q-da, azizim. Juda zarur menga.

– Mayli undoq bo‘lsa ola qol. Menga kechki ovqatga ikki yarim lira bersang bo‘ladi.

– Iya, shuncha pul ishlab, kuning ikki yarim liraga qoldimi?

– Nima qilay, xonasi shunaqa bo‘lib qoldi. Xo‘p, bu yog‘ini bir iloj qilarkan, sigaretga yetadigan qilib qoldirsang bo‘lar.

Do‘stimni jo‘natgach, qilgan nokasligim uchun o‘zim uyalib ketdim. Unga ko‘proq yordam ko‘rsatsam arzimaydimi?

Shu zaylda o‘zimga o‘zim dashnom berayotgan edim, to‘satdan do‘stim tutaqib kirib qoldi:

– Bu nima qilganing? Puling yuz sakson ikki yarim qurush kam-ku?!

Lovlagidek qizarib ketdim.

– Kechirasan, uzr. Lekin o‘zim ham qancha berganimni bilmay qolibman.

– Qani, qolganini bu yoqqa cho‘z! – deb o‘shqirdi u.

O‘shqirsa, haqqi bor, bergan pulim kam chiqibdi. Yetmaganini bittasidan qarz olib berdim. U keta turib, nasihat qilishni unutmadi:

– Qalamingni charxla, tig‘i o‘tkir bo‘lsin, bu vijdonsizlarning ko‘ksiga xanjar bo‘lib botsin!

Qalamim haddan tashqari o‘tkir bo‘lib ketgan ekan shekilli, bu gal men ishlab turgan gazetani yopib, o‘zimni yana avaxtaga tiqishdi.

Temir panjarali kamerada yotibman-u, lekin do‘stimning barcha gaplari varaqa singari menga yetib turibdi.

– Battar bo‘lsin, – debdi u mening qamalganimni eshitib, – chegaradan chiqib ketishni kim qo‘yibdi unga. O‘zing bir mijg‘ov yozuvchi bo‘lsang. Qadamingni bilib bos-da, zang‘ar. Orqa-o‘ngingga qaramay, nima qilib qo‘yding asti? Bilasanmi, bu zamonda avval u yoq-bu yoqqa qa-

rab olib og‘iz ochish kerak-da! Til degan suyaksiz narsa, qo‘yib bersa nimalar demaydi u. Tilning uzuni – boshning kaltagi. Mana endi jazosini tortsin, bu xomkalla. Zora endi aqli kirsa!

Nachora, do‘stim tamoman haqli. Jazomni tortishim kerak ekan, tortdim. Qamoqdan qutulib chiqqanimda endi jazo tortadigan holim qolmagan edi.

To‘g‘ri chiqib, do‘stimning oldiga bordim.

– Og‘ayni, juda nozik paytda kelding-da, – dedi u, so‘ngra qo‘lidagi soatiga qaradi. – Bittasi bilan va‘dalashgan edim, shunga borishim kerak.

Birgalashib ko‘chaga chiqdik.

– Sen qaysi tomonga borasan? – deb so‘radi mendan.

– O‘zim ham bilmayman. Qayoqqa bo‘lsa o‘sha yoqqa ketaveraman.

Do‘stim tutoqib ketdi:

– Qanaqa beqaror odamsan o‘zing? Borar joyingni bilib yursang bo‘lmaydimi.

– Azbaroyi xudo, hali o‘ylab ko‘rganimcha yo‘q edi. Manovi tomonga yursam ham bo‘ladi, – dedim chapdagi ko‘chaga ishora qilib.

– Buni qara, shu yerda ajrashar ekanmiz-da, mayli, seni yo‘ldan qo‘ymay, men bu yoqqa boraman, – dedi-da, teskari tomonga burilib ketdi.

Uzoq vaqt ishsiz yurdim. Shu orada bir necha marta do‘stimni yo‘qlab, uyiga ham bordim. Lekin bafurja gaplashgani imkon bo‘lmadi – yo uyida bo‘lmaydi yo haddan tashqari band bo‘ladi.

Bir kuni ozroq qarz so‘ramoqchi bo‘lib uyiga bordim, lekin ancha vaqt so‘ragani tilim bormay turib qoldim.

Uch-to‘rt marta qultillatib tufugimni yutdim. Endi yurak yutib, „Sen yaqin do‘stimsan, senga aytnasam, kimga aytaman. Ikki kundan buyon ichimga bir burda ham non kirgani yo‘q“ demoqchi bo‘lib og‘iz juftlagan edim, sap-

chib o'rnidan turdi, bufetga yaqinlashib bir stakanga to'ldirib vino quydi.

– Garov o'ynayman, umringda bunaqa vinoni tatib ko'rmagansan, – dedi u stakanni menga uzatar ekan.

Och qoringa tushgan vino ko'zimning ola-kulasini chiqarib yubordi.

– Shu kunlari juda toliqib yuribman, – ahvolidan nolib ketdi do'stim. – Shu vaqtgacha uyimdan ichkilik arimagani edi. Kecha kechqurun bitta do'ndiqcha bilan gaplashib qo'ygan edim, bugun uyga kelmoqchi. Yaxshilab kutib olish kerak, hayronman, yonimda sariq chaqa pul yo'q. Agar puling bo'lsa...

– Afsus, bir mirim ham yo'q.

– Hamma vaqt qurib yurasan-da. Mana qirq yil bo'libdi, qachon so'ramay, hamisha puling bo'lmaydi.

Nima qilsamikin? Shunaqa og'ir paytda do'stingga yordam bermasang, qachon berasan?

Do'stim:

– Endi bir amallab ozroq pul topib bermasang bo'lmaydi! – degan edi, miyamga bir fikr kelib, irg'ib o'rnimdan turdim.

Sotib yemagan buyumlarimdan bitta avtoruchka qolgan edi, o'shani yarim bahosiga bo'lsa ham pullab keldim. Qo'linga arzimagan pul tushdi, do'stim uchun yo'qdan ko'ra harna-da.

– Uh, keldingmi, – eshikning oldida kutib oldi do'stim. – Darrov borib bifshteks, do'lma bilan ikki shisha vino olib kel!

Yugurib borib, aytganlarini keltirdim. Qornim ochgani-dan ko'zim tinib ketyapti, tik turishga majol yo'g'. U eshik oldida qo'limdagi narsalarni oldi, keyin birma-bir bularning pulini hisoblashga tushdi. Avtoruchkani qanchaga pullaganimni surishtirib bilgach, mendan so'radi:

– Yuz o'n qurush pul ortib qolgan bo'lishi kerak. Qani o'sha?

– Men aytgan mehmon xotin kelib o‘tiribdi, – dedi u mendan ortgan pulni olgach. – Bo‘lak tanishlar ham bor. Agar sen uyga kiradigan bo‘lsang...

– To‘g‘ri, kiyimim...

– Bir tomondan, kiyiming to‘g‘ri kelmaydi, ikkinchi tomondan, o‘zing bilasan, zamon nozik.

– Gaping to‘g‘ri, ilojim qancha, – dedim-u, betiga qaramay ketib qoldim.

Yana allaqancha vaqt sarson bo‘lib yurgandan keyin, nihoyat bir ishga kirib oldim. Gazetamizning birinchi soni chiqqan kuni do‘stim mehribonchilik qilib mendan hol-ahvol so‘ragani kelib qoldi.

– Bu safar sen shu ishning Xudosi ekanligingni ko‘rsatib qo‘yding. Barakalla, sendagi bu katta kuch-g‘ayrat, qo‘lingdagi bu zo‘r qalam, yuragingdagi bu o‘chmas o‘t, sendagi bu...

Og‘ziga kelgan gapni qaytarmay, rosa bidillab bergach, bir payt botinkasini naq burnimga tiqqudek qilib ko‘rsatdi:

– Ko‘ryapsanmi buni, shuni kiyib bo‘ladimi, axir?

– Ha, oyog‘ingni qisyaptimi?

– Iya, ko‘zing bormi, shuni kiyib bo‘ladimi axir?

O‘zimmikini ko‘rsatishga yuzim chidamay, oyoqlarimni stol ostiga yashirdim.

– Oyoqqa biror narsa olmasam bo‘lmaydi, sen endi...

– Picha sabr qilib tur. O‘zim endi ish boshlagan bo‘lsam.

– Yo‘q, o‘t-betdan pul topib bermasang bo‘lmaydi. Shu ahvolda yursam nomusga qolaman-a.

Ustiga qo‘shib berish sharti bilan tanishlardan o‘ttiz besh lira topib bergan edim, ko‘nmadi:

– Namuncha ziqna bo‘lmasang? Topgan pulingni go‘ringga olib ketmoqchimisani?

Yana bittasidan qarz ko‘tarib, qo‘liga oltmish lira tutqazdim. Ketayotib do‘stim yelkamga bir qoqib qo‘ydi-da, engashib qulog‘imga shivirladi:

– Seni juda yaxshi ko‘raman. Ishonaver, mening so‘zim bilan ishim bir. Azizim, sen shunday qilib yozishing kerakki, toki qalamingdan chiqqan har bir so‘z bu benomuslarning boshiga qilich bo‘lib tushsin.

Qilich faqat ularning emas, o‘zimning ham boshimga tushdi. Bo‘ladiganim bo‘ldi toza. Endi odamlar ko‘chada meni ko‘rib qolishsa chumchuqday tiraqaylab qochadigan bo‘lib qolishdi.

– Biz unga ko‘p nasihat qildik, lekin gapimizga quloq solgani yo‘q, – deya gap tarqatibdi do‘stim, – o‘zboshimchalik qildi, qadamini chakki bosdi. Qalami sal o‘tkirroq bo‘lganda ham mayli edi, yozish nimaligini bilmaydi-yu, qiladigan ishi odamlarga tuhmat yog‘dirish. Qolaversa, tanish-bilishlarining ham boshini baloga qo‘ydi. O‘ziga yaxshilik istamagan odamning xalqqa yaxshiligi tegarmidi?

Go‘yo mening yozgan narsalarim mamlakatda erkinlik va demokratiya bo‘lishiga to‘sqinlik qilib turganmish. Bu yog‘ini so‘rasangiz, hukumat tepasida turgan ulug‘larimiz ozgina erkinlik in‘om qilay deb turganlarida o‘rtada „lop“ etib men paydo bo‘larmishman-u, hamma narsani alg‘ov-dalg‘ov qilib ketarmishman. Shundan keyin kattalarimiz erkinlik berish, demokratiya o‘rnatish fikrlaridan qaytib qolisharmish. Mamlakatda demokratiyaga xilof juda ko‘p qonunlarimiz bor-a? Shularning hammasi mening ovozimni o‘chirish uchun chiqarilgan ekan. Meni deb xalqimiz ham jabrga qolayotgan emish.

Men to‘g‘ri tanqidni tan olaman. Qolaversa, yozuvchi degan odam, agar u yaxshi asar yozmoqchi bo‘lsa, achchiq tanqidlarga ham quloq solishi kerak.

Yaqinda do‘stimdan bir xat oldim. U xatida shunday debdi: „Do‘stim, bu dunyoning ishlari o‘zingga ma‘lum. Hozir zamon shunaqa – tirnoq tagidan kir qidirib yurishadi. Demoqchimanki, sening kuning menga tushmasin. Mabodo ko‘chada bir-birimiz bilan uchrashib qolguday bo‘lsak, o‘zimizni tanimaganga olib o‘tib ketaylik“.

Menga shu xatni keltirgan odam do'stim hozir ishsiz yurganligini aytgan edi, „borib ayt, ob-havoni kuzatadigan stansiyaga uchrasin, o'sha yerga barometr kerak ekan“ deb yubordim.

Dunyoda qanday ajoyib odamlar bor-a! Vaziyatning qaltisligini ko'rib, yor-u birodarlari bilan uchrashish, ko'ngil ochib, suhbatlashish lazzatidan mahrum bo'ladilar. Bunaqa odamlardan qancha kerak bo'lsa shuncha topiladi. Rostini aytsam, shu toifadagi do'stlaring bo'lmasa, bu o'limtik dunyoda jindakkina yashashning ham qizig'i qolmasa kerak.

HUSHTAK AFANDIM

Rosa holdan toyganman. Toleim pastga o'xshaydi, qayerga ish so'rab bormayin, yo'q, degan javobni olaman. Ahvoling nochor bo'lganidan keyin miyaga har xil bo'lar-bo'lmas fikrlar kelaverarkan. O'zim Machkadan Do'lmabog'cha¹ tomonga qarab ketyapman-u, yetti uxlab tushga kirmaydigan xayollar og'ushidaman. Bir payt qarasam, stadionning oldidan chiqib qolibman. Xuddi qiyomat qoyim bo'lganga o'xshaydi. Atrof-tevarak g'uj-g'uj odam, o'tib ketishning sira iloji yo'q. Bular stadionga qandoq kirishadi? Hayronman. Girdobga tushib qolgan odamday turgan joyimda girgir aylanaman. Ba'zan yuqoridan bosib qolishsa, ellik qadam orqaga tashlaymiz, orqadan surib kelishadigan bo'lsa, yana shuncha oldinga siljiymiz. Goho olomon to'rt tomondan chunonam qisib keladiki, turgan yerimda chirpirak bo'lib ketaman.

Bundoq qarasam, olomonni yorib o'tishning hech iloji yo'q. Aslida-ku bo'lar ish bo'ldi, deb qo'l qovushtirib o'tirganim yo'g'-a, ammo qanchalik urinib-surinsam ham kuchim yetmadi. Nazarimda, katta bir o'pqonga tushib qolganman-u, buning ichidan endi hecham chiqolmaydiganday-

¹ Istambulda joylarning nomi (*tarj.*).

man. Qanchalik o'zimni to'rt tomonga urib, qo'l-oyog'imni ishga solmayin, baribir nafasim bo'g'ilib, shu yerning o'zida asfalasofilinga ketvoradiganga o'xshayman.

Shu tariqa dunyodan umidimni uzib turgan edim, birdan churillagan hushtak ovozi eshitilib qoldi. O'ziyam ketvoragan hushtak ekan shekilli, tug'ma karlarning qulog'ini ham qomatga keltirvoradi. Hozirgina qaynab, ko'pirib turgan olomon bir zumda qoq ikkiga ajralib, hushtak chalgan odamga yo'l bo'shatdi. Kim ekan bu azamat, deb bundoq qarasam, o'zimizning Musa kelyapti!

– Musa-a-a! – deb qichqirib yubordim suyunganimdan. Aslida-ku „huv Musa!“ deb chaqirsam ham bo'lardi-ya, lekin hushtakka hurmat zo'r ekanmi menda, haytovur undoq qilmadim. Meni ko'rib, Musa oldimga keldi, qo'limdan ushlab, o'zi bilan olib ketdi. Ildam yurib ketdik. Mabodo biror yerdan o'tolmay qolsak, oshnam hushtagini churillatib qo'yadi. Odamlar bir-birini yiqitib bo'lsa ham, darrov bizga yo'l bo'shatishadi. Oldinda Musa, orqada men – shu tariqa stadionning eshigiga yetib oldik. Musa yana hushtak chalgan edi, eshikda turgan bir odam „buyursinlar!“ deb bizni ichkari qo'yib yubordi.

– Sport bo'yicha kattakon bo'ldingmi, Musa? Bu qandoq gap o'zi, hushtak chalsang, hamma senga yo'l beradigan bo'пти? – hayron bo'lib so'radim undan, bir oz nafasimni rostlab olgach.

– Qo'yaver, parvo qilma. Xo'sh, o'zingdan gapir, qayerda ishlayapsan?

– Hech qayerda. Besh oydan buyon ishsizman. Erkaklarga ish yo'q. Hozir yo'l-yo'lakay shuni o'ylab kelayotgan edim. Ozroq grim qilib xotin kishi bo'lib olsammikin, degan xayolga ham bordim. Ammo bu masalada birovni ayblab ham bo'lmaydi. Mening o'zimga ham biror xizmatchi kerak bo'lsa, g'o'dayib kirib, g'o'dayib chiqadigan erkaklardan ko'ra ayol kishini afzal ko'rardim. Niyatimda

biror g'araz bo'lgani uchunmas. Axir erkak bilan ayolning qiladigan ishi bir bo'lganidan keyin oladigan odaming chiroyliroq bo'lgani ma'qul emasmi? Loqaq husnini ko'rib, yayrab o'tirasana-ku.

– Bo'ldi, bo'ldi. Miyang aynib qolganga o'xshaydi.

– Sen ham besh oy ishsiz yurib ko'r, keyin bilasan.

Maydonda o'yin boshlanib qoldi, ikkovimiz o'yinga berilib ketdik. Futbol tugaganidan keyin yana ko'chaga chiqdik. Bu gal ham Musa hushtagini churillatib, yo'l ochib bordi. Katta ko'chaga chiqib olgan edik, „mashinaga o'tiramiz“ deb qoldi. Yaxshiku-ya, lekin shu tobda mashinani to'xtatib bo'ladimi? Mashina yoki avtobusga chiqaman, deb turganlarning keti ko'rinmaydi. Birorta mashina ko'rinib qolguday bo'lsa, tumonat odam yopirilib boradi.

– Hali-beri bizga navbat tegmaydi, ikki-uch kun yotib kutish kerak, deb qo'ydim.

– Qo'yaver, ishing bo'lmasin.

Yonimizdan g'izillab bir taksi o'tdi. Musa darrov hush-tagini chalib yubordi. Hozirgina to'xtamay o'tgan taksi darhol orqaga qaytib, oldimizga ko'ndalang bo'ldi. Ikkovimiz chiqib oldik. Shunisi qiziqki, shofyor mashinaga boshqa odam olmadi.

– Transport politsiyasiga boshliq bo'ldingmi, Musa? – yana hayron bo'lib so'radim undan.

Damingni chiqarma, deganday qo'lini labiga bosdi. Nishontoshida taksidan tushdik. Musa cho'ntagiga qo'l soldi.

– Pulingiz kerak emas, jon aka, shuning o'ziga rahmat, – deb shofyor bola oyog'ini tirab turib oldi.

– Shofyor tanishmidi? – deb so'radim Musadan.

– Yo'q.

– Bo'lmasa politsiyada kattaroq ishdamisan?

Yana „jim bo'l“ degan ishorani qildi-da, keyin qo'shib qo'ydi:

– Manavi joydan biror nima olib, uyga boramiz.

Qassoblik do'koniga qarab yurdik. Do'konning oldida odam uymalashib yotibdi, yaqiniga yo'lab bo'lmaydi. Hamma yoqda qiy-chuv, to'polon. Yana Musaning hushtagi ish berdi. Bir churullatib qo'ygan edi, hamma tinchidi qoldi. Qassobning o'zi ichkaridan yugurib chiqib, bizni do'konga boshlab kirdi.

– Bir kilo yumshoqroq go'sht kerak edi.

– Bosh ustiga, yana nima?

– Miyadan bormi?

– O'ntasi yetadimi?

Qassob bularni yaxshilab o'rab berdi. Musa yonidan hamyonini oldi.

– Xafa bo'laman, beyafandim, – deganicha qassob pulni olishga aslo unamadi. Masalliqni olib, do'kondan chiqdik.

– Aysang-chi, endi, Musa, o'zi nima gap? Yoki munitsipalitetga rais bo'lib qoldingmi?

– Bugun ko'chada ovqatlanamiz, – dedi u savolimni yana javobsiz qoldirib. – Ertaga dam olish kuni, masallig' kunimizga yaraydi. Yana biror nima olaymi?

– Bo'lar.

Bu yerdan chiqib, baqqol bilan sabzavotfurushga uchradik. Musa hushtagini kanda qilmadi. Ikki qo'limiz o'rog'liq narsalarga to'lib ketdi. Ammo bir lira ham pul sarflaganimiz yo'q. Musa hushtagini churullatib, bitta taksi to'xtatdi. Uyiga qarab jo'nadik. Mashinadan tushayotganimizda shofyorga kutib turishni buyurdi.

Oshnam uylanmagan, bir o'zi turadi. Qo'limizdagi narsalarni uyiga qo'yib, ko'chaga chiqdik. Taksi kutib turgan ekan, to'g'ri kazinoga qarab yurdik. Bu shofyor ham pul olmadi.

Kazinoning ichi liq to'la odam. Musa yonidan hushtagini olib, endi chalaman deb turgan edi, bir gala ofitsiant bilan ko'rinishidan kazinoning egasiga o'xshagan bir kishi oldimizga yugurib keldi. Darrov sahnadan pastroqqa joy qilib

berishdi, bizdan so‘rab ham o‘tirmay birpasda stol ustini tuzab qo‘yishdi.

– Gapirsang-chi, Musa, kimsan o‘zi? Yo revizorlik qil-yapsanmi-a?

Nimani so‘ramay „jim“ deydi, bir og‘iz ham javob bermaydi. Musa katta odam bo‘lib ketganga o‘xshaydi-yu, lekin kim bo‘lib ishlayotganikin? O‘ylab-o‘ylab tagiga yetolmayman.

Bir payt o‘yin-kulgi boshlanib ketdi. Rohat qilib o‘tiribmiz. Ofitsiantlar atrofimizda parvona. To‘satdan orqa tomondan shovqin ko‘tarildi. Mast-alast odamlar yoqa bo‘g‘ishib ketishdi. Ish pichoqqa borib taqalay deganida, Musa hushtak chalib yubordi. Hozirgina bir-biri bilan sherday olishib turgan azamatlar churullagan ovozni eshitiboq, dumlarini qisib qolishdi.

Bu Musa tushmagur kim bo‘lib ketdiykin-a? Hech o‘yimga yetolmay qoldim. Ikki yuz lira atrofida yeb-ichgan bo‘lsak kerak, deb o‘tiruvdim, kazinoning egasi bir chaqa ham pul olmadi.

Uyga yana mashinada qaytdik. Ertasiga dam olish kuni keldi. Musa yeng shimarib, ovqatga o‘zi unnab ketdi. Men ketmoqchi bo‘lgan edim, javob bermadi.

– Hech qayoqqa ketmaysan, – dedi u. – Menikida besholti kun yuratur. Miyang ham ancha dam oladi.

Uyida bir hafta qolib ketdim. Ikkovimiz rosa aylandik, o‘ynab-kuldik. Kayf-safo qildik. Lekin oshnamdan sariq chaqa ham ketgani yo‘q. Qayerga bormaylik, hamisha uzatgan puli qo‘lida qoladi.

– Hoy Musa, katta odam bo‘lib ketganingni tushunib turibman. Lekin amaling nima, aytsang-chi? – deb rosa yobordim. Shundayam aytmadi. Oxiri bir kuni:

– Aytsam, birovga gullab qo‘ymaysanmi? – deb so‘radi.

– Aslo.

– So‘z berasan-a?

- Beraman.
- So‘z bitta-ya?
- Bitta.

Menga rosa qasam ichirtirib, birovga aytib qo‘ymasligimga to‘la ishonganidan keyingina cho‘ntagini kovlab, yonidan hushtagini oldi-da, uni o‘pib, peshanasiga surtdi.

– Hamma karomat mana shu hushtakda, oshnam, – dedi u. – Bir kuni Qorako‘yda taksi kutib turuvdim. Odam ko‘p, menga navbat tegishiga ko‘zim yetmaydi. Qo‘limdagi zanjirli hushtagimni o‘ynab, g‘ijinib turgandim, nima bo‘lib ham beixtiyor uni chalib yuboribman. Shu zahotiyuq bir kishi oldimga yugurib kelib, salom berdi. Mening o‘rnimda bo‘lganingda sen nima qilarding shunaqada?

– Hayronman.

– Bilasanmi, men nima qildim? „Tartib o‘rnating, o‘g‘lim“, dedim-da, indamay ketaverdim. Nariroq borib ko‘rsam, ko‘chadan o‘tishning hecham iloji yo‘q. Yana hushtak chaldim. G‘izillab ketayotgan mashinalar taqa-taq to‘xtab qoldi. Ko‘chaning narigi betiga bemalol o‘tib oldim. Oldiniga rosa hayron bo‘ldim, lekin chuqurroq o‘ylab ko‘rsam, hushtakda chindan ham hikmat ko‘p. Bizda hamma ishlar shuning amri bilan qilinmaydimi, axir? Hushtak chalinsa, kemalar yo‘lga chiqib, poyezdlar joyidan jiladi. Mashinalar hushtak bilan to‘xtaydi. Yoqa bo‘g‘ishganlarni u bir zumda yarashtirib qo‘yadi. Uning ovozi eshitib, ba‘zan odamlar tiraqaylab qochishadiyam. Masalan, hozir men uni bir churullatib qo‘ysam, hamma kaklik bolasiday in-iniga kirib ketadi. Ha, do‘stim, bizning yurtimizda hamma narsa hushtakka bog‘liq ekanini men o‘shanda tushundim. Shu-shu meni hushtak boqib kelyapti. Jon og‘ayni, bu gapni zinhor birovga ayta ko‘rma. Aks holda, hushtakchilar ko‘payib, mening bozorim kasod bo‘ladi.

Bu sirni boshqa odamlarga aytmaslikka so‘z berganim to‘g‘ri, ammo yozmaslik haqida oramizda gap bo‘lgani

yo‘q. Shunga ko‘ra undan eshitganlarimni yozyapman. Lekin mening ham sizlarga bitta iltimosim bor. Hozir bir gap aytaman, shuni hech kimga bildirmanglar.

Musa bilan xayrlashganimdan keyin men ham darhol hushtak sotib oldim. Taqsim maydonida uning kuchini bir sinab ko‘rmoqchi bo‘ldim. Chalgan hushtagim hech kimga ta‘sir qilmadi-yu, lekin o‘zim qamoqqa tushdim. Ertasi kuni gazetalarda mening to‘g‘rimda bo‘lmag‘ur gaplarni yozib chiqishdi: „Bir firibgar qo‘lga tushdi!“ „Soxta politsiyachi, muttaham qamoqqa olindi!..“ Tepamda Xudo turibdi, bir marta hushtak chaldim, xolos, boshqa hech qanaqa gunoh qilganim yo‘q. Shundan keyin tushundimki, bizning yurtimizda hushtakka e‘tiqod zo‘r-u, ammo uni qoyil qilib chala bilish ham kerak ekan. Menga o‘xshab hushtakni dag‘-dag‘ titrab chaladigan bo‘lsang, darrov joyingni ko‘rsatib qo‘yisharkan.

Sizdan iltimos qilmoqchi bo‘lgan narsam shuki, hushtakni qandoq chalish kerakligini boshqa odamlarga aytib yurmanglar. Chunki churullatishni qoyil qiladiganlar uchun u zo‘r tilsim!

KALTAKSIZ TUROLMAYMAN

Avtobus liq to‘la odam. Shulardan biri avtobusga yangilishib chiqib qolganga o‘xshaydi. Aslida u „Tez yordam“ mashinasiga muhtoj ko‘rinadi. Boyoqishning chap qo‘li bo‘yniga latta bilan osib qo‘yilgan, boshi chandib tashlangan. Bir ko‘zi momataloq bo‘lib shishib ketibdi, ikkinchisi esa qontalash. Qo‘lidagi hassasi bilan zo‘r berib, o‘ziga joy ochmoqchi bo‘ladi, xuddi soatning kapgiriday jag‘i tinmay, dam-badam: „Ih!“ „Uh!“ „Voh!“ deb inqillaydi. Go‘yo avtobus bir chayqalsa, qo‘l-oyog‘i uzilib, bir qop suyak bo‘ladigan vajohati bor.

Rahmi keldi shekilli, bir kishi unga joyini bo‘shatib berdi.

– Xudoyo kam bo‘lmang, – minnatdorchilik bildirdi u inqillab.

Yonidagi odam buni tanib qoldi.

– Uh... Voy jonim, omonmisiz, Sharofiddinbey. Abgor bo‘ldim, abgor. Uh...

– Xudo shifo bersin. Ha , tinchlikmi, nima bo‘ldi?

– Voy biqinim... Asti so‘ramang, uch oydan beri ahvol shu.

– Chakki bo‘pti-ku... Shifosi bilan bergan bo‘lsin, Solmonbey. Nima kasal bo‘ldingiz? Qayeringiz og‘riydi?

– Oh, nimasini aytasiz. Bu ham ko‘rgilik ekan. Shunaqa kasal ham bo‘larkan... Uf, o‘lar bo‘lsam o‘lib bo‘ldim..

– Obbo, sizga qiyin bo‘pti-ku. Doktorlar nima deyapti? Kasalni aniqlashdimi?

– Voy belim... Bunga doktorning kuchi yetmaydi, birodar. U ham ojizlik qiladi... Uh-h... Dushmaningga ham ko‘rsatmasin bu kunni. A‘zoyi badanim zirqirab og‘riydi-ya, xuddi birov ombur bilan sug‘urib olayotganga o‘xshaydi. Ikki sonimni ko‘tara olmayman. Ana, ana, ih...

– Doktorga murojaat qilish kerak, Solmonbey. Bunaqa yurishda bo‘lmaydi. Loqaq kasalxonaga yotish kerak.

– Menikining kasalxonaga aloqasi yo‘q, Sharofiddinbey. Ruhiyatga bog‘liq narsa bu. Voy jonim-ey... O‘ziyam juda yuqumli bo‘larkan.

Sharofiddinbey sal chetga surilib o‘tirdi.

– Unday bo‘lsa ko‘chaga chiqmaslik kerak.

– Uf... Ih... Chiqmay bo‘ladimi? Aytishga oson, boshidan o‘tgan biladi buni. Chiqmay ko‘ring-chi... O‘g‘limdan yuqdi bu kasal.

– Iya, o‘g‘ilcha ham betob deng?

– Nimasini aytasiz. Betob bo‘lganda ham... juda tang ahvolda. Anchadan beri shunaqa. Voy-voy... Men sizga ayt-sam, gap bundoq, afandim... O‘g‘lim litseyni bitirolmadi. To‘qqizinchi sinfda ikki yil o‘tirib, arang o‘ninchiga chiqib oluvdi. O‘ninchi sinfda ham ikki yil qolib ketdi. Hammasiga

koptok sababchi... Voy biqinim... O'g'limga nasihat qildim, koptogingni qo'y endi, es-hushingni yig'ib ol, keyiningni o'yla, dedim. „Bu narsa menga bog'liq emas, dada“, deydi. Qolaversa, har futbol o'yinidan keyin hamma yog'i dabdala bo'lib keladi. Chap oyog'i sinib, koptok o'ynamaydigan bo'lib qoluvdi, shunga ham shukr qildim. Uf, bo'lmay ketyapman... Oyog'i singan bo'lsa ham o'zi sog' qolganiga suyundim. Axir bir kunmas, bir kun maydondan o'ligini sudrab chiqishim ham mumkin edi-da. Uh, a'zoyi badanim o't bo'lib yonyapti... Shundan keyin, afandim, o'g'ilcha futbol jinnisi bo'lib qoldi. O'zi o'ynamaydi-yu, lekin birorta o'yindan qolmaydi.

Anqara bilan Izmir unga ikki qadam yo'l bo'lib qoldi. Sog'-salomat borib keladigan bo'lsa mayliydi-ya, har gal kaltakdan shishib, mayib bo'lib qaytadi. Keyin haftalab ko'rpa-to'shak qilib yotadi. Hamisha ovozi xippa bo'g'ilgan bo'ladi. „Ovozg nima qildi, o'g'lim“, desam, „ko'proq baqirib yuboribman“, deydi. „Kamroq baqirsang bo'lmasdimi?“ desam, „bu menga bog'liq emas“, deydi. Bir o'yindan boshi yorilib kelsa, ikkinchisidan burni qonab, ko'zi shishib qaytadigan bo'lib qoldi.

– O'g'lim, yana nima bo'ldi?

– O'yin paytida yoqalashib qoldik.

– Maydonda futbolchilar jang qilishini-ku, bilaman, lekin tomoshabinlar ham yoqalashadimi?

– Bo'lmasa-chi.

– Boshqalar yoqalashsa yoqalashaversin, sen tinch o'tirsang bo'lmaydimi?

– Chetdan turib gapirish oson, o'zingiz bir borib ko'rsangiz bilasiz.

O'g'il bilan savol-javobimiz hamisha shu. Bir kuni uni politsiya bo'limidan ajratib olib keldim. Yana bir safar „Tez yordam“ kasalxonasidan topdim. Yana nasihat qildim, bo'lmadi. „Chetdan turib maslahat berish oson, o'zing bir

borib ko‘r, keyin bilasan“ degan vajni qildi. Bo‘pti, men ham bir borib ko‘ray, deb ahd qildim.

Bir kuni futbol o‘yiniga o‘g‘lim bilan yetaklashib bordik. O‘yin boshlanib ketdi. Maydondagi komandalar bilan zarracha ishim yo‘q. Kim-kimga to‘p kiritisa kiritaversin, menga nima. Stadionda o‘tirgan tomoshabinlarning qilig‘ini ko‘rib, kulgim qistaydi. Nima bo‘ldi-yu, bir payt darvozalardan biriga to‘p kirdi. Kirganini o‘z ko‘zim bilan ko‘rdim. Lekin sudya buni hisoblamadi. Oshkor adolatsizlik qildi, chidab turolmadim. „Sudya ko‘zoynak taqsin!“ deb qichqirdim. Boshqa odamlar ham qiy-chuv ko‘tarishdi. Shu payt yonimda o‘tirganlardan biri, „to‘p kirmovdi. Sudya haq“, deb qoldi. Men ham bo‘sh kelmadim. „To‘p kirgan edi. Sudya sotilgan ekan, hisoblamadi“, dedim. Tuppa-tuzuk kiyingan haligi odam menga qarab, „ko‘zing ko‘rmi, ho‘kiz, to‘p kirmovdi-ku“, deb qolsa bo‘ladimi. „O‘zing ho‘kiz ekansan, ahmoq“, dedim. Futbol o‘yiniga endi borishim, hali baland-pastini bilmasdim. Aslida seni birov haqorat qilsa, indamay turishing kerak ekan. Gap qaytarib chakki qilgan ekanman, boyagi odam „gurs“ etib burnimga bir musht tushirdi. „Gup“ etib ag‘darilib tushdim. Xayriyat, odamlar o‘rtaga tushib, ajratib qo‘yishdi, bo‘lmasa kunimni ko‘rar ekanman. Og‘iz-burnim qon, yerda dumalab yotibman, o‘g‘lim yonimga kirar, deb o‘ylovdim, qayoqda deysiz. „O‘g‘lim, bu nima ko‘rgilik?“ desam, „to‘xtab turing, dada, hozir gol bo‘ladi“, degan javobni qildi. Ro‘molchani qonagan burunga tiqib, zo‘rg‘a o‘rnimdan turdim.

Boyagi urgan to‘pini sudya hisoblamagan komandaga mehrim qo‘zib ketdi. O‘shaning o‘yinchisiga koptok tegsa, jazavam tutib, o‘tira olmaydigan bo‘lib qoldim. Xuddi maydonda yurgan odamdek, oyog‘imni siltab tashlayman. Ba‘zan esa oyog‘imni dast ko‘taraman-da, darvoza to‘rini teshib, to‘pni osmonga sputnik qilib chiqaradigan odamdek zarb bilan tepaman. Azbaroyi qizishib ketganimdan oldimda o‘tirgan odamning orqasiga qarab tepayotganimni sezmayman.

Sal hovurdan tushgach, undan kechirim so'radim. „Hechqisi yo'q, futbolda bo'ladigan gap, ana hozir gol bo'ladi, qara, qara“, dedi. Shu payt kimdir orqamga qarab bir tepdi. Zarbning zo'rligidan ko'zimdan o't chaqnab ketdi. Futbolchilik shunaqa bo'larkan, Sharofiddinbey. Shu tariqa bir-birimizni tepkilab o'tirgan edik, kutilmaganda bizning komanda darvozasiga to'p urishdi. Vijdonini yutgan sudya buni hisob qildi. Bunday nohaqlik oldida chidab turolmadim. „Sudya – latta!“ deb baqirdim. A'zoyi badanim titrab ketdi. Yonimda gaz suv sotadigan bir odam o'tirgan ekan, uning shishalarini olib, sudyaga otdim. Yaxshiyamki, qo'limga faqat shisha ilindi. O'sha paytda granat bo'lsa ham otib yuborardim. Birdan qiy-chuv boshlanib ketdi. Tomoshabinlar tarafma-taraf bo'lib, yoqalashib ketishdi. Odamlar juft-juft bo'lib, bir-birini sola boshladi. O'n yashar bir bolani topib, men ham tagimga bosib savalay ketdim. Bunaqada odam o'ldirish ham hech gap emas ekan. Yaxshiyamki bolapaqir: „Amaki, ikkovimiz bir tomondamiz-ku“, deb qoldi. Bolani endi tagimdan bo'shatgan edim, devdek bir odam menga chang solib, tagiga bosdi. Orqa-o'ngiga qaramay rosa do'pposlay ketdi. O'g'limni yordamga chaqiraman, qani endi qayrilib qarasa. U ham o'zi bilan o'zi ovora. Oxiri „politsiya!“ deb qichqirdim. Politsiyachilar ham janjalga aralashib ketishdi. Biri kaltak yeydi, biri uradi. „Ho'v birodar, sen tag'in meni bekorga urayotgan bo'lmagin, balki ikkovimiz ham bitta komanda tarafdoridirmiz“ degan edim, „boshqa odamni endi qayerdan topaman“, deganicha yana bir musht tushirdi. Qo'lidan zo'rg'a qochib qutuldim. Barzangi mendan ajrab qolgach, skameykalarni sindira ketdi.

Nihoyat, mushtlashuv to'xtab yana o'yin boshlandi. Odamlar qiy-chuv ko'tarib yubordi. Tomog'im xippa bo'g'ilgan ekan, baqirolmay qoldim. Yonimda o'tirgan odamning qo'lida tunuka quti ko'rinuvgi, men ham zo'r berib taqilatishga tushdim. Chinakam qiyomat shundan keyin bosh-

landi. Maydonda ikki o'yinchi yoqalashib ketdi. Iya biz jim o'tirarmidik? Yana tarafma-taraf bo'lib mushtlashdik. Al-lakim oyog'imdan ko'tarib, osmonga irg'itib yubordi. Ha-voga bir sapchiganimni bilaman, boshqasi esimda yo'q. Bir payt ko'zimni ochib qarasam, kasalxonada yotibman.

– Demak, bu jarohatlarni o'sha kuni olgan ekansiz-da? – so'radi Sharofiddinbey.

– Qayda deysiz. Komandamiz ertasi kuni yana o'ynadi. Bormay iloj qancha? Mening o'rnimda bo'lsangiz, siz ham albatta borardingiz... Ha... Uh... Oh... Voy biqinim... Og'ri-g'iga chidolmayapman.

Solmonbeyning qo'lidagi o'rog'liq narsa yerga tushdi. Engashib olarkan:

– Tunuka bilan shaqildoq olvoldim. Ovozim chiqmay qolsa, chalib o'tiraman, – dedi.

Avtobus to'xtadi. Hamma yog'i oq dokaga o'ralgan odam o'rnidan turdi.

– Xo'p, xayr Sharofiddinbey.

– Yo'l bo'lsin? Doktorgami?

– Yo'q, azizim, futbolga ketyapman... Uh... Ih... Voy oyo-g'im...

ASABIY ODAM

Azbaroyi tutaqib ketganidan qo'l-oyog'ini titroq bosgan nimjongina bir mo'ysafidni itarib-surib politsiya bo'limiga olib kirishdi.

– Manavi chol hammamizni haqorat qildi, komissar to'ra, darhol javobgarlikka torting.

Komissar eng oldinda turgan barzangidan so'radi:

– Nima deb haqorat qildi?

– Yomon so'zlar bilan haqorat qildi, komissar to'ra, otam rahmatlikka ham til tekkizdi. Padari buzrukvorimiz o'rtaga tushmaganlarida ham mayli edi...

Gapni cholning o'zi ilib ketdi:

– To'g'ri, haqorat qildim, ho'kizdan tarqagan ekansan, dedim. Mana, men bo'lgan voqeani gapirib beray, o'zingiz eshitib ko'ring. Taksida kelayotgan edim. Bu yigit Oltinbaqqol degan joyda mashinaga chiqdi. Taqsim maydoniga kelganda tushaman, deb qoldi. Buni ko'rib qonim qaynab ketdi. „Ho'v ho'kizdan tarqagan, hali yosh ekansan, kuch-quvvating joyida ekan, shu ikki qadam yerga mashinaga tushmasang o'lasanmi?“ deb aytdim. Bo'lgan gap shu. Mana ishonmasangiz o'zidan so'rang.

– Barzangi cholning gapini tasdiqladi.

– Bu yerda yigitning o'zi aybdor, lekin meni bekorga xafa qildi, – dedi o'ng tomonda turgan ikkinchi bir da'vogar.

Chol komissarning savolini kutib o'tirmay o'zi gap boshladi:

– Buniyam boplab so'kdim, ayb o'zida. Bu odam o'zi Taqsimda mashinaga o'tirdi. Bir nafasda ikkita sigaret chekib tashladi. Indamadim, yana bitta tutatdi. Miq etmadim. Mashinaning ichi tutunga to'lib ketdi. Oynani sal ochib qo'yaylik, nafas olib bo'lmayapti, desam, yo'q, havo sovuq, men shamollab qolaman, deydi-ya. Gapini eshitib g'azabim qaynadi. „Qanaqa eshaksan o'zing, ablah, shamollab qolishdan qo'rqadigan bo'lsang, nima uchun o'tirgan joyingda mo'rkondek ketma-ket tutun qaytarasan?“ dedim.

– Qariyaning gapi to'g'ri. Bunaqa betamiz odamlarning ta'zirini berib qo'yish kerak, – gapga aralashdi uchinchi da'vogar.

– Siz o'zingiz nima demoqchisiz? – so'radi komissar unga yuzlanib.

– Meniyam, afandim... yomon haqorat qildi...

– Qildim, qilaman ham... Bu kishi Galataroydan tak-siga chiqdi. Yetti tug'ib bir qolgan odamini topganday men-ga hasrat qila ketdi. Oilasi to'rt jon emish, ikki xonali uyda ijara turarmish. Xotini o'taketgan shallaqa emish. O'tgan yili

qizini uzatgan ekan, kuyovi noqobil chiqibdi. Xotini yana homilador bo'lgan ekan, qornini yorib bolani olishibdi. Endi yana bo'yida bo'lib qolganmish. Bola bo'lmaslikning yo'lini bilmaysizmi, deb mendan so'rab qoldi. Shu gapni eshitib tepa sochim tik bo'lib ketdi. „Ho'v afandim, bu qandoq bo'ldi, o'zing og'zida bitta tishi qolmagan ro'dapo chol bo'lsang, buning ustiga xotining ketma-ket tug'ib beraversa? Bu haqda sen emas, boshqalar o'ylashi kerak. O'zing qanaqa molfahm odamsan, uydagi gapni duch kelganga aytaverasanmi, nomard“, dedim.

– Juda boplabsan, sening o'rningda bo'lganimda men ham shundoq qilgan bo'lardim, – deb yubordi boshqa bir da'vogar.

– Xo'sh, sizga nima dedi? – uning o'zidan so'radi komissar.

– Bu odam meniham haqorat qildi, to'ram.

– Ha, bopladim, yana boplayman. O'zi Tepaboshida takisini to'xtatib chiqib oldi. Chiqdi-yu, pulemyotga o'xshab ketma-ket aksa ura boshladi. Chetga qarab ursa ham go'rga edi, lekin bu muttahaq naq betingizga poylab otadi-ya. Yana bir xapshu deb yuborgan edi, yuz-ko'zimni so'lakayi bilan chaplab tashladi. „Agar tumov bo'lgan bo'lsang, og'zingga ro'molcha tut yoki aksirayotganingda qo'ling bilan og'zingni bekitib tur. Odamning betiga qarab aksa urish qayoqdan chiqqan, itvachcha?“ – deb so'kib yubordim. Axir yo'li shundoq emasmi, komissar to'ra?

– Balli, otaxon, shunaqa bo'lishi kerak, gaping juda to'g'ri, – dedi uni quvvatlab yana bir da'vogar.

– Qani, o'zingiz nima demoqchisiz?

– Bu odam meniham kurakda turmaydigan so'zlar bilan haqorat qildi.

– Ha, tonmayman, hayvon deganim rost. Gap bundoq. Bu zang'ar Shishxonaga kelganda mashinani to'xtatdi. Pastga tushgach, nuqul cho'ntagini kovlaydi-yu, puldan darak yo'q. O'zingiz bilasiz, bu soatda ko'chada qatnov zo'r bo'

ladi. Orqamizda tramvaylar, avtobuslar, mashinalar turnaqator bo'lib ketdi. Politsiyachi bizga tezroq yur, deb hushtak chaladi, shofyorlar baqirib-chaqirishadi. Bu ho'kizning esa parvoyi falak. Hali shimining cho'ntagini kovlaydi, hali nimchasini. Anchadan keyin „mana-e, topdim“ deb ich cho'ntagidan yuz liralik qog'oz pul chiqarib bersa bo'ladimi?! Jon-ponim chiqib ketdi. „Taksiga o'tirgan odam darrov pulini tayyorlab qo'yishi kerak. Shuncha odamni yo'ldan qoldirish yaramaydi. Pulingni maydalab qo'ysang bo'lmasmidi, hayvon?!“ deb so'kib berdim.

Da'vogar bo'lib kelgan shu taksining shofyori ham uning yonini oldi:

– Barakalla, boplab ta'zirini berding, qoyilman.

Komissar darhol unga o'girildi.

– O'zingiz nega keldingiz?

– Men ham so'kish eshitdim.

– Ha, to'g'ri, buniyam eshak dedim. Nega deganda, u bita xotindan pulni olib, xo'p opajon, dedi, ikkinchisiga onajon deb murojaat qildi. Bir kishini amaki, yana birini tog'a deb chaqirdi. Yo'lovchilarning birini aka, birini uka deb rosa sayradi. Bir mo'ysafidni boy ota, deb kuzatib qoldi. Tishimni tishimga qo'yib ketaverdim. Oxiri men ham haqimni to'lab, mashinasidan tushayotgan edim, „xafa bo'lmay keting, ota“, deydi-ya. Bunisiga endi nima desa bo'ladi? „Ho', xumpar, men sening onangni ko'rmagan bo'lsam, xotining kimligini bilmasam, nega endi menga ota deysan? Mashinangga tushgan odam senga urug'-aymoq bo'lib ketaverar ekan-da, eshak!“ – deb aytdim.

– Shuncha yoshga kirib, Istanbul qanaqaligini bil-maysanmi o'zing? Mabodo senga bunaqa qo'pol, befarosat odamlar yoqmas ekan, ko'chaga chiqib nima qilasan? Uyingda tinch yotaversang bo'lmaydimi, esh...

Shu joyga kelganda komissar o'zini o'nglab oldi.

– Afandim!

KEYIN XURSAND BO'LASIZ

Bir-birini taniganiga uch kun bo'lmasdanoq turmush qurishga va'dalashib qo'yishibdi. Bo'lg'usi kelin durustgina oilaning qizi bo'lib, ota-onasi juda nozikta'b odamlar ekan. Shuning uchun qiz yigitga:

– Uyimizga borib, chol-kampirdan ham rozilik olmasang bo'lmaydi, – debdi.

Kuyov to'rani so'rasangiz, o'zi juda mo'min-qobil yigit, bir gapni ikki qilgisi kelmaydi, iloji boricha birovning ko'nglini ranjitmasam, deydi. Shunga ko'ra u:

– Juda soz, ertagayoq uyingga borib, otangdan to'yga ruxsat olaman, – deb qizni xotirjam qilibdi.

Qiz voqeani onasiga aytibdi. Onasi ham bor gapni oqizmay-tomizmay eriga yetkazibdi. Xullas, ikkovi ertasigayoq kuyov bolani kutadigan bo'lishibdi...

Ertasi kuni kechga yaqin eshik qoqib kuyov kelibdi. Izzat-hurmat bilan uni ichkari olishibdi. Hammalari birgalikda qahva ichishibdi, allavaqtgacha u yoq-bu yoqdan gaplashib o'tirishibdi. Ana gapiradi, mana gapiradi, deb chol-kampir rosa kutibdi, lekin yigit sira to'ydan og'iz ochmasmish. Buning ustiga ketishni ham o'ylasmish. Kech kirib, qorong'i tushibdi. Kechki ovqatni ham baham ko'rishibdi. Ketidan yana qahva ichishibdi. Bo'lg'usi kuyov hamon churq etmasmish. Og'iz poylash bilan vaqt allama-hal bo'libdi, yarim kechada mehmonni haydab bo'larmidi? Noiloj unga joy solib:

– Narigi xonaga o'ta qoling, marhamat, o'ringiz tayyor, – deyishibdi.

Bir vaqt ota bundoq qarasa, yigit qizning bilagidan ushlab, o'sha xonaga tortqilayotganmish. Cholning g'azabi qaynab:

– O'g'lim, bu nima qiliq? – debdi.

Yigit esa pinagini buzmay:

– Gap bor, ota, – deb javob qilibdi.

– Qanaqa gap?

– Gap bor, dedim, bo‘ldi-da, surishtirib nima qilasz, otaxon. Keyin xursand bo‘lasiz.

Ham gapirarmish, ham qizni zo‘r berib ichkariga tortarmish. Uning sirli gaplarini eshitib, chol-kampir indolmay qolibdi. Ikkovi boshlashib xonaga kirib ketishibdi.

– Qani, ko‘raylik-chi, nima gapi bor ekan, – deb chol-kampir mijja qoqmay tong ottirishibdi.

Uning birinchi katta ishi shu bo‘lgan ekan. Ehtimol, aynan shundoq bo‘lmagandir, lekin bizga yetib kelgani shu.

Xullas, ertasiga ertalab xonadan yana boshlashib chiqishibdi.

– Qani, nima gaping bor edi, ayta qol endi, – debdi yigitga qizning otasi ko‘zini yerga qadab.

– Bu yog‘idan xotirjam bo‘ling, otaxon, aslo g‘am yemang. Bir narsani bilmasak, biz gapirmaymiz. Gap bor, dedimmi, vassalom, qo‘yavering, keyin xursand bo‘lasiz.

Nonushtadan keyin „endi bizga ruxsat“ deb ketmoqchi bo‘lgan ekan, qiz uvvos tortib tizzasiga yopishibdi.

– Tur o‘rningdan, yig‘lama, bas qil. Keyin aytaman, gap bor, o‘zing xursand bo‘lasan, – deganicha etagini qutqarib ketibdi. Bechoralar nima gap ekan, deb rosa kutishibdi-yu, lekin uni qayta ko‘rish nasib bo‘lmabdi.

Biz tushgan qamoqxonaga shu odamning o‘zidan oldin sarguzashtlari yetib keldi.

Yana bir kuni u gazlama do‘koniga kiribdi-da, tokchada yotgan bir to‘p matoni ko‘rsatib:

– Manavini bir ko‘ray, – debdi.

Gazlamafurush xo‘p deb olib beribdi. U bo‘lsa matoni qo‘ltig‘iga qistirib, sekin eshikka qarab yuribdi. Molning egasi oldiniga hang-mang bo‘lib qolibdi, keyin uning mashinaga o‘tirayotganini ko‘rgach, yugurib borib qo‘liga yopishibdi. Yigit zarracha pinagini buzmay:

– Iya, birodar, nega qo‘limga yopishasan? Molingni yeb qo‘yamanmi? Nega olasan emish-a, tavba. Kerak bo‘lgandan keyin olaman-da. Ha, shundoq. Ko‘p hovliqma, sabr qil. Gap bor, – debdi.

Uning bosiq, qat‘iy gaplarini eshitgan do‘kondor nima qilishini bilmay qoladi, xullas, u yo molidan ajrab orqaga qaytadi, yoki „nima gap bo‘ldiykin?“ deganicha kalovlanib turadi. Ammo u aytgan gapning nimaligini hali hech kim bilmaydi, chunki bir marta qo‘lga tushirgan odamiga u ikkinchi qayta yo‘liqmaydi.

Bu yigitning og‘izdan og‘izga ko‘chib yuradigan hunarlari ko‘p, lekin hammasining yo‘li va usuli bir xil.

Bir kuni tramvayda konduktorni rosa boplab ketganini aytib berishdi. Toza miriqib kuldik. Voqea bunday bo‘lgan ekan.

Bir payt u tramvayga chiqibdi-da, to‘g‘ri konduktorning oldiga borib:

– Qani, bo‘yningdagi xaltani menga uzat! – debdi.

Konduktor hayron bo‘lib:

– Nega endi? – deb so‘rabdi.

– Obbo sen-ey, ber degandan keyin beravermaysanmi.

– Xo‘sh, nega berar ekanman?

– Tag‘in so‘raydi-ya. Bitta aytdim, bo‘ldi-da. Sen menga beravergin, gap bor, keyin xursand bo‘lasan.

Konduktor hayron bo‘lganicha bo‘ynidagi xaltani yechib beribdi. U ham pul to‘la xaltani olib, shoshilmay tramvaydan tushibdi, keyin bitta-bitta qadam tashlab ketaveribdi. Buni qarangi, na yugurarmish, na bir yoqqa qocharmish. Hammaning og‘zi ochilib qolibdi.

Ana shu odam oxiri qamoqqa tushdi. Chuvakkina bir kimsa ekan. O‘zi o‘ttiz beshlarda bo‘lsa ham, ko‘rgan odam yigirma beshlarga borgan, deydi. Ko‘zlari naq igna teshigidek, o‘zi mug‘ambir. Unchalik gapdon ham emas. Umumiy kamerada ikki kungacha ovozi chiqmay yurdi.

Kelganining uchinchi kuni hunarini ko‘rsatdi.

Mahbuslardan birini ko‘zining ostiga olib yurgan ekan, to‘g‘ri oldiga borib:

– Qani, menga ellik lira uzatvor-chi, – debdi.

– Nega beraman?

– Cho‘zaver, ishing bo‘lmasin.

– Negaligini bilsak bo‘ladimi?

– Tavba, negaligi bilan nima ishing bor. Ber degandan keyin beravermaysanmi, oshna. Qani, uzatavergin, gap bor, keyin xursand bo‘lasan.

U ham „nima gap bor ekan?“ deb qiziqib qolib, ellik lironi qo‘liga sanab beribdi.

Bu voqeadan o‘sha kuniyoq hamma xabardor bo‘ldi. Mahbuslar ham, soqchilar bilan qamoqxona boshlig‘i ham buni eshitib rosa kulishdi.

Qamaliganiga hali bir hafta bo‘lmagan edi, to‘satdan g‘o‘yib bo‘ldi. Qamoqdan qanday qochganini biz keyin eshitdik. Ma‘lum bo‘lishicha, kechga yaqin navbatda turgan soqchining oldiga borib:

– Qani, eshikni och! – debdi.

Gapni do‘ndirib gapirganga nima yetsin. Agar boshqa odam kelib shunaqa desa bormi, soqchi tumshug‘iga aylantirib bir tushirgan bo‘lardi. Lekin buning vajohatini ko‘rib:

– Ochsam nima bo‘ladi? – deb so‘rabdi.

– Ochgin, keyin ko‘rasan. Gap bor.

Soqchi kamera eshigini ochibdi.

– Mana endi bu yoqqa yur!

Soqchi uning ketidan tashqari hovliga chiqibdi.

– Endi bu darvozani och!

– Nimaga?

– Aytgan ishni qilaver, so‘rab nima qilasan. Ochaver, gap bor, keyin xursand bo‘lasan.

Soqchi darvozani ham ochib beribdi. U nima gap borligini sabrsizlik bilan kutayotgan soqchiga qo‘lini silkib hay-yu hayt deb jo‘nab qolibdi.

DA'VODAN KECHASIZMI?

Qahvaxonada kimdir birovni „sharaq“ etib tushirib qoldi. Gap-so'z bo'linib, o'yin to'xtadi. Hamma shapaloq ovozi kelgan stol tomonga o'girildi. Tarsaki yegan odam barvasta, yo'g'on-u, urgan odam cho'pdek ingichka, nimjon ekan. Yo'g'on odamning chap betiga tushib qolgan besh panja iziga qarab ham politsiya uni kim urganini bilib olishi mumkin.

Hamma, yo'g'on odam hozir o'sha qo'l ko'targan mijg'ovni tagiga bosib, itdek savalaydi, deb o'yladi. Ammo kutilgandek bo'lmadi.

– Javobgarlikka tortaman! – deb bo'kirdi yo'g'on odam. Birov bir nima demadi.

– Hammangiz ko'rdingiz-a, – dedi u yana o'tirganlarga qarab.

Shundan keyin u bo'yi yelkasidan kelmaydigan boyagi ingichkaga o'girilib:

– Qani, yur politsiyaga! – dedi.

Tarsaki urgan odam xira pashshani haydamoqchi bo'lgandek qo'lini siltab:

– Bor-e! – deb qo'ydi.

Yo'g'on lapanglab ko'chaga yugurdi.

Qahvaxonada o'tirgan odamlar yana o'yinga sho'ng'ib ketishdi.

Oradan sal o'tgach, boyagi yo'g'on odam yonida bir politsiyachi bilan kirib keldi-da, ingichkani ko'rsatib:

– Mana shu, meni urgan! – dedi. Keyin o'tirganlarni ko'rsatdi. – Bular guvoh!

Politsiyachi qo'shni stolda o'tirgan to'rt kishini ingichkaning yoniga qo'shib, idorasiga haydab ketdi.

Politsiya bo'limiga kirgach, yo'g'on odam haliyam lavlagidek qizarib turgan chap betini ko'rsatib:

– Manavi odamni javobgarlikka torting, komissar to'ra, meni urdi. Bular ham guvoh, – dedi.

Komissar urgan bilan kaltak yeganning, shuningdek to'rt-tala guvohning kimligini surishtirib, yozuv mashinkasida qog'ozga tushirtirdi.

Da'vogar aybdor bilan tanish emasligini aytdi.

– Bizlar hech nima ko'rganimiz yo'q, – deyishdi guvohlar.

– Shapaloq ovozi ham eshitmadingizmi? – so'radi ular-ga qarab yo'g'on odam.

Guvohlarning to'rttoviyam „bizlar hech nima ko'rganimiz ham, eshitganimiz ham yo'q“ deb turib olishdi.

Shu orada ingichka odamning o'zi:

– Men tonmayman, bu kishini urganim rost, bo'ynimga olaman, – deb yubordi.

– Xo'sh, nimaga urdingiz? – dedi unga qarab komissar. – Orangizda biror gap o'tganmi? Yoki bu odam sizni haqorat qildimi?

– Nima gap o'tardi, men bu odamni umuman tanimayman.

– Bo'lmasa nega urdingiz?

– Gap bundoq, – dedi ingichka. – Kecha kechqurun to'g'ri ishdan chiqib uyga keldim. Uyda chiroq yo'q ekan, o'chirib ketishibdi. Pulini to'lamagan edik. Qorong'ida o'tirdik. Tuni bilan mijja qoqmadim. Bir yoqda onam kasal, ikki yildan beri oshqozoni og'riydi. Boyoqishning ko'rmagan azobi qolmadi. Buni qarangki, doktor yozib bergan dorini ichsa, og'rig'i bosiladi. Lekin dori topish osonmi hozir?

Ertalab o'rnimdan tursam, chap tomonim qaqshab og'ri-yapti. Uydagi derazaning oynasi singaniga uch oy bo'ldi, hali qo'ydirolmayman. Oyna yo'q. O'rniga choyshab tutib qo'ygan edim, baribir bo'lmadi. G'uvillab shamol kiradi, uy sovuq. Chap tomonim shamollabdi. O'rnimdan turib, ke-chirasiz, eshikka chiqdim. Suv to'xtab qolibdi. Tashqarida jala quyib tursa-yu, uyingizda suv bo'lmasa qiziq tuyular-kan. Hammamiz dir-dir titraymiz. Ko'mirga order berish-maganidan ozroq o'tin oluvdik, u ham tugabdi. Mana endi o'tinga ham zormiz. Lekin bizga yo'l bo'lsin.

Har kuni ishga ketish oldidan gazetalarni bir o'qib chiqaman. Qani, bugun nima gaplar bor ekan, deb gazetalarni qo'lga oldim. „Go'zallik musobaqasi“, „Galatasaroy“ komandasi chempion bo'ldi“, „Uch yuz tonna qahva nima bo'ladi?“, „Obidin daver“ kemasi turgan joyida chiridi“, degan narsalar bilan to'libdi gazeta. Xunobim oshib ketdi. O'rnimdan sakrab turib, ko'chaga otildim. Yugurib chiqsam, eshigimizning oldida sud xodimi bilan uy egasining advokati kelib turishgan ekan. Ijara haqini to'lamaganim uchun uyning egasi meni sudga beribdi. Uyimni tintuv qilib, musodaraga arziydigan biror nima topisholmadi. Ochig'ini aytsam, bunaqa ro'zg'oringda biror arzigulik buyum bo'lmasa xijolatda qolarkansan.

Shu payt advokat tushmagur:

– Manavi divanni opketamiz! – deb qoldi.

U boyoqish divanimizga yopishgan edi, qo'lga eski ishton, uvada ko'rpa, har xil latta-puttalar chiqdi, tagidan yog'och qutilar ko'rindi.

– Iya, bu yoqda radiopriyomnik bor ekan-ku! – dedi u divandan voz kechib.

Shu dahmazani olib ketishsa, ming marta rozi bo'lardim. Jonivor bir yilda o'n oy remontda yotadi-ya. Topgan pulim shunga ketadi. Agar shu baloyi azimdan qutulsam...

Endi ketay deb turgan edim, xotinim:

– Qizimiz maktabga bormayapti, – deb qoldi.

– Nega?

– Fizkultura muallimi oq rezinkali botinka bilan shalvor olib kelmasang, darsga kirmaysan, debdi.

– Ha, bir gap bo'lar.

– Ovqatga yog' yo'q.

Yugurib ko'chaga chiqdim. Ishga kech qoldim, endi bugun bormay qo'ya qolay dedim o'zimga o'zim. Buning ustiga tinmay jala quyib turibdi. Ilgari biz tomonlarga tramvay yurardi, hozir u ham yo'q. Avtobusni poylasang, yarim soatda zo'rg'a keladi. Koshkiydi kutganga yarasha chiqolsang. Hamisha

tirband bo'ladi. Taksini gapirmagan ma'qul. Ko'chadan mashinalar g'ir-g'ir o'tib turibdi-yu bittasiyam to'xtamaydi-ya. Oyoqdan suv o'tib keddi, rosa ividim. Nima qilarimni bilmay gangib turgan edim, bir o'spirin oldimga kelib:

– Kechirasiz, tog'a, – deb qoldi.

Soat-poaat so'rasa kerak, deb o'yladim.

– Kechagi o'yin nima bo'ldi, eshitmadingizmi?

– Tavba... – Indamay jo'nab qoldim. O'sha o'rtadagi qahvaxonaga kirdim. Ust-boshim jiqqa ho'l, choy so'radim. Men urgan shu odam yonimda gazeta o'qib o'tirgan ekan. „Ahvol chatoq, bu yog'i nima bo'ldi“ deb o'zimcha xayol surib o'tirgan edim, bu kishi „yurtimiz jahannamga ketyapti!“ deganicha qo'lidagi gazetani irg'itib yubordi. Bu odam ham menga o'xshab bir nimadan kuygan bo'lsa kerak, deb o'yladim. Ikkovimiz hasratlashsak, zora yengil tortarmiz, degan maqsadda unga qarab:

– Tinchlikmi, beyafandim? So'raganning aybi yo'q, nega xafa bo'lyapsiz? – deb so'radim.

– Xafa bo'lish ham gapmi, qonim qaynab ketdi, – dedi u hamon tutaqib. – Mamlakat bedarvoza bo'lib qoldi. Sudyalar nima istasa shuni qiladi. Buni qarang, kechagi futbol o'yinida sudya yana tarafkashlik qilibdi.

Shundan keyin nima bo'lganini bilmayman. O'zimni tutolmay qoldim, komissarbey. Umrimda bironni chertgan insonmasman. Biron elektr tugmachasini bosib, badanimga tok yuborgandek bo'lib ketdi. O'ng qo'lim o'zidan o'zi shartta ko'tarilib, shu odamning basharasiga shapaloq tushirdim. Urganimni bo'ynimga olaman. Lekin men qasddan urganim yo'q. O'zimni ushlolmay qoldim. Urub bo'lganimdan keyin o'zimga keldim, oldiniga bu odam hozir meni dabdala qiladi, deb qo'rqdim. Ammo bo'lar ish bo'lgan edi. Parvardigori olam o'sha paytda Zol o'g'li Rustam pahlavonning butun kuchini menga berdimi deyman, har holda bu kishini qarsillatib urib qolganim rost.

Komissar kaltak yegan yo'g'on odamga bir qarab, tishlarini g'ijirlatib qo'ydi. Keyin o'rnidan qo'zg'almoqchi bo'ldi-yu, lekin o'ng qo'lining kaftini ishqalab qo'ya qoldi. So'ngra yo'g'on odam turgan tomonga o'girilib:

– Qani, da'vodan kecha qoling! – deb buyurdi.

– Yo'q, aslo kechmayman! – javob berdi tarsaki yegan odam. Komissar tutaqib ketdi, keyin yozuv mashinkasining oldida o'tirgan politsiyachiga o'girildi.

– Qani, yoz bo'lmasa. Da'vogar mamlakatimiz jahan-namga ketyapti, debdi. Bu bilan u yurtimizning oliy manfaatlariga hamda hukumatimizning ma'naviy obro'siga...

– Xo'sh, da'vodan kechasizmi? – so'radi u yana yo'g'on odamdan.

Tarsaki yegan odam besh panjaning izi tushib qolgan chap betini silab turib dedi:

– Xo'p bo'ladi, afandim, da'vodan kechdim.

HAZILKASH ODAMLAR

„Hayot – achchiq narsa, janoblar. Hayot – tikanli yo'l. Hayot...“ Ana shunaqa chuqur ma'noli gaplar yozilgan uchta daftarim bor. Bularning hammasi hayot falsafasi bilan to'la.

„Hayot – bu turgan-bitgani uqubat demakdir. Hayot – bu zo'r mashaqqat bilan chiqiladigan cho'qqi demakdir. Hayot – bu orqasiga qaytmaydigan oqar suv demakdir“. So'nggi daftarimning so'nggi betiga „Hayot nima o'zi?“ deb yozib qo'ydim.

Boya aytganimday, hayot – bu achchiq narsa, janoblar. Ishonmasangiz, mana men hikoya qilib beray, siz hukm chiqaring.

Men ishsiz laqillab yurgan edim. Yo'q, otamdan katta meros qolgani uchun emas, balki qidiraverib ish topolmaganim uchun bekor edim. Bu yog'ini so'rasangiz, ikki kundan beri faqat havo va suv bilan tirikman. Shu ahvolda

bir bog'ga kirib, hayot haqida chuqur fikr qilib o'tiribman. Yonimda o'tirgan odam qo'lidagi gazetasini o'qib bo'lib, sakkiz buklab cho'ntagiga tiqayotgan edi, so'rab oldim. Darrov e'lonlar bo'limiga ko'z yugurtirdim. Bir joyda erkak va ayollar ishga qabul qilinishi haqidagi e'lonni o'qidim-u, badanimga qon yugurdi. Gazetani egasiga qaytarib berdim. Vaqtni boy bermaslik kerak. Oxirgi kuchimni to'plab o'rnimdan turdim-da, o'sha ko'rsatilgan joyni izlab ketdim. Mana, shaharning savdo mahkamalari joylashgan katta binoning beshinchi qavati. Har xil ta'nalardan qo'rqib liftga o'tirmay, zinadan chiqdim. Gazetada ko'rsatilgan 18-xona oldida turibman. Odam ko'p. Xonaga kirib ketayotganlarning yuzida allaqanday umid porlasa, ichkaridan qaytib chiqayotganlar g'amgin, g'arib ko'rinadi.

Ish va'da qilgan odamlarning oldiga tetik kiray, degan maqsadda ancha nafasimni rostlab oldim. Keyin men ham boshqalarga o'xshab xonaga kirdim.

– Gazetadagi e'lonni o'qigan edim, – deya murojaat qildim ko'rinishidan eshikbonga o'xshagan odamga.

– Ichkari kirib kutib tur, – dedi u.

Xonada qator kursilar qo'yilgan. Bularda olti ayol va sakkiz erkak o'tiribdi, menga o'xshagan to'rt kishi tikka turibdi. Ko'rinishi o'zimga o'xshagan bir odamdan so'radim:

– O'zi nima ish ekan?

– Bilolmadim, navbat bilan ichkariga chaqirib turishibdi. Biri o'n minutda, biri yarim soatda bo'shab chiqyapti. Nima uchundir hammasi ham ichkaridan darg'azab bo'lib chiqyapti.

Aytgani keldi. Shu payt eshik taraqlab ochildi-yu, ichkaridan basharasi lavlagidek qizarib ketgan semiz bir odam so'kinib chiqdi. U: „Behayolar, ifloslar!“ deganicha yugurib tashqariga chiqib ketdi.

– Har holda ishga qabul qilishmagani uchun jahli chiqqan bo'lsa kerak, – deb o'zimni yupatdim.

Yonimda turgan odam gapimga qo'shildi:

– Shunaqaga o‘xshaydi, hammasining xunobi oshib chiqyapti.

– Navbat kimniki? – deb so‘radi eshikbon.

Yuziga qalin upa surgan, olifta bir juvon „meniki“ dedi-yu, lapanglab xonaga kirib ketdi.

– Qiziq, ichkarida nima qilishayotgan ekan? – so‘radim navbat kutib turganlarning biridan.

– Menimcha, imtihon qilishayotgan bo‘lsa kerak, – deb javob berdi u.

Maktabda o‘qigan narsalarimni eslay boshladim. Bu yer savdo mahkamasi bo‘lganligi uchun birinchi navbatda arifmetikadan so‘rashsa kerak. Miyamda karra jadvalni qaytarib chiqdim. Shundan keyin protsent chiqarish va narx chegirish yo‘llarini o‘ylab turgan edim, ichkaridan boyagi ayolning baqirgani eshilib qoldi. Shu payt eshik qarsillab ochildi-yu, u tashqariga otilib chiqdi.

– Nomussizlar! Vijdonsizlar! – deya baqirganicha u ham xonadan yugurib chiqib ketdi.

Ochiq eshikdan bir gala erkak kishining qiy-chuvi qu-loqqa chalindi.

– Nima gap o‘zi, bu juvonga biror narsa qilishdimi? – deb yonimdagidan so‘radim.

– Unaqa bo‘lmasa kerak. Agar biror gap bo‘lganida bunchalik dodlab chiqmasdi. Ehtimol, qiyinroq bir savol tushgandir.

– Shunday bo‘lsa kerak, – gapga aralashdi tikka turgan yigit, – javobga kuchi yetmagan ko‘rinadi.

– Erkak kishilar ham dodlab chiqyapti-ku, birodar, – unga qarab dedi boshqa biri.

– Kimning navbati?

Hozirgina gapga aralashgan yigit kirib ketdi.

Men yana protsent chiqarish yo‘llarini eslab turgan edim, „bu qanday bema‘nilik!“ deganicha u ham yugurib tashqariga chiqib ketdi.

– Bu yigit ham boyagi juvonga o‘xshab javob berolmabdi-da! – dedi yonimdagi odam.

Mendan keyin yana to‘rt kishi navbatga turgan. Keluvchilarning keti ko‘rinmaydi. Navbati bilan ichkari kirganlar esa terlab-pishgan, qizarib-bo‘zargan holda chiqib ketmoqda. Men bitta-bitta odam qo‘yib, darrov ko‘zdan g‘oyib bo‘lib qolayotgan eshikbonni to‘xtatib so‘radim:

– Kirgan odamlarni ichkarida nima qilishyapti?

U tirjayib turib:

– Sinab ko‘rishyapti! – dedi-da, yana ko‘zdan g‘oyib bo‘ldi.

Mana, navbat kutib turgan bir kampir bilan chol ham dod solib chiqib ketdi. Qiya ochilgan eshikdan yana qiyqiriq, kulgi eshitildi. Ish istab kelganlar so‘kinib, faryod chekib tashqariga chiqib ketavergan sari ichimda suyunaman: nega deganda, raqiblarim kamayib, mening umidim oshib boryapti. Lekin bir tomondan, ichkarida nima voqea ro‘y berayotganligini o‘ylab, vujudimni qaltiroq bosadi. To‘g‘risini aytsam, agar ikki kundan buyon och bo‘lmaganimda, hozir shu ishini ham, shu sinov-pinovini ham tashlab ketardim. Zora omadim kelib, ishga olinsam, degan umiddaman. Navbatda mendan oldin turgan chol kishi ichkaridan rangi oppoq oqarib chiqdi. Boshqalarga o‘xshab baqirgani unda majol qolmagan edi.

– Nima gap ekan o‘zi, amaki? – deb so‘radim.

– E so‘ramay qo‘ya qol, o‘zing ko‘rsang bilasan! – zo‘rg‘a javob berdi u. – Kimning navbati?

Miq etmadim.

– Sizning navbatingiz-ku, – dedi menga qarab orqamda turgan odam.

– Siz kira qoling, men uncha shoshilayotganim yo‘q, – dedim.

– Yo‘q, yo‘q, birovning navbati menga kerak emas! – e‘tiroz bildirdi u. Tramvay yo avtobus bo‘lganida bu xumpar navbatini kutmay urib-surib chiqib olgan bo‘lardi-ya.

– Iltimos qilaman, kira qoling.

– Yo‘q, oldin siz kiring.

Eshikbon orqamdan itarib yubordi-da, eshikni yopdi.

„E, parvardigor, ishqilib, o‘zing sharmanda qilma! O‘zingga ishonдим! Ishqilib, shu tajriba yo imtihondan bir qutulib olay, men ham bu dunyoda ishlik bo‘lay!“ – deya ko‘nglimdan o‘tkazdim.

Qornim ochligidanmi, nihoyatda qo‘rqib ketganimdanmi, har holda, ko‘zim tinib ketyapti. Olazarak bo‘lib atrofimga qaradim: yaxshi jihozlangan, katta xona. Bu yerda o‘tirgan odamlar qiyqiriq otib kulishadi, kulgidan namlangan ko‘zlarini dam-badam artib turishadi. Sanagani imkon bo‘lmadi-yu, lekin o‘n chog‘lik odam bor. Ular bu yerdan hozirgina chiqib ketgan odamni masxara qilib kulishayotgan ekan. Hammasi ham qorin qo‘ygan, semiz bo‘lgani uchun kulgi ularga yarashar ekan. Tepasi toshoynali stol oldida o‘tirgan odamga yaqinlashdim.

– Hazilga tobingiz qalay? – Uning menga bergan birinchi savoli shu bo‘ldi.

Ishga olinish uchun nima deb javob berish kerak? Xonadagilarga birma-bir qarab chiqdim. Ularning orasida menga o‘xshagani yo‘q. Hammasi ham yaxshi kiyingan, hammasi ham semiz, hammasining ham yuzidan qon chak-chak tomib turibdi. „Har holda bular hazilni yoqtirsa kerak“ degan xayolda zo‘raki kulgi bilan javob berdim:

– Hazilni juda yoqtiraman. Hazil desa o‘lib qolaman! Axir kim hazilni sevmaydi deysiz!

– Agar hazilni yaxshi ko‘rsang, mana shu kursiga o‘tir, dedi u. Qornim ochligidan oyoqda turishga majol qolmagan bo‘lsa ham, hurmatini joyiga qo‘yish uchun:

– Zarari yo‘q, afandim, men tikka turaveraman, – deya javob qildim.

– Yo‘q, bunisi ketmaydi. Agar hazilni ma‘qul ko‘rsang, shu kursiga o‘tirasan.

– Kursida nima gap bo‘lardi, – dedim-u gap qaytarmaslik uchun o‘tirdim.

– Rahmat, afandim.

– Yo‘q, yo‘q, u yerga emas, manavi kursiga o‘tir.

Aytganini qildim.

– Bu yerdagi odamlarning hammasi hazilkash odamlar.

– Juda soz, afandim. Kaminangiz ham hazilni juda yaxshi ko‘radi.

U men bilan u-bu haqda gaplasha boshladi. Bergan savollariga odob bilan javob qaytarib turdim. Javob beryapman-u, a‘zoyi badanim g‘alati bo‘lib ketyapti. Rostini ayt-sam, tagim qizib ketyapti. Xuddi laxcha cho‘g‘ ustida o‘tirganga o‘xshayman. Yo Rabbiy, nima gap o‘zi? Nima balo, kasal bo‘lib qoldimmi? Undog‘ desam, isitma degani odamning tagidan emas, boshidan chiqadi-ku... Nima qilarimni bilmay, to‘lg‘anaman, o‘zimni goh u yonga, goh bu yonga tashlayman, lekin foydasi yo‘q. Men o‘tirgan joyimda besaranjom bo‘lgan sari ular xandon otib kulishadi. Ilojim qancha, ular kulgini yaxshi ko‘radigan odamlar, qolaversa, mening ahvolimdan kulmay bo‘ladimi o‘zi... O‘zim ne azobdaman-u, lekin ular bilan birga kulishaman. Tagimdan shunday o‘t purkayaptiki, go‘yo hozir jizg‘anak bo‘lib kuyib ketadiganga o‘xshayman.

– Sizga nima, bo‘ldi, tobingiz qochdimi? – so‘radi qarshimda o‘tirgan odam.

Betobman desam, ishga olishmasligi mumkin.

– Yo‘q, sog‘lig‘im joyida, juda salomatman.

– Nega bo‘lmasa besaranjom ko‘rinasiz?

Ularning qiyqirig‘i avjga chiqqan.

– Kechirasiz, chipqon chiqqan edi, – dedim shu bahonani topib. – Ruxsat etsangiz, men tikka tursam.

Ular kulgidan ichaklari uziladiganday. Mening esa a‘zoyi badanimdan duv-duv ter to‘kiladi. Peshanam jiqqa ho‘l bo‘lib ketgan ekan, uni artib o‘rnimdan turdim. Bu yerda maymun o‘ynatyapmanmi, nega kulasizlar, deya ularga baqirib bermoqchi bo‘ldim-u, lekin o‘zimni bosib qoldim: har holda

bular hazilkash odamlar, shundoq deydigan bo'lsam, meni ishga olmasliklari mumkin.

Stol oldida o'tirgan kishi tugmachani bosib, xizmatkorni chaqirdi:

– Afandimga bir stakan choy keltir!

Buni eshitib suyunib ketdim. Bundan chiqdi, men ularga ma'qul tushibman-da. Ochlikdan qornim g'ulduraydi. Issiq choy ichsam ehtimol bosilar.

Xizmatkor bir stakan choy keltirdi. Men tikka turganimcha qo'lidagi stakanni olib, ichiga ikki chaqmoq qand tashlagan edim, choy birdan vishillab ko'pirib ketdi. Qo'rqib ketganimdan jon holatda stakanni otib yubordim. Kiyim-boshim ko'pikka belandi, qo'llarim kuydi. Ayb menda bo'lsa kerak, qo'polligim qursin. Xonadagilar endi qahqaha otib kulishardi.

– Anavi eshikni ochib, ichkari kirsang, stol ustida bita papka yotibdi. Shuni bu yoqqa olib chiq, – deb menga buyurdi ulardan biri. U aytgan eshikni ochib, qaragan edim, ko'zimga hech narsa ko'rinmadi. Endi nima qilay, yo'q desam, buyruqni bajarmagan bo'laman-ku.

– Hech narsa yo'q-ku, afandim, – dedim qo'rqa-pisa.

– Ha, mayli, bu yoqda ekan, kelaver, – dedi u hamon o'zini kulgidan to'xtata olmay.

Aytganini qilib, oldiga kelgan edim, yana buyurdi:

– Eshikni ochib kelibsang, bor, yopib qo'y!

Eshikni yopib keldim. Endi boshqa kishi meni savolga tuta boshladi. Lekin javobni o'rniga qo'yolmay qoldim – birdan aksa boshlansa bo'ladimi. Hech to'xtamay aksa uraman-a.

– Otingiz nima?

– Otim... Ap-ap-apshu... Meh-meh-ap-ap... apshu... Mehmed.

Ular qiyqirib kulishadi. Menga nima balo bo'ldi ekan-a? Qirq yoshga kirib, endi ish topay deb turganimda yo tagim alanga oladi, yo qo'pollik qilib choy to'kaman, yo bo'lmasa aksa tutadi-ya!

– Necha yoshdasiz?

– Qir... qir... apshu! Qirq birda! Apshu!

Kulgidan o‘layozishdi.

Bittasining rahmi kelib:

– Borib anavi jo‘mrakdan yuzingni yuvib kel, – dedi.

Jo‘mrakda yuzimni yuvib oldim-u, lekin baribir o‘zimga kelolmadim. Bu gal nima uchundir ko‘zim yoshlana boshladi. Ko‘zim yoshlanyapti emas, to‘g‘ridan to‘g‘ri ho‘ng-ho‘ng yig‘layapman. Hayronman, hech bunaqa bo‘lmagan edim. Qornim ochganidan bo‘lsa kerak, deb ham o‘yladim. „Bo‘ldi endi, bularning oldida rosa sharmandam chiqdi. Bir yerda tinch o‘tirolmaydigan, dam aksa urib, dam ko‘z yoshi oqizadigan bunaqa lapashang odamni ishga olisharmidi“ degan xayol miyamdan ketmaydi.

– Nega yig‘layapsiz?

– Menmi? O‘zim, shunday... Onam rahmatlik...

Qiyqirib kulishdi. Xudoyo tavba, o‘zim ham rosa yig‘layapman-a. Bittasi o‘rnidan turib shkafdan shishachada allanima oldi:

– Mana bundan ozgina hidlang, dimog‘ingiz ochiladi.

Kaftimga quygan narsasidan hidlab, chuqur nafas oldim. Asabni yuapatadigan narsaga o‘xshaydi. Uh, dimog‘im sal ochildi-ya. Bugun o‘zi menga bir balo bo‘lganga o‘xshaydi. Buni qarang, endi hiqichoq tutsa bo‘ladimi. Hiq-hiq-hiq... Bular meni jinni deb o‘ylashsa kerak... Ha-da, dam yig‘lasam, dam aksirsam, dam hiqillab tursam. Meni haydab chiqarishmaganlariga hayronman.

– Ilgari nima ish qilardingiz?

Javobga yo‘l bo‘lsin!

– Ilgari... Hiq... bo‘... hiq... bo‘yoqchilik... hiq...

– Bo‘ldi-bo‘ldi, bas qil! – deya qotib-qotib kulishadi.

– Manavi shkafni och!

Shkafni ochganimni bilaman, bir narsa zambarak otilganday gumburlab berdi. Qo‘rqib ketganimdan yerga ag‘anab

tushdim. Omad yurishmasa, shunaqa bo'larkan-da. Mana endi, ishdan ham quruq qoldim.

Xonadagi odamlarning ichida bittasi juda ham so'laqmon ekan, o'sha stol ustidagi changni men tomonga puflab yubordi. Keyin qiqirlab mendan so'radi:

– Nega hadeb qashinaverasiz?

– Xudo haqqi, iflos emasman, kecha hammomga tushgan edim, lekin nima uchundir etim qichishib ketyapti.

Nima balo, burgami desam, hech burgaga o'xshamaydi, axir burga odamning bir joyini qichitadi-ku. Mening esa hamma yog'im qichishib ketyapti. Ularning keksarog'i savol berdi:

– Ma'lumotingiz qanday?

– Universitetning adabiyot fakultetini tamomlaganman.

U qulog'ini og'zimga yaqin keltirib aytdi:

– Qattiqroq gapiring, qulog'im og'irroq.

Qulog'i og'ir kishilar tutadigan asbobi bor ekan. Qirtqirt qashinib turib, javob berdim:

– Adabiyot fakultetini...

– A?

Lablarimni qulog'idagi asbobga qo'yib, „adabiyot“ deganimni bilaman, birdan asbobdan suv otilib chiqsa bo'ladimi. Esankiraganimdan tappa yerga yiqildim. Bir tomondan qornim tatalab ketyapti.

Ular ham yerda dumalab-dumalab kulishadi. Tutqanog'i tutgan odamday ancha vaqtgacha yerda tipirchilab yotgach, o'rinlaridan turishdi. Kulgi to'xtadi. Hammasi jiddiy. Hazil tugagan ko'rinadi.

– Ofarin senga, – menga qarab dedi ulardan biri, – sinovga yaxshi chidading. Sendan oldin qirtqacha odam keldi, lekin bittasi ham oxirigacha turish berolmadi. Hatto birinchi sinovda ham qochib ketganlar bo'ldi.

– Tushunmadim, beyafandim, men qanday sinovga chidadim?

– Amerikada hazil uchun qo‘llanadigan dorilar ishlab chiqaradigan fabrika bor. O‘sha fabrika bizga ba‘zi bir dorilarni yuborgan edi.

– Xo‘sh?

– Bu dorilarning ba‘zilari xatarli bo‘ladi. Shuning uchun ularni oldin sinab ko‘rmoqchi bo‘lgan edik.

Keyin o‘zaro gaplashib ketishdi:

– Amerikada shunaqa mollar sotiladigan o‘n mingta magazin bor ekan.

– To‘g‘ri... yiliga yigirma million dollardan ko‘proqqa mol chiqarisharkan.

– Fabrika bizga ellik xil dori taklif etyapti.

– Boshqa xillaridan ham olaveraylik. Katta pul ishlab olamiz. Nega deganda, xalqimiz amerikaliklarga qaraganda ko‘proq hazilkash. Biz hazilni yaxshi ko‘radigan odamlarmiz.

Ularning keksarog‘i sekretarga o‘xshagan bir kishiga buyurdi:

– Qani, yoz bo‘lmasa. Tagni qizdiradigan plastinkadan ikki ming dona, qichitqi poroshogidan o‘n ming quti, hiqichoq qo‘zg‘atadigan atirdan besh yuz quti, karlarning asbobidan besh million dona, ko‘zni achishtiradigan suvdan yigirma ming shisha, ko‘piradigan qanddan besh tonna, paq-paq pistondan o‘ttiz ming quti. Hammasini yozib yubor, darrov jo‘natishsin.

Meni maqtashganiga qaraganda ishga olingan ko‘ri-naman. Lekin to‘g‘risini aytsam, nima qilishga hayronman. Ular gap bilan bo‘lib meni unutib qo‘yishdi.

– Beyafandim, – dedim men bilan ko‘proq muloqot qilgan kishiga qarab, – ishga olindimmi endi?

– Iya, seni esdan chiqarib qo‘yibmiz-ku, – dedi u. – Ha, ish qidirib kelganlarning ichida eng chidamligi sen bo‘lding. Seni ishga qabul qildik.

Keyin u sekretariga o‘girildi:

— Buxgalterga ayt, bu kishiga kassadan ikki yarim lira olib bersin. Yana menga qarab qo‘shib qo‘ydi:

— Bizning shirkatimiz har oyda Amerikadan shunaqa dorilar olib turadi. Siz har oyning uchinchi kuni kelib tursangiz bo‘ladi. Yangi olgan dorilarimizni sinab berasiz, ikki yarim lira xizmat haqingizni olaverasiz. Yoddan chiqarmang, har oyning uchinchi kuni.

Hi-hilab kuldim. U ham tirjaydi.

— Juda hazilkash odam ekansiz. Men ham hazilni yaxshi ko‘raman.

Men kulyapman. U kulyapti.

Ochlik azobidan oyoqda zo‘rg‘a turgan bo‘lsam ham, bor kuchimni yig‘ib bachchag‘arning qoq burniga bir musht tushirgan edim, orqasi bilan ag‘darilib tushdi. Burni qonab ketdi. Boshqalari esankirab qoldi.

— Siz bilan sal hazillashmoqchi edim, — dedim unga qarab.

— Hey, haziling qursin... Bunaqa hazilni odam emas, eshak qiladi.

— Nima qilay, axir biz kambag‘al bo‘lsak. Qo‘limizga tegadigan ikki yarim liraga hazil dorilaringizni olishga qurbimiz yetmaydi. Axir sizdek odamga hazil qilmay bo‘ladimi? Bizning dorisiz hazilimiz shunaqa bo‘ladi.

Eshikni shartta yopib chiqib ketdim. To‘g‘ri uyga bordim. Hayot falsafasi bilan to‘lgan daftarimni ochib, uning so‘nggi betiga shu so‘zlarni yozib qo‘ydim: „Hayot — bu achchiq hazil demakdir!“

BIZ U YERGA BORMAYMIZ!

Inejiq qishlog‘iga uch otliq kirib keldi. Bularning ikkitasi oddiy jandarm, uchinchisi esa o‘nboshi edi.

Jandarmlar o‘zaro chaqchaqlashib ketayotgan bo‘lsa ham, o‘nboshining avzoyi buzuq edi. U xuddi saltanat tax-

tiga mingan odamdek oldinda savlat to'kib borardi. Qishloq yo'lining boshiga chiqqach, o'nboshi otning tizginini tortdi. Shu atrofdagi ko'lmak yonida uymalashib yurgan bolalar bularni ko'rib, tiraqaylab qochishdi. Chillakdek ozg'in bir bola kajava qornini lapanglatib qahvaxonaga qarab chopdi. Qahvaxonaga halloslaganicha kirib bordi-da:

– Kamandir kelyapti, kamandir! – deb baqirdi.

Qahvaxonaga jimlik cho'kdi. Hamma eshikka qaradi.

Bola yana iziga qaytmoqchi bo'lib tashqari chiqqan edi, boyagi otliqlar otdan tushayotganini ko'rdi. Jandarlardan bittasi otlarni jilovidan olib, ustunga qantarib bog'ladi. Keyin uchovi ham birin-ketin ichkariga kirdi. Qahvaxonada o'tirgan odamlar qimir etmadi. Yolg'iz qahvaxonachining o'zi turgan joyida bir qimirlab qo'ydi:

– Kelinglar, o'nboshim, xush ko'rdik.

Jandarm boshlig'i unga qayrilib ham qaramadi, uzun skameykalarda, poxoldan to'qilgan kursilarda tizilishib o'tirgan dehqonlarga nazar tashladi, hammani bir-bir ko'zdan kechirib chiqdi. Lekin ichkari bir oz qorong'iroq bo'lgani uchun o'tirganlarni yaxshi taniyolmadi.

Shu alfozda u birpas g'o'dayib turgach:

– Xo'sh, nima gap, isyon ko'taryapsanlarmi? – deb baqirdi.

Hech kim indamadi.

– Senlarga gapiryapman, isyonmi bu, nega indamaysanlar! – yana o'shqirdi u.

– Yo'g'-e, o'nboshi, unaqa emas, – dedi kimdir burchakdan.

– Bo'lmasa nima bu? Nega indamaysanlar? Oqsoqol qani? Miyasi aynigan bu chol nega ko'rinmaydi?

Allaqaysi tomondan oqsoqolning ovozi eshitildi:

– Shu yerdaman, o'nboshim, kelaver.

Ichkaridagi qorong'ilikka o'nboshining ko'zi endi ancha o'rganib qolgan edi, shuning uchun u qahva qaynatiladigan

o'choq yonidagi skameyka tomon dadil qadam tashladi. Oqsoqol bilan uning yonida o'tirgan odamlar o'rinlaridan turishdi.

– Qani, o'tir, ikki og'iz gapimiz bor, shuni eshit, – dedi oqsoqol o'nboshiga yonidan joy ko'rsatib.

– Yo'q, o'tirmayman, nima gaplaring bo'lsa, aytaveringlar! – javob berdi o'nboshi oqsoqol ko'rsatgan joyga o'tirar ekan.

Ikkala jandarm ham nariroqqa borib cho'kdi.

Shundan keyin oqsoqol qahvaxonachiga buyurdi:

– To'ralarga yaxshilab bir choy qil!

So'ngra u o'ng qo'lini ko'ksiga qo'yib, kelganlarning, har biriga alohida-alohida „xush ko'rdik!“ deb chiqdi.

– Xo'sh, isyon qilyapsanlarmi? – yana boyagi savolini qaytardi o'nboshi oqsoqolga qarab.

– Gapingga tushunmadim, o'nboshim.

– Nega bo'lmasa meni kutib olmadinglar! Xo'sh, nega qo'limdan jilovni oladigan odam bo'lmadi? Ilgari bo'lganmidi shu ish? Demak, isyon-da bu!

– Zinhor undoq emas.

– Bo'lmasa g'alayon deb tushunish kerakmi? Axir men jandarm boshlig'iman, ustimda hukumat bergan rasmiy kiyim-bosh!

Kimdir stakanga choy quyib, o'nboshiga uzatdi. U choyni olib, bir ho'plagach:

– Choy-poylaring o'zlaringga siylov, men ichmayman. Oldin menga hisob berasanlar! – dedi, keyin yana o'dag'ayladi: – Ho'v oqsoqol!

– Labbay, to'ram!

– Senga telefon qilganim rostmi?

– Rost, o'nboshim.

– Telefonda demokratiyaning qonun-qoidasi qanaqa bo'lishini aytib berdim, to'grimi?

– To'g'ri, o'nboshim.

– Mana shu jandarmlar orqali ham tayinlab yubordim-a?

– Shundoq, o‘nboshim.

– Xo‘sh, hammasi to‘g‘ri ekan, nega aytgan narsani qilmading? Nega odamlarni tayinlangan joyga olib chiqmading? Qani, xo‘sh? Yuz nafar odam piyoda borsin, qirq kishi otda chiqsin, o‘sha aytilgan joyga borganda hamma „Yashasin demokratiya!“ deb qichqirsin, demaganmidim? Innaykeyin, kelayotgan ulug‘larimizning poyqadamiga atab bitta buzoq bilan ikkita qo‘y olib chiqinglar, devdim, qani o‘shalar? Boshqa qishloqlar aytganimni qildi, nega senlar bosh tortasan?

– O‘nboshim, gapimga quloq sol. Biz bitta emas, beshta buzoq beraylik, bizdan ikkita emas, yigirmata qo‘y ola qol, shunga ham rozimiz. Shu jonivorlar demokratiya yo‘lida qurbon bo‘lsin, mayli. Ammo sen bizni kattalarni kutib olishga yuborma. Senga podalab qo‘y bersak beraylikki, lekin o‘sha kutib olish marosimidan bizlarni xoli qo‘y, o‘nboshim.

– Bundan chiqdi, sizlar demokratiyaga qarshi ekan-siz-da?

– Undoq emas. Demokratga qarshi joyimiz yo‘q. Lekin kutishga chiqmaymiz.

– Bo‘lmasa erkinlik malol kelibdi-da?

– Bundoq ham emas. Erkinlikka ham bizning hech e‘tirozimiz yo‘q. Erkinlik nimaligini bilamiz, uning oldida bosh egamiz. Ammo kutib olgani bormaymiz.

– Menga qara, seni shu maqsadda jandarm kuchi bilan qishloqqa oqsoqol qilib saylaganmidik? Axir, dehqonlar ulug‘larni kutib olmaydigan bo‘lsa, demokratiya qayoqda qoladi? Men sizni tushunolmay qoldim, dam erkinlikka e‘tirozimiz yo‘q, deysiz, dam „Yashasin demokratiya!“ deyishdan bosh tortasiz. Bu qandoq bo‘ldi?

– Bunaqa deganimiz yo‘q, o‘nboshi. Qittay yanglish-yapsan. Biz, yashasin, deb aytishdan bosh tortmaymiz, le-

kin shart shuki, qishlog‘imizdan chetga chiqmaymiz. Mayli, shu yerning o‘zida nima desang, shuni qilaylik, yashasinlab yer-u osmonni larzaga keltiraylik, hammasiga rozimiz. Ammo bizni o‘sha joyga yuborma.

Oqsoqol o‘nboshiga sigaret tutdi. O‘nboshi sigaretdan bir dona olgan edi, allakim o‘t uzatdi.

– Yo‘q, chekmayman, – dedi u sigaretni yondirib olgach.

– Senlarnikini chekmayman. Qani, oqsoqol, gapir, nega bormayman deyapsan?

– O‘sha joyingga bormaymiz. O‘nboshi, shu yerdagisiga biz tayyormiz. Bir hafta yashasin, deb qichqiringlar, desang qichqiramiz-u, lekin qishloqdan tashqari chiqmaymiz.

Shu atrofda o‘tirgan bir mo‘ysafid gapga aralashdi:

– Baraka topgur oqsoqol, shu g‘alchaga bor gapni aytib bera qol. O‘z qulog‘i bilan eshitsin.

– Xo‘p, bo‘lmasa quloq sol, o‘nboshi, men gapirib beray. Shu vaqtgacha biror marta bu ishdan bosh tovlaganmidik? Yo‘q. Nima desang, shuni qilib keldik. Sen qirq kishi ot minib borsin, deb buyurganingda, yuzta otlıq bilan ham borganmiz. Kamida yuz nafar odam yayov borsin, deganingda biz butun qishloqni oyoqqa turg‘izib olib ketganmiz. Sen bitta buzoqcha so‘ragan kezlaringda bizlar ikkitalab ho‘kiz olib borganmiz. Ha, shu vaqtgacha biror marta ham gapingni ikkita qilganimiz yo‘q. Mana endi bu yog‘ini tingla: bul-tur telefon qilib, kutib olishga chiqinglar, deding. Hammamiz chiqdik. Maydon odamlar bilan liq to‘la ekan. Kimdir o‘rtaga chiqib, va‘zxonlik qildi. Gapirib bo‘lganidan keyin qarsak chaldik. O‘sha kuni yurtdagi politsiyaning hammasi biz borgan joyga yig‘ilgan ekanmi, to‘da-to‘da bo‘lib bizga yopirilishdi. Hammasining qo‘lida tayog‘i bor, rosa kaltak yedik. Ko‘p qatori meni ham urib yiqitishdi. Bundoq qar-sam, hamqishlog‘imiz Ibroy olako‘z yerda voyvoylab yo-tibdi. Boyoqishning o‘zi nima ahvolda-yu, mendan hadeb:

– Oqsoqol, bu qandoq gap? – deb so‘raydi.

– Men ham tushunolmay qoldim, Ibroy, – dedim unga. – Chamasi bizlar qishloqdan bu yoqqa kelguncha hokimiyat boshqa partiyaga o‘tgan ko‘rinadi.

Rosa kaltakka shishib, yerga marjondek tizilganimizdan keyingina nima gapligiga tushundik. Bilsak, boya biz qarsak chalgan notiq biznikidan boshqa partiyaning vakili ekan. Biz ham yanglishib o‘sha muttahamga „Yashavor!“ deb baqirgan ekanmiz. Birimizning qo‘limiz, birimizning oyog‘imiz sin-di. Urushdan qaytgan yaradorlardek, qishloqqa kirib bordik. Ko‘pchilik yotib qoldi.

Oradan bir hafta o‘tgan edi, yana sen telefon qilib: „Ulug‘larimizdan biri kelyapti, kutib olinglar. O‘zini aptambili bilan yerdan ko‘tarib olinglar“, deding. Xo‘p bo‘ladi, deb yo‘liga peshvoz chiqdik. Aptambilini ko‘ra solib yugurdik, o‘zing aytgandek qilib aptambili bilan yerdan ko‘tardik. Lekin shu payt o‘t o‘chiradigan bir mashina paydo bo‘ldi-yu, yo‘g‘on xartumidan bizga qarab suv purkay boshladi. Suvi bilan bizni chunonam savaladiki, asti qo‘yaver. Husayn davangir degan odamimiz bor, o‘zi yerda balchiqqa belanib yotibdi-yu, hadeb chapak chalib, yashavor, deb qichqiradi. Tag‘in bechora har ikki gapning birida, menga suv purkash-yapti, deydi.

Suv to‘fonidan zo‘rg‘a qochib qutuldik. Keyinchalik bilsak, yana yanglishibmiz. O‘zimizning partiya boshlig‘iniki, deb begona partiya boshlig‘ining aptambilisini ko‘tarib ketgan ekanmiz. Shilta-yu, shalabbo bo‘lib qishloqqa qaytib keldik. O‘zim ham rosa ivigan ekanman, o‘n besh kungacha badanimdan nam arimay yurdi.

Keyingi haftada yana telefon qilding, o‘nboshi. Bu gal dehqonlar bormaymiz, deb, turib olishdi.

– Iya, kaltak bilan suvni endi ko‘ryapsanlarmi? Oldingi hukumat davrida tayoq yemaganmidinglar? Qolaversa, bizni begona partiya emas, o‘zimizning partiyamiz savaladi, shunga ham ota go‘ri qozixonami, – deb ularga nasihat qildim.

Xullas, qishloq ahlini yig'ib, yana kutishga chiqdik. Hali birorta kattani ko'rib, gapini ham eshitmagan edikki, bizga jandarmilar hamla qilib qoldi. Bizlarni mashinada quvib, tayoq bilan savalashdi. O't o'chiradigan mashinalar ustimizga suv purkadi. Bu yog'ini so'rasang, o'nboshi, shundan keyin ketma-ket bombalar portlay boshladi. Yana bizdan xatolik o'tgandek ko'rinadi-yu, lekin gap nimadaligini bilmaymiz. O'sha bombasi odamni yig'latar ekan, ko'zlarimizdan duv-duv yosh quyiladi. Rajab bechora xuddi jinniga o'xshaydi, dam qotib-qotib kuladi, dam bo'lsa ho'ngrab yig'laydi. Bombasi patir-putur yorilib turibdi. Xartumlaridan ustimizga suv yog'iladi. Mashinalar atrofimizda g'ir-g'ir aylanadi-yu, boshlarimizga ketma-ket tayoq tushadi. Odamlarimiz bo'lsa jon holatda, „Yashasin demokratiya!“ deb qichqirishadi. Nima bo'ldi-yu, bir payt, „ho'v yaxshilar, jiminglar, hukumat o'zgarganga o'xshaydi!“ deb yubordim.

Zo'rg'a qochib qutuldik. Bombalar bizni yomon xarob qildi. Ancha kungacha ko'zimizdan duv-duv yosh oqib yurdi. Gapning qisqasi, bizlarni tinch qo'y, o'nboshi to'ra, u yerga endi yubora ko'rma. Biz aslo bormaymiz. Boshqa nima desang, shunga rozimiz. Nima so'rasang, o'shani beramiz. „Yashasinni“ shu yerda turib qotiramiz. Xo'p desang shu. Lekin ulug'larni kutib olishga bizni yuborma. Yo'-o'q, o'nboshi, endi hecham bormaymiz.

DEMOKRATIYA SHUNQORI

Shakarpazlikda bobomning oldiga tushadigan odam bo'lmagan ekan. Otam rahmatlik serg'ayrat odam bo'lganidan do'kon ochib, qandolatfuruslik qila boshlabdi.

Yonimizdagi miskar ancha bema'niroq ekan, kelgan xaridorlarning eshagini to'g'ri do'konimizning oldiga bog'lattaveribdi. Buni ko'rib otamning jahli chiqibdida, miskarlik hunarini ham o'rganib olibdi. Unga achchiq qilib miskar

ham qandolat sotishga o'tibdi. Ro'parada bir bazzoz bo'lardi, o'sha deng hamma axlat suvini qandolatxonamizning oldiga shaloplatib to'kish odatini chiqaribdi. O'sha vaqtlarda yosh bola edim, otam:

– Biri do'konimning oldiga eshagini bog'lasa, ikkinchisi mag'zavasini to'ksa, shu ham insofdanmi. Endi mendan ko'ringlar! – deb baqirib-chaqirgani hali-hali esimda.

O'sha bazzozga o'chakishib otam Istambuldan anvoyi gazlamalar oldirib keldi. Qarabsizki, do'konchamizda shirinliklar bilan miskarlik buyumlaridan tashqari, anvoyi gazlama-yu matolar ham sotiladigan bo'ldi.

Kunlardan birida otam tushmagur chap biqinidagi kavushdo'z usta bilan aytishib qolibdi. Natijada, do'konimizga Istambuldan xil-xil kavushlar keladigan bo'ldi. Xotin-qizlar uchun maxsus tikilgan ajnabiy kavushlarning zo'ri faqat bizning do'kondan topilardi.

Padarimiz qazo qilganlarida do'konimiz yer yuzida chiqadigan jamiki mollardan nusxa topsa bo'ladigan darajaga kelib qolgan edi. Xudo menga yozish-chizish havasini inoyat qilgan ekan, savdo sohasida qiladigan ishim qolmagani uchun qalamni sinab ko'rishga ahd qildim.

Aslida o'rta maktabni bitirgandan keyin boshqa o'qimadim-u, lekin rosa she'r yozdim. Bu yog'ini so'rasangiz, uch daftar to'la she'rim bor. Lekin durustroq bir nima yozgani uncha qo'lim bormaydi, chunki bu yerning odamlari yozg'uvchilikni tushunishmaydi.

Istambulda chiqadigan bir jurnalga she'rlarimni yuborgan edim, ancha ma'qul kelibdi. Ba'zi juz'iy kamchiliklarini tuzatib bersangiz, albatta bosib chiqaramiz, deyishibdi. Bu gaplar g'irt yolg'onligini bilaman. Iste'dodimni ko'risholmaydi, shuning uchun she'rlarimni bosishmagan-da.

„El-yurt taraqqiyoti uchun nimalar qilish kerak?“ degan mavzuda yigirma ikki qog'ozli bir maqola yozib, gazetalardan biriga jo'natdim. Shu maqolam biror aqlli odamning

qo'liga tushsa, gazetaning birinchi betida bosh maqola o'r-
nida bosib chiqazilishiga ishonchim komil.

Bir payt bir oshnam „gazetada maqolang chiqibdi“,
deb qoldi-yu, esim chiqib ketdi. O'sha gazetani vergulidan
nuqtasigacha, hijjalab o'qigan edim-ku, nega ko'rmabman-a.
Ammo shunda ham sirni boy bermadim.

– Bo'sh vaqtlarda gazetalarga ul-bul yozib qo'yaman.
Juda ko'p redaksiyadan iltimos keladi-yu, lekin vaqt qa-
yoqda bunga. Maqolam qaysi birida chiqibdi?

Oshnam qo'lidagi gazetaning beshinchi betini ochib,
„Gazetxonlar bilan suhbat“ degan joyini ko'rsatdi. Azamat-
lar yigirma ikki qog'oz maqolani besh satrga joylashibdi.
Redaksiyadagilar ismi-sharifimni va turar joyimni yozib,
„vatandoshlarimizdan biri el-yurt taraqqiyoti uchun savod-
xonlikni oshirishni va qand lavlagi ekishni taklif qilyapti“
deyishibdi-da, o'sha besh satr gapni keltirishibdi. Bunisi ham
meniki emas, o'zlari to'qigan. Boplab raddiya yozmoqchi
bo'ldim-u, lekin redaksiyadagilarni xafa qilib qo'ysam, ga-
zetaga ikkinchi bor meni yo'latishmaydi, deb qo'rqdim.
Besh satr bo'lsa, besh satr-da, shunga ham ota go'ri qozi-
xonami. Bugun besh satr bo'lsa, ertaga olti, indinga oltmish
satr bo'lib qolar.

Gazetada chiqish g'alati narsa-da. Ota meros qandolat-
xonada shirach bilan nag'al sotish qayoqda-yu, bu qayoqda.
Darrov hammaning og'ziga tushdim. Iltimoslar ham yog'ilib
ketdi:

– Xudo xayringni bersin, shu munitsipalitet raisini bir
urib chiqqin.

– Yo'l azobini bir boplab yoz.

– O'rmonlar qay ahvolda ekanligini yozib yubor.

Ana besh satr gapning qudrati! Agar o'n besh satr bo'l-
ganida, nima bo'lardi?

Rostakam yozuvchi bo'laman degan odam redaksiyaning
ichiga kirib olishi kerak. Shu maqsadda men ham bilgan

gazetalarimning hammasiga: „Mo‘tabar gazetangizning birinchi soni chiqqan kundan buyon, zo‘r e‘tibor bilan kuzatib kelyapman“, degan mazmunda xat yozib yubordim.

Shulardan bittasidan javob kelib qoldi. Bu gazeta yangi tashkil qilinganligi uchun muxbirlarga muhtoj ekan. Bizga muxbirlikka rozi bo‘lsangiz, bir dona suratingizni yuboring, deyishibdi. Darhol rasmimni jo‘natdim. Muxbirlik vasiqasi ham qo‘lga tegdi. Do‘kondorlikni vaqtincha tark etib, muxbirlikka sho‘ng‘ib ketdim.

Muxbirlikni bir xotin, qizil yarim oy jamiyatiga ellik ming lira hadya qilganini yozib yuborishdan boshladim. Xabar gazetada chiqmadi. Keyin bo‘lib o‘tgan futbol o‘yinlarini xabar qildim. Unisiniyam berishmadi. Jinoiy ishlardan yozdim, yo‘llar remont qilinganini bildirdim. Anqaradan kattalar kelgani haqida xabar qildim – biror natija yo‘q. Yozganlarimni goh telefonda beraman, goh telegramma qilaman yoki xat orqali jo‘natib turibman. Bu yog‘ini so‘rasangiz, odamlarga „Bizning narsani ertaga gazetada o‘qiysiz“, deb qo‘yamanda, chiqmaganidan keyin rosa sharmanda bo‘laman. Qolaversa, ta‘nalar ham ko‘payib ketdi:

- Hamidbey tomini bo‘yatibdi, darrov gazetaga xabar qil!
- Bakir afandining eshagi yo‘qolibdi, yozib chiq buni!

Bir kuni redaksiyadan xat oldim. Xatning mazmuni shunday edi: „*Muhtaram muxbirimiz! Bizning maqsadimiz gazetani bir ideal va yo‘nalishga qaratgan holda chiqarmoqlikdir. Shu vajdan siz gazetamizga birinchi navbatda noyob xabarlar yuborib turasiz, degan umiddamiz. Afkor ommaning e‘tiborini tortib, unda qiziqish tug‘diradigan xabarlar gazetachilikda g‘oyat qadrlanadi.*

Masalan: besh kishi bir kishini o‘ldirishi mumkin, bunga ishonsa bo‘ladi. Ammo bir kishi beshtasini o‘ldirsa-yu, keyin murdalarni bir boshdan yeya boshlasa, bu noyob xabar hisoblanadi. Yana bir misol: biror futbol o‘yini paytida ishqibozlar sudyani tutib uradigan bo‘lsa, qo‘yavering,

bu bo'ladigan gap, lekin ishqibozlar sudyadan kaltak yegan bo'lsa, bunday xabarni jon deb bosamiz. Yetmish yashar chol to'satdan xotin kishiga aylanib, besh bola tug'ibdi, deganga o'xshagan noyob, tesha tegmagan hodisalarga juda muhtojmiz. Zamonaviy tushunchalar ruhida chiqadigan gazetamizning bir vakili sifatida shu izohlarimizni e'tiborga olgan holda, bizga yaxshi xabarlar yo'llab turarsiz, degan umiddamiz.

Ishingizda muvaffaqiyatlar tilaymiz“.

Xatni o'qib chiqqanimdan keyin ko'zim moshdek ochildi. Ilgari yuborgan xabarlarimdan birontasi ham nimaga bosilib chiqmaganligini endi tushundim. Men ham vaqtni boy bermay, darhol noyob voqealarni izlashga tushdim. Ammo qancha urinsam ham, hech bunaqasini topa olmadim. Qiziq, gazetalar shuncha noyob xabarni qayerdan olisharkin? Oshna-og'ayni oldida yuzim qora bo'lgani uchun ko'chaga ham chiqolmay qoldim.

Bir kuni uyda, derazamning tagida o'tirgan edim, sal narida o'tlab yurgan bir gala qo'ygga ko'zim tushdi. Yangi qo'zilagan bu qo'ylarning yonida eshak ham yurgan ekan. Ilhomim jo'shib ketdi, darrov qo'limga qalam oldim. Yozgan narsamni telegramma bilan darhol redaksiyaga jo'natdim. Ertasigayoq u gazetaning uchinchi betida bosilib chiqdi. „Eshak qo'zi tug'di“ sarlavhali maqolam shunday boshlandi: „Muxbirimiz xabar qiladi: kecha bizning shaharda qirq besh yashar bir hangi eshak ikkita qo'zi tug'di. Qo'zilardan biri bulbulga o'xshab xonish qilsa, ikkinchisi kar va soqov bo'lib tug'ilgan. Hangi eshak ikkala qo'ziga dumidan sut bermoqda. Shu yerlik qariyalarning aytishiga qaraganda, yurtimizda demokratiya quyoshi balqib chiqqandan buyon bunday hodisa yuz bermagan. Demak, hangi eshakdan ikki qo'zichoq tug'ilishi yaxshilik alomatidir“.

Muxbirlik sha'nimni oqlab oldim. Birinchi muvaffaqiyat odamning kuchiga kuch, g'ayratiga g'ayrat qo'shar ekan.

„Osmondan baliq yog‘di“ degan ikkinchi xabarim gazetaning birinchi betida bosilib chiqdi: „Maxsus muxbirimiz...“ dan bildiradi: kecha bizning shahrimizda do‘l o‘rniga osmondan cho‘rtanbaliq bilan laqqabaliq yog‘di. Bularning har qaysisi kamida 6–7 kilo keladi. Baliqlarning ichidan turli ovqatlar chiqyapti. Ikki soat davom etgan baliq yomg‘iri natijasida, ekinlar bilan meva daraxtlari shikastlandi. Agar yana shunaqa yomg‘ir bo‘ladigan bo‘lsa, bu yil ocharchilik boshlanishi mumkin. Tegishli doiralar kelgusida baliq yomg‘iriga yo‘l qo‘ymaslik uchun osmonga qarmoq o‘rnatishga va‘da berishdi“.

Xabarni do‘ndiradigan bo‘lib qoldim. Bir odam o‘zining ho‘kizi bilan tepishib qoldi, ikkinchi bir odam zotli buqasiga ruju qildi, bir xotin chaqaloq o‘rniga qurbaqa tug‘ib qo‘ydi, qabilida ketma-ket xabarlarim bosilib chiqdi. Gazetani o‘qigan kishi bizning viloyatimizda boshqacha odamlar yashar ekan, hayvonlari ham bo‘lakcha ekan, degan fikrga kelishi turgan gap. Chunki bizning sigirlar sakkiz boshli buzoq, biyalarimiz ikki quyruqli qulun, ayollarimiz esa yarmi ho‘kizga, yarmi devga o‘xshagan maxluq tug‘ishardi.

Xullas, savdoni butunlay yig‘ishtirib, muxbirlikka o‘tib oldim. Yozgan narsalarimga endi haq keladigan bo‘ldi, xabarlarimning narxi ham sekin-asta osha bordi. Mening xabarlarim bosilib turgani uchun gazetaning tiraji ham ko‘tarilib ketdi.

Olti yashar qizaloq yoshi o‘ttizga chiqqan kap-katta erkakni toqqa olib qochgani, yetmish yashar bir kampir o‘n yashar bolani uyiga qamab olgani haqida gazetada ikkita xabarim chiqqan kuni viloyatimizga poytaxtdan katta amaldor keldi. Gazetaga quling o‘rgilsin bir xabarni do‘ndirib tashlash mumkin edi-yu, lekin bizning tomonlarga ikkinchi bor qadam ranjida qilgan mana shu odamni yoqtirib qolganim uchun umrimda birinchi marta haqiqatni yozib yuborishga ahd qildim. Nomi chiqqan muxbir bo‘lganim

uchun maqolam bosilib chiqishiga imonim komil edi. O'sha kuni bo'lgan gaplarning hammasini qandoq bo'lsa, shundoq yozib yubordim, o'zimdanda bir og'iz ham gap qo'shmadim. Nega deganda partiya haqida, el-yurt haqida gap ketayotganligi uchun yolg'on ishlatishga haqqim yo'q edi-da.

Muxbirlik hayotimda birinchi marta redaksiyaga bo'lgan voqeani yozib yubordim. O'sha xabarim gazetada bosilib chiqqan kuni meni qamoqqa olishdi. „Sochi olingan demokratiya shunqori qamoqda“ deb gazetalarda bosilib chiqqan suratimni ko'rgan bo'lsangiz kerak. Muxbirlik kasbinga xiyonat qilganim uchun qamoqqa tushgan bo'lsam ham, demokratiya shunqori degan nom oldim. Aslida o'zi muxbir bo'lib shundan qisilib yurgan edim, mana endi bunisiga ham erishdim. Hozir qamoq muddatini tugatay deb qoldim.

SHUKUR QILSANG ARZIYDI

Shukribey bir yarim oydan beri uy qidiradi.

Aslida boshpanasi bor edi-yu, lekin bir kuni ijarada turgan uyining egasi uni chaqirib:

– Bundoq o'ylab qaragam, rosa hotamtoy odam ekanman. Shunaqa qimmatchilik bo'lib turganida ikki xonali uygaga bir yuz o'ttiz lira olib kelyapman-a. Tag'in bergan uyimni aytmayisizmi: tomiga zo'r cherepitsa yopilgan, hojatxonasiga marmar yotqizilgan, rom va eshiklari yangi bo'yoqdan chiqqan. Qoyil-e, qoyil. Siz to'lab turgan pulga shunaqa uy topsam, ko'ngilxushligi uchunoq ko'chib borardim, – dedi.

– Shu uyingizda o'n ikki yildan buyon ijara to'lab turaman, – javob qildi Shukribey. – O'zirniki deb bilaman, shikastrextiga qarab turibman. Yaqinda devorlarini suvoqdan chiqardim. Zinaga yangi taxta qoqdim, panjarani yangiladim.

Lekin uning gapi xo'jayinga kor qilmadi.

Uyning egasi ko'proq daromad olish uchun shunday qilayotganini Shukribey yaxshi bilardi. Lekin iloji qancha? Nari borsa, ijara haqiga yana yigirma lira qo'shib berishga qurbi yetadi, xolos.

– Mayli bo'lmasa, oyiga bir yuz ellik bera qolay, – dedi Shukribey shuni nazarda tutib.

– Bir yuz ellik lira tamaki pulimga ham yetmaydi, – dedi uyning egasi kulimsirab.

Shukribey o'zicha chamalab ko'rdi: agar chekishni tashlaydigan bo'lsa, oyiga o'n besh liradan tejaydi.

– Gapingiz juda to'g'ri, – dedi u uyning egasiga. – Chindan ham hozir bir yuz ellik lira shu uyingiz uchun kamlik qiladi. Lekin men noinsof odam emasman. Sizga ko'proq ijara haqi to'lashga qurbim yetmayotgan ekan, amin bo'lingki, bunga nochorligim sabab...

– Har kim ko'rpasiga qarab oyoq uzatishi kerak, – javob qildi u. – Siz ham o'z pulingizga yarasha biror boshqa uy toping.

Agar Shukribey puliga yarasha uy topganida bu yerda bir daqiqa ham turmagan bo'lardi-ya.

– Bir yuz oltmish besh lira to'lay, mayli...

Uyning egasi yana kulib qo'ydi:

– O'g'limga choychaqa ham bo'lmaydi.

Shukribey har kuni ishiga piyoda borib keladigan bo'lsa, bir oyda yana yigirma lira jamg'arishi mumkinligini hisoblab chiqdi.

– Bir yuz sakson besh lira bersam-chi?

– Meni kalaka qilayotganga o'xshaysiz, – dedi bunga javoban uyning egasi. – Yonimizdagi xonadonni o'zingiz bilasiz. Xuddi tovuqxonaning o'zi. Ijara haqi qanchaligini eshitganmisiz? Oyiga uch yuz ellik lira to'lab o'tirishadi. Nima, meniki kammi undan? Uch yuzdan kamiga ko'nmayman. Siz ketsangiz, to'rt yuz liraga ham odam topaman. Topilmasa, yana ham yaxshi, loaqal uy eskirmay turadi.

Agar Shukribey shu uyda uch yuz lira to'lab o'tiradigan bo'lsa, to'rt jonning tirikchiligiga oylik maoshidan sakson lira qolarkan, xolos. Xullas, ish sudga borib tushdi. Uyning egasi „uy o'zimga kerak“ degan vajni ko'rsatib, o'z foydasiga hukm chiqartirib oldi. Shukribey bu yerdan ko'chib ketishga majbur, shuning uchun u bir yarim oydan beri har kuni ijaraga uy qidiradi.

Avji qish pallasi. Shukribey qorni qor, yomg'irni yomg'ir demay, ertadan kechgacha boshpana izlaydi. Lekin o'tirgan joyidan arzonroq va durustroq uy uchramadi. Ikki yuz liraga bittasini topgan edi, bo'lmadi, oilasi sig'mas ekan.

O'sha kuni ham shahar kezib, holdan toygandi. Uy topib beraman, degan dallollarga pul beraverib, jonidan to'ygandi. Ustiga ustak oldin yomg'ir yog'ib, keyin qorga aylandi, hamma yog'ini ivitib yubordi. Oyoq kiyimidan suv o'tib ketdi. Kechga yaqin yog'in tingan bo'lsa ham, Shukribeyning bo'ladigani bo'lgan edi. „Qani endi biror odaming bo'lsa-yu, dardingni to'kib solsang, – deb o'ylardi u o'zicha. – Loaqal ikki og'iz gaplashib, yengil tortarmidim“.

Niyati xolis ekan. Shu fikr ko'nglidan o'tishi bilan ro'parada kelayotgan bir qalin o'rtog'ini ko'rib qoldi. Zakoiy bilan uchrashmaganiga ko'p bo'lgan edi. Balki uy topib berish qo'lidan kelar. Loaqal miriqib gaplashib oladi-ku.

– O, Shukribey, salom.

– Salo-o-om, Zakoijjon. Qalay, tinch yuribsanmi?

– Asti so'rama. Xo'sh, o'zing qalaysan?

– Qimirlab turibman.

O'rtog'ining ham tashvishi o'ziga yetib ortadiganga o'xshaydi.

– Nima qilib yuribsan? – so'radi Zakoiybey.

Shukribey dardiga quloq soladigan odamga muhtoj bo'lgani uchun bor gapni ochiq ayta qoldi:

– E, oshnam, boshimga katta bir tashvish tushgan. Bir yarim oydan beri boshpana izlayman. Turgan uyimizning

egasi ko'chaga haydayapti. Mana bugun ham kechgacha uy qidirdim. Yomg'ir bilan qor rosa ivitdi. Ko'rmaysanmi, qaldirab ketyapman. Yotib qolamanmi, deb qo'rqaman...

Ichidagi bor dardini to'kib solib, picha yengil tortmoqchi bo'lgan edi-yu, lekin o'rtog'i uning gapini bo'ldi:

– Tag'in ham sen shukr qilsang bo'larkan, birodar. Menikining oldida seniki holva ekan. Eh, do'stim, bu zamonda imorat qurishdan ortiq azob yo'q ekan. Sen eshitganmisan, yo'qmi, bilmadim, men ozroq yer sotib olgandim. Aslida bo'sh yer topib, uni xarid qilishning o'zi uqubat. Ha, mayli. Xullas, to'qson mingga yaxshi bir joydan yer oldim...

– Shunaqa gap, Zakoijjon, – dedi uning gapini bo'lib Shukribey. – Uyning egasi bizni haydayapti. Sudning hukmini ham chiqarib oldi...

Gapni yana Zakoijy ilib ketdi:

– O'sha yerni sotib olganimdan keyin o'n kun o'tmay bir yuz ellik, hatto ikki yuz mingga xaridor chiqdi. Hol-jonimga qo'yishmadi. Sotasan, deb meni rosa qiynashdida, Shukribey. Haliyam shukr qilaver, birodar...

– To'g'ri aytasan, do'stim. Shundan keyin uyning egasiga, ijara haqini oshira qolaylik, bir yuz sakson besh liraga roziman, dedim.

– Qani endi mening ishim ham bir yuz sakson besh yoki bir ming sakson besh lira bilan bitadigan bo'lsa. Koshkiydi. Sen shukr qilsang bo'larkan. Gapning qisqasi, o'sha joyga ikki qavatli imorat soladigan bo'ldim. Hozir usta bilan mardikor falon pul turadi, oshnam. Ko'p cho'zib o'tirishning hojati yo'q, boshiga tushgan odam buni yaxshi biladi. Mo'ljalim uyni ikki qavat qilish, har bir qavatida rasmana xonalardan uchta, bittadan mehmonxona qurish edi. Shunaqa qiynalib ketdimki, Shukribey, asti so'rama...

– Nimasini aytasan, Zakoijjon. Mana endi uyning egasi bizga, ket, deyapti. Men senga aytsam, o'sha turgan uyimizga dunyoning pulini sarflaganman. Hojatxonaning devori qu-

lagan edi, yaqinda o'n besh liraga yangi devor oldiruvdim. Bu muttahaam shuniyam bilmay, jo'na, deyapti.

– Desa deyaversin, birodar. Shunisiga shukr qil. Mendan ko'ra ahvoling durust ekan. Menga o'xshab imorat qurishga kirishganingda, nima bo'lardi. Bir payt volidamiz: „Qurgandan keyin yaxshilab qurish kerak, shuncha ketganning biri bo'ladi, imoratni uch qavat qil, biror kuningga yarasin“, deb qoldilar. Poydevorini oldik. Bismillosiga 40 ming ketdi, Shukribey. Aytishga oson bu...

– O'zing omon bo'l, Zakoiybey... Juda sovqotib ketdim. Uydan kallai saharda chiquvdim. Shu paytgacha uy qidirdim. Bugunning o'zida dallolga o'n besh lira pulim ketdi...

– Seniki holva, Shukribey. Hamma narsani chayqov bozoridan oldim. Romning o'ziga ikki ming to'ladim. Yana kerak. Haliyam o'zing durustsan, shukr qilib yuraver. Imorat qursang, tashvish nimaligini bilarding. „Binoning har bir qavatida bitta emas, ikkita xonadon turishi kerak“, deb qoldi xotinim. Bundoq o'ylab qaragam gapi to'g'ri. Imoratni shunga mo'ljallab tiklayverdik, nazaringda bu ish osonga o'xshab ko'rinadi-yu, lekin...

– Aslo undoq emas, birodar. Rosa qiynalgan bo'lsangiz kerak. Oqsaroy tomondan bir uy topdim, afandim. Bitta xona, yo'lagi alohida. Nachora, rozi bo'ldik. Ishxonadan ancha olis ekan-u, lekin iloj qancha. Barvaqt turib ketaveraman-da. Ijara haqi bir yuz yetmish besh lira ekan, arzon deyishadi. Ovqat pulidan tejashga to'g'ri keladi. Tag'in olti oylik haqini oldindan bermasa bo'lmas ekan.

– Eh, Shukribey, shuni hali tashvish deb yuribsanni! Ahvolimni senga tushuntirilmaganga o'xshayman. Menga o'xshab sen ham tunuka qidirayapsanmi, sementga muhtojmisan? Yo'q, albatta. Men bo'lsam bularni chayqovchilardan olyapman. Jonim qiynalib ketdi. Sen imorat qilmayapsan, shuning uchun bu azoblarni bilmaysan.

– To‘g‘ri, bilmayman, birodar. Lekin sen shuni bilib qo‘yki, Zakoiybey oshnam, qishda ko‘chada qoldik.

– Shukur qil, birodar, shukur qil.

– Uyning egasi ikki kundan keyin meni oilam bilan ko‘chaga haydaydi.

– Bir gap aytaymi senga? Shunisiga ham shukur qil. Nega desang, uch qavatini bitirib, endi tomini yopay deb turganimda qaynanam: „Kuyov, yana ikki qavat qo‘shib qo‘ya qol, bola-chaqang seni keyin duo qilib yuradi“, deb qoldi. Yana malomatga qoldim. Hali usta, hali mardikor kerak, hali munitsipalitet... Senga balli, bunaqangi ishlardan xolisana.

– To‘g‘ri, Zakoiybey, to‘g‘ri.

– Shukur qilsang arziydi.

– Shukur deyman. Endi nima qilishga hayronman... Bir-ikkita qaqir-ququrimiz bo‘lmaganda biror boshpana topguncha musofirxonada o‘tirib turarmidik.

– Men senga aytsam, musofirxonada turish imorat qurishdan oson, qiynalmaysan. Rosa azob chekyapman-da. Ha, ishonaver, to‘g‘risini aytyapman.

– To‘g‘ri, ishonaman, birodar.

– Sen nolimasang ham bo‘ladi!

– Noliyotganim yo‘q. Qaqir-ququrni sotay desak, hammasi kerakli... Qolaversa, keyin yangisini ololmaymiz. Sotganda ham arzon-garovga ketadi.

– Ketsa ketaversin!

– Ketaversin, men bir nima deyotganim yo‘q. Ketsa ketaversin.

– Imoratni besh qavat qilib tiklab oldim. Lekin uni tiklaguncha qancha azob chekkanimni faqat men-u parvardigor biladi. Keyin, azizim, ukam kelib qoldi. „Aka, shuning ustiga bir boloxona qurdirmasangiz bo‘lmaydi. Yaxshimi-yomonmi, har holda kuningizga yarab qoladi, ijaraga qo‘yib, oyiga to‘rt yuz-besh yuz lira olib turasiz“, dedi. Juda mushkul ekan bu narsa, birodar. Mayda-chuyda narsalarga rop-

pa-rosa o'n ming ketdi. Bunaqa ishlardan xabaring yo'q-da, shuning uchun o'z tashvishing o'zingga katta ko'rinadi. Men sening o'rningda bo'lghanimda juda shukr qilib yurgan bo'lardim.

– To'g'ri aytding, Zakoiyjon. Yonimda pulim bo'lghanida bola-chaqa bilan qishda ko'chada qolarmidim... Olti oylik ijara haqini oldindan to'lasam, ko'chib kirish mumkin ekan. Menda shuncha pul nima qiladi...

– Bo'lmagani ma'qul. Imorat qilish... Boshimga balo sotib oldim. Yerning pulini hisoblamaganda imorat nari-berisi bilan olti yuz mingga tushdi. Buni bitirguncha go'r azobini ko'rganimni aytsam...

– O'h-ho'...

– Shuning-chun menday jabr tortmaganingga shukr qil.

– Ming qatla shukr. Holimdan nolimayman. Lekin qishning chillasida bola-chaqam bilan boshpanasiz qoldim, xolos. Boshqa hech nimadan nolimayman.

– Aslo nolima, Xudoning g'azabi keladi. Mana, mendan ibrat ol, birodar. Imoratni bitirib olganimdan keyin yana boshim g'avg'oda qoldi. Hali u kelib, menga sot, deydi, hali bu keladi. Bir million beramiz, deyishdi. Men, ikki millionga ham sotmayman, dedim. Shunaqa malomatga qoldimki, oshnam, bu kunni Xudo dushmaningga ham ko'rsatmasin.

– Qarindosh-urug'nikiga ham borib bo'lmaydi. Hammaning holi o'ziga ma'lum. Birovning ko'ziga yomon ko'rinishning nima keragi bor!

– Bundan ko'ra birovning ko'ziga yomon ko'ringan ma'qul. Sen kattakon imoratning egasi bo'lishlik qanchalik zo'r mashaqqat ekanini bilmaysan-da, shuning uchun bekorchi gaplarni aytyapsan. Besh mahal shukrni kanda qilmay yuraver, sen faqat shuni bil. Nega desang, birodar, hozir ijara-rachi degan bir dardisar bor. Men senga aytsam...

– Tashvishing menikidan ko'proq ekan, Zakoiyjon.

– Seniki ham gap bo'ptimi, birodar. Shunisiga shukr qil.

– Shukur, ming marta shukr. Endi men ketay, Zakoiybey. Xayr bo‘lmasa.

– Xo‘p, Shukribey. Meni ko‘rib, shu kuningga shukr qilib yuravergin, Shukribey!

Shukribey aksira-aksira uyi tomonga ketdi. To‘satdan isitmasi ham ko‘tarildi.

– Xo‘sh, uy topdingmi? – so‘radi xotini uni ko‘ra solib.

– Shu kunimizga shukr qilib yursak arzirkan, xonim. Bizdan ahvoli og‘ir odamlar ham bor ekan. Mabodo biz ham imorat quradigan bo‘lsak, bilasanmi nima bo‘larkan? Ha, shu ahvolimizga kecha-yu kunduz shukr qilib yuraveraylik.

PULIMGA YARASHA YER BERING

Bir necha kundirki, uyquda halovat yo‘q. Qattiq ishlayverib asabni buzgan ko‘rinaman: o‘ringa kirsam, uyqu bosadi-yu, ammo ko‘z qurg‘ur hech ilinmaydi.

Bo‘lmadi, oxiri doktorga borishga to‘g‘ri keldi.

Bir kunda necha soat ishlaysan? – deb so‘radi u.

– O‘n olti-yigirma soatdan.

– Unaqa bo‘lsa toliqibsan, – dedi-da, keyin so‘radi: – Nega endi muncha ko‘p ishlamasang?

Doktorni boplab so‘kib bermoqchi bo‘ldim-u, lekin o‘zimni qaytardim. Rost-da, axir, shu ham gap bo‘ldimi? Nima, bunchalik ko‘p ishlayotgan bo‘lsam, sababi bordir...

Doktor asab bilan uyqu uchun dori-darmon yozib berdi. Ammo lekin, hech qaysisidan foyda ko‘rmadim. Joyimga yotib, endi uxlayman deb turganimda, uch oydan beri to‘lanmagan uyning ijara haqi lop etib esimga tushib qolsa bo‘ladimi? Endi bu yog‘i nima bo‘lishi o‘zingizga ma‘lum.

Yotgan joyimda hisob-kitobga tushib ketaman. Uch yuz ellik lira... Shundan yigirma beshni olib tashla... Xo‘p, oldin noldan beshni olish kerak... Nolga beshdan birni olib beramiz, o‘n bo‘ladi. Undan beshni olsak besh qoladi...

To'rt dan ikkini olsak ikki qoladi... Uchning o'zi tushadi... uch yuz yigirma besh qolarkan... Shunga to'qson oltini qo'shish kerak. Beshga oltini qo'shsak, o'n bir bo'ladi. Biri dilda...

Miyamda raqamlar chuvalashib ketavergach, yotgan joyimdan irg'ib turaman... Qo'lga qalam-qog'oz olib hisoblay boshlayman. Ishni bitirgach, uxlatadigan xap doridan yana bir marta otib olaman. Mudroq keldi deguncha, yugurib borib o'ringa kiraman. Endi ko'z ilinay deb turganda miyamga bir fikr kelib qoldi: „Bordi-yu, oyiga 10 liradan tugib borsam, bir yilda qancha bo'larkan?“ La'nati shu ijara puli juda qonimga tashna qilib yubordi-da... Bu dunyo deganidan boshpanasiz o'tadiganga o'xshaymiz.

Shu hafta ichida nari borsa besh soat uxlagandirman. Bedorlikning to'rtinchi kuni majolsizlikdan o'rnimdan turolmay qoldim. Ko'z toliqib, zora uxlab qolsam degan umidda qo'lga gazeta oldim.

Gazetaning birinchi betida bosilgan shu xabarga to'satdan ko'zim tushib qoldi: „Taqsimda, imoratsiz quruq yer to'rt million liraga sotildi“.

To'rt million lira-ya... Yerning sathi 1624 kvadrat metr ekan. To'rt millionni 1624 ga taqsimlay boshladim. O'zim turmushda no'noqroq odam bo'lsam ham hisobni yaxshi ko'raman. Bundoq chamalab chiqsam, haligi yerning bir kvadrat metri 2500 liraga tushibdi.

– Ajabo, – o'ylab ketdim o'zimcha, – shu joyni men sotib olmoqchi bo'lsam qandoq bo'lardi... Puli qanchaydi? Ha, to'rt million lira. Bir oylik maoshim qancha o'zi? Besh yuz lira.

– Uxlay qolsang-chi endi! – deb xotinim yalina boshlaydi.

– Yo'qol, ko'rmayapsanmi nima qilayotganimni! – deya jerkib berdim uni.

– Xo'sh, oyligim besh yuz lira ekan... Qani, ovqatdan siqishtirib borsam, bir oyda qancha yig'ishim mumkin? Hech

iloji bo'lmayapti-ku... To'xta-chi... Mayli, bir amallab oyiga 100 liradan tugib borsam, bir yilda 1200 lira bo'larkan. O'n yilda 12000 lira, yuz yilda esa 120 000 lira... Ming yil umr ko'rsam-u, tishning kirini so'rib yurish evaziga har oyda yuz liradan olib qo'yaversam, bir million ikki yuz ming lira pul to'plarkanman. Baribir bu ham kamlik qiladi. Nima bo'lsa ham o'sha yerni sotib olishga qaror qildim.

Hisobni bolalikdan sevaman. Litseyda o'qib yurgan paytlarimda ham miyamda hamisha raqamlarni urishtirib yurardim. O'shanda yo'lda to'xtamay, ovqat ham yemay tinimsiz yuguraversam, oyga, quyoshga, Marsga necha million yilda yetib borishim mumkinligini hisoblab chiqqanman. Endi bundoq o'ylab qaragam, men uchun quyoshgacha piyoda yurib borish, boyagi joyni sotib olishdan oson tushar ekan.

Tong yorishgan bo'lsa ham hisob hali tugagani yo'q. O'sha yerni sotib olish uchun uch ming yil yashasam ham ozlik qilar ekan. Bu gal xomcho'tni boshqacha qilib ko'rdim. Xo'sh, bordi-yu, oladigan besh yuz lira maoshimning hammasini tugib qo'yaversam-chi?

Buni ham chamalab ko'rdim. Ma'lum bo'lishicha, maqsadga yetish uchun yana roppa-rosa 666 yil yashab, 666 yil muttasil ishlashim kerak ekan. Bunisi ham to'g'ri kelmaydi. Xap doridan ustma-ust ikkitasini yutib oldimda, o'ringa yotdim. Es-hushim o'sha sotilgan joyda bo'lgani uchun baribir uxlayolmadim. Yana turib ketdim... Bir kunda 16 soat o'rniga 24 soat ishlab, oylikni ming liraga yetkazsam-u, uning bir tiyinigam ham tegmay asrab qo'yaversam nima bo'larkin? Shundayam yana 33 yil umr ko'rishim shart ekan.

Endi qizcham yalinishga tushdi:

– Dadajon, uxlay qoling! Picha uxlang!

– Yo'qol! – uni ham haydab soldim.

Shu joyni sotib olmagunimcha ko'zimga uyqu kelmaydi endi. Bu gal xomcho'tni teskari soldim. Xo'sh, o'sha yerni

sotib olish uchun bir oyda qancha pul topishim va shundan qanchasini tugib qo'yishim kerak? O'-o'-o', bir oyda 2 ming liradan yig'ib yursam ham 167 yil ishlashim kerak ekan. E, qurib ketsin!.. Hech iloji bo'lmayapti-ku!

„To'xta, to'xta, – dilimda o'ylayman o'zimcha, – axir shu joyni sotib olgan ham senga o'xshagan odam-ku. Muncha pulni u qayoqdan oldiykin?“

– Doridan yana ichib olasanmi? – dedi xotinim yalingan-simon.

Yana dori ichdim. Ichim ham binoyiday dorixonaning o'zi bo'lib qoldi.

– Senga nima bo'ldi, jonim, uxlasang-chi, axir!

– Yo'qol hammang, ko'zimga ko'rinma!

Xo'sh, to'rt million lirani qurtday sanab bergan odam buncha pulni qayerdan oldi ekan? Shu taqir yerga beli og'rimay to'rt million lira berganiga qaraganda, yonida yana to'rt million puli qolgan bo'lishi kerak. Sakkiz million lira-ya! Aytishga oson. Bu odam nima ishda ishlarkin o'zi? Agar u moyanaxo'r bo'ladigan bo'lsa, eng katta amaldor ham bir oyda ko'pi bilan 1500 lira pul oladi. Bunaqa odam to'rt million lira topish uchun 276 yil ter to'kib ishlashi kerak. Shunda ham u moyanasining bir qurushiniyam sarflamasligi lozim-a.

Qurib ketsin-e, o'ylayverib miyam tars yorilib ketay dedi. Haligi odam vrachga o'xshaydi. Doktorlar ko'p pul topishadi. Ular bir marta ko'rish uchun bemordan o'ttiz liradan pul olishadi.

– Tong otib ketdi, bir oz mizg'ib olsang-chi.

– Boshimni qotirma, dedim-ku senlarga!

Agar u bir kunda o'ntadan kasal ko'radigan bo'lsa, uch yuz lira ishlaydi. Demak, bir oyda 9000 lira... Shuning 6 mingini tugib borsa... O'sha yerni sotib olish uchun doktor 67 yil bemor ko'rishi kerak! Demak, yerni sotib olgan kishi vrach ham bo'lishi mumkin emas... Bordi-yu, savdo-

garchilik qilsa-yu, har oyda o'rta hisob bilan 10 mingdan topsa-chi... Bu ham aqlga sig'maydigan narsa.

– Besh kundan beri mijja qoqmaysan-a. Birpas cho'zilingin, balki ko'zing ilinar.

Yostiqqa bosh qo'yib, ko'zimni yumaman. Qani endi uyqu kelsa... Topdim! Topdim! Unday odamning islovatxonasi bo'lishi kerak. Quling o'rgilsin beshta jonon uning sarmoyasi bo'ladi. Jononlarning har qaysisi kuniga 100 liradan ishlab bersa bormi, besh karra yuz – besh yuz. O'ttiz karra besh yuz – oyiga o'n besh ming lira degan so'z. Ijara haqi, mayda-chuyda xarajatlar chegirib tashlansa, cho'ntagida o'n ming lira qoladi. Yiliga 120 ming lira bo'ladi. O'ttiz yilda esa... Ming la'nat-e, islovatxona ochsam ham yerni sotib olishga qurbim yetmas ekan!

Qani, yashirincha chetdan mol keltirib sotsam-chi... Bu fikr o'zimga ham yoqib tushdi, o'rnimdan irg'ib turib hisoblab chiquvdim, unisi ham xomroq chiqib qoldi.

Shu payt kallamga to'satdan bir fikr keldi. Cho'ntaklarimni kovlashtirgan edim, o'n ikki yarim lira pul chiqdi.

– Senlarda qancha pul bor?

Xotinimdan besh, bolalardan ikki lira pul topildi. Hammasini sanab ko'rsam, o'n to'qqiz yarim lira bo'libdi... Yerning hammasini sotib olish shart emas-ku, pulimga yarasha olaman qo'yaman-da. Bir kvadrat metr joy 2500 lira turadi, demak, bizga to'g'ri kelmaydi. Bir kvadrat detsimetri esa 25 lira. Bunisiga ham qurbim yetmaydi. Bir kvadrat santimetriga 25 qurush to'lash kerak. Xo'sh, yonimda o'n to'qqiz yarim lira pulim bor. Demak, bu pulga 78 kvadrat santimetr yer sotib olishim mumkin. Soatga qaradim: ertalabga yana ikki soat vaqt bor. Barvaqt turib o'sha joyga boraman-da, shunday deyman:

– Qani, shu yerdan menga 78 kvadrat santimetr yer o'lchab bering!

Uyda gilar atrofimda parvona:

–Yota qol endi... Picha mizg‘ib olgin!

Yetmish sakkiz kvadrat santimetr yer! Abadiy uyquga ketish uchun shu sahnga cho‘zilib yotsam ham, baribir sig‘mayman, boshqa birov yotgan mangu istirohat manzili-dan oyog‘im chiqib qoladi...

Sotib oladigan yerimning ustida qaqqayib turishdan boshqa chora yo‘q.

– Senlarga yer yo‘q, – dedim xotinim bilan bolalarga, – senlarga yer yo‘q... Bu dunyoda men yakka o‘zim tik turishim mumkin bo‘lgan bir parcha yer topdim. Qani, yo‘qolinglar. Senlar ham o‘z g‘amlaringni o‘zlaring yelaring!

– Uyqudan qolib jinni bo‘pti bu, – deya vahima ichida uydagilar tumtaraqay qochishdi.

Sizlarga ham maslahatim shu. To‘rt million lirani qanday topishni siz ham bir o‘ylab ko‘ring-da, yoningizdagi bor pulga necha kvadrat santimetr yer sotib olishingizni hisoblab chiqing. Shundan keyin ustma-ust xap dori yutaverasiz. So‘ngra esa... jinnixonaning 8-bo‘limida, albatta uchrashamiz. Kiraverishdagi o‘rin kaminalariniki bo‘ladi.

MUSHT KETDI

„Har narsaning bir sababi bo‘ladi“.

Yo‘q, men aytmoqchi bo‘lgan gap bu emas. Hikoyamni biror aqlli gap bilan boshlamoqchi edim. Qani, bunday deb ko‘raychi: „Tutaqib ketgan odam baribir jahlidan tushadi“.

To‘g‘risini aytсам, bunisi ham o‘zimga yoqmay turibdi. Zo‘r gap aytish uchun odamning o‘zi zo‘r bo‘lishi kerak ekan-da. Shuning uchun ham ba‘zan o‘zimdan xafa bo‘lib ketaman. Bu yog‘ini so‘rasangiz, hamma hikoyalarimni tarix sahifalariga bitsa arziydigan zo‘r gap bilan boshlagan bo‘lsam ham, shu vaqtgacha na mening va na yozgan narsalarimning qadriga yetadigan odam topilgani yo‘q. Qani, ko‘raylik-chi, zo‘r odamlar aytgan gaplar chindan ham

zoʻrmikin? Shunaqa zoʻr odamlardan biri: „Yozda havo is-siq boʻladi“, – degan ekan.

Buni qarang, qanday aqlli, qanday hikmatli gap! Odam-zod yuz yillab izlab kelgan haqiqatni u mana shu toʻrt soʻzga jo qilib beribdi. Yana bir zoʻr odam dunyodan koʻz yumayotib: „Eshiklarni ochib qoʻying!“ – degan ekan. Qanchalik ulugʻ, hikmatli soʻzlari bilan insoniyatga yoʻl koʻrsatib bergan. Bu soʻzlar zamiridagi maʼnoni tushunyapsizmi?

Yaxshilab magʻzini chaqib koʻring-a. Mana shu uch soʻzning zamiriga yashiringan chuqur maʼnoni tavsiflamoq uchun tom-tom kitob yozsangiz ham ozlik qiladi. Uning nima demoqchiligini bilasizmi? Xoʻsh, nima demoqchi edim? U: „Hoy odamlar!.. Eshakka oʻxshab joylaringda dimiqib yotavermanglar! Yotgan ogʻillaringizning eshigini ochib qoʻyinglar, toki maʼrifat nurlari u yerni charogʻon etsin!“ demoqchi boʻlgan.

Yoʻq, unday emas, mana bunday: „Eshiklarni ochib qoʻyinglar! Dunyo koʻzingizga koʻrinsin. Ruhliy tutqunlikdan qutulung!“

Aslini olganda, oʻlim toʻshagida yotgan oʻsha zoʻr odamning ham hammaga oʻxshab nafasi qisilgan-u, bechora: „Eshiklarni ochib qoʻying!“ degan-qoʻygan.

Boʻlgan gap shu. Nasib qilsa, men ham qazo qilib narigi dunyoga borishim bilan darrov Gyoteni qidirib topib:

– Siz hayot bilan vidolashayotganingizda: „Pardani koʻtaring, yana ozroq nur tushsin!“ – degan ekansiz. Bu gapning maʼnosi nima? – deb soʻrayman.

Imonim komilki, Gyote kulimsirab shunday deydi:

– Yana ozroq nur tushsin, debmanmi? Ha, endi oʻshanda koʻzimda nur qolmagan boʻlsa kerak-da. Tepamda turgan yor-doʻstlarni yaxshiroq koʻrish uchun shunday degan boʻlsam ajab emas.

...Koʻchada ketayotgan edim. Bir uyning eshigidan miyovlaganicha bir mushuk yugurib oldimga chiqdi-yu, ti-

raqaylab qochib qoldi. Meni bunchalik o‘ylantirib qo‘ygan narsa ham shu mushuk bo‘ldi. Uydan bunchalik miyovlab chiqishining sababi nima ekan? „Har narsaning bir sababi bo‘ladi“. Xo‘sh, mushukning jon achchig‘ida uydan yugurib chiqishiga sabab nima?

Men ham sizga mana shuning tarixini hikoya qilib bermoqchiman. Lekin hikoyani qaysi uchidan boshlashni bilolmay turibman. Demokratik prinsipga asosan quyidan yuqoriga chiqsammikin yo o‘zimizning sharq odatiga ko‘ra yuqoridan pastga tushganim ma‘qulmi? Ochiqroq qilib aytganda, mushukdan ministrga chiqaymi yoki ministrdan mushukka tushaymi? Keling, ota-bobodan qolgan taomilga amal qila qolaylik.

Xullas, mushuk voqeasi, uning kaltak yeb, og‘riq azobiga chidolmay, ko‘chaga miyovlab chiqish voqeasi mana bunday boshlandi.

Hamma gazetalar birvarakayiga bitta ministrga qarab o‘t ochishdi. Ministr ham juda g‘azablanib, nima qilishini bilmay qoldi. Odatda u nima qilishini bilmay yuragi siqilsa, hamisha maslahatchisini chaqirtirardi. Bu gal ham u maslahatchisidan allanimani so‘ragan edi, batafsil javobini oldi, sal turib yana bir nima so‘radi, maslahatchi yana yaxshilab javob qaytardi. Lekin ministrning ko‘ngli hamon g‘ash edi. Endi nima qilsin? „Nima qilsa hamki, tutaqib ketgan odam yana jahlidan tushishi kerak“. Ministr maslahatchidan yana bir nima so‘radi. Maslahatchi bu ishni qanday bajarganligini aytdi. Yo‘q, buni boshqacha qilish kerak edi. Maslahatchi nega o‘zboshimchalik qildi? Shunaqa ish ham bo‘ladimi? Bo‘ladi! Bo‘lmaydi! Yo‘q, bo‘ladi! Bo‘lmaydi!

Ministr maslahatchisining nozik joyini topib olgandan keyin, boplab so‘kdi. Ana endi ministrning dili taskin topib, yengil tortdi.

„Nima qilsa hamki, tutaqqan odam jahlidan tushishi, o‘z holatiga qaytishi kerak“. Maslahatchi jahlidan tushish

uchun nima qilishi kerak? Iste'fo bersinmi? Yo'q, bo'lmaydi, iste'foga chiqib nima qiladi? U bosh boshqaruvchini chaqirib, bir nima so'radi. Bosh boshqaruvchi javob berdi. U yana nimanidir so'radi. Bunisiga ham javob oldi. Yana savol, yana javob. Bosh boshqaruvchi manavi narsani bundoq, anavi narsani undoq qilmasligi kerak edi... Bo'ldi. Maslahatchi sekretarini chaqirdi:

– Qani, yoz!

Maslahatchi gapirib turdi, sekretar yozib bordi. Shundan keyin u ancha yengil tortganday bo'ldi. Agar shunday qilimganda, yuragi tars yorilib ketishi hech gap emas edi.

Xo'p, yaxshi, xo'sh, endi bosh boshqaruvchi nima qilsin? Maslahatchi yozdirgan narsalarni hazm qilish unga osonmi? Bosh boshqaruvchi tugmachani bosdi:

– Inspektor Alibeyni chaqiring!

– Alibey o'n kundan buyon safarda-ku.

– Bo'lmasa Valibeyni chaqiring.

Inspektor Valibey kirdi.

– Xizmat, beyafandim!

– Falon ish qay ahvolda?

– Bitgan, beyafandim!

– Anavi-chi?

– Unisi ham.

– Qay tarzda bitkazilgan?

– Mana bundoq, afandim!

– Uni bunaqa qilmaslik kerak edi-da! Bunday qiling, deb kim aytdi sizga? Bu ishni mana bundoq qilish kerak edi. Senlarga o'rgataverib o'zimga qolmadi.

Bosh boshqaruvchi rosa uning po'stagini qoqdi. Uh, bu yorug' dunyoda alamdan chiqadigan kun bor ekan-ku, shu bo'lmasa ahvoli ne kechardi.

Endi inspektor nima qilsin? Bu alamlarni indamay ichiga yutib ketaversinmi? Yo'q, yutib ketavergan bilan bo'lmaydi.

– Mudirbey!

- Labbay, taqsir!
- Labbaying nimasi? Ertalab nima devdim senga?
- Ertalab deysizmi? Hech nima demovdingiz.
- Nega demagan ekanman? Allanarsa degan edim-ku.
- Bugun ertalab sizni ko‘rganim yo‘q-ku.
- E, bugun bo‘lmasa kecha aytgandirman.
- Kecha betob edingiz, ishga chiqmovdingiz.
- Demak, o‘tgan kuni aytgan ekanman-da.
- Ha, to‘g‘ri, nimayam devdingiz.
- Nima degan edim? Aytgan bo‘lsam, nega shu vaqtgacha qilinmadi? Bunaqasi ketmaydi, bildingmi?! Ikkinchi bunaqa qilma! Qat‘iyan man qilaman!

Mudirning ta‘bi namozshom bo‘ldi. „Nima qilsa hamki, jahldan tushish kerak“.

- Muovininmi chaqiring!
- Xo‘p bo‘ladi!

Mudirning o‘rinbosari xonaga kirdi. Mudir so‘radi:

- „D“ ro‘yxati tuzib bo‘lindimi?
- Bo‘ldi, afandim.
- Hammasi bitdimi?
- Ha, bitdi.
- Qog‘ozlar tirkaldimi?
- Shundoq, afandim.

Qani endi mudirning hovurini bosadigan biror ishkal chiqa qolsa-chi?

- Hammasi jo‘natildimi?
- Ha, jo‘natildi.

Shu xat o‘lgurlar sal kechikkanda-ku, mudir janjal chiqarishga bahona topardi-ya.

- Qachon jo‘natildi?
- Kecha.

– Nima? Kecha deysizmi? Bu qanaqa bema‘nilik, bu qanaqa dangasalik? Hech kimning ishlagisi kelmaydi-ya. Ishlash kerak, ishlash! Men talab qilaman! Tushunarlimi?!

Birovni koyisang, shunaqayam yengil tortasanki!..

Mudir o‘rinbosari bo‘lim boshlig‘ining oldiga kirib keldi-da, tutaqib so‘radi:

– Bular nimasi?

– Buxgalteriyaga jo‘natiladigan hujjat.

– Shunaqami? Siz hali...

Lavlagidek qizarib ketgan bo‘lim boshlig‘i darg‘azab mudir o‘rinbosari xonadan chiqishi bilanoq stolga bir musht urdi:

– Hasanbey qani?

– Qaysi Hasanbey? Ikkinchi bo‘limdagi Hasanbeyni ayt-yapsanmi? Yo ro‘yxat tuzadigan Hasanbey kerakmi?

Qaydlar bo‘limida ham bitta Hasanbey bor. Taqsim, yo sekretariatdagi Hasanbeyni so‘rayaptilarmi?

– E, hammasi bir go‘r emasmi... Hah, anavi sekretariatdagi Hasanbeyni chaqiring!

– Afandim, tushlikka qo‘ng‘iroq chalingan edi, ovqatga chiqib ketibdi.

– Bo‘lmasa, o‘zing bu yoqqa kel!

– Men Husaynman-ku, afandim.

– Husaynmisan-Musaynmisan, hozir buning farqi yo‘q. Men senlarga ming marta aytamanki...

U o‘n minutga yaqin rosa baqirib-chaqirdi. Sohilda langar tashlab, bug‘ini chiqarib yuborgan kemaga o‘xshab, shundan keyingina yengil tortdi. Butunlay o‘ziga kelgach, xonadan chiqib ketdi.

Xizmatchi Husaynbey idora xizmatkorini tutib olib, rosa adabini berdi.

– Oynalar nega kir? Shiftda osilib yotgan o‘rgimchak inini nega supurib tashlamading? Stollarning usti artilmagan, pol iflos bo‘lib yotibdi. Qanaqa ishlashni ko‘rsatib qo‘yaman senga! Uqdingmi?

Husaynbey issiqda qalin kiyimini yechib tashlaganday yengil tortib, tashqariga chiqib ketdi.

G'azabdan qoni qaynagan xizmatkor darvozabonni qidirib qoldi. Aksiga yurib darvozabon ham quyon bo'lib, uyi-ga ketib qolgan ekan. Endi nima qilish kerak? „Nima qilsa hamki, odam bolasi jahlidan tushishi kerak“.

Xizmatkor tramvayga chiqdi.

– Uh, oyog'imni bosib olding. Ko'zmi bu yo po'stakning yirtig'imi?

Xizmatkorning oyog'ini bosib olgan odam g'iring demay turaverdi. Xizmatkorning oldiga konduktor keldi.

– Qani, bilet oling!

– E, nima deyapsan, tiqilichni ko'rmayapsanmi? Vagonda qimirlab bo'lmaydi-yu, bu tag'in bilet ol deydi-ya!

– Bo'lmasa biletsiz ketaverasanmi?

– Odam kamayganda olaman.

– Yo'q, bunaqasi ketmaydi.

– Ketadi!

– Ketmaydi!

Ikki o'rtada to'polon chiqdi. Xizmatkor ham shu janjal tufayli ancha yengil tortdi.

Tramvay konduktori ishini tugatib, uyga qaytdi. Qarasa, xotini oshxonada tirjayib turibdi.

– Nega tirjayyapsan? Huv o'sha tirjaygan...

Konduktor xotini rosa do'pposladi. Keyin zo'r ishtaha bilan ovqatni tushirdi.

Xotini boyoqish yum-yum yig'ladi. Keyin oyog'ining tagida ivirsib yurgan mushukni ko'rib qolib, otashkurak bilan beliga bir tushirdi. Kaltak yegan mushuk ham miyovlaganicha tiraqaylab qochdi.

Konduktorning xotini ham alamidan chiqqach, eriga suy-kaldi. Ko'z yoshidan keyin kelgan muhabbat shirin bo'ladi. Er-xotin ikkalasining ilgarigi huzur-halovati yana joyiga tushdi.

„Har narsaning bir sababi bo'ladi“. Agar ministrni gazetalar urib chiqmaganda, mushuk bechora ham ko'chaga miyovlab chiqmasdi.

Odamlar-ku, bir amallab alamdanda chiqishadi. Bechora mushuk nima qiladi!.. U yugurganicha miyovlab oldimdan o'tib ketganini o'z ko'zim bilan ko'rishga ko'rdim-u, alamim-ni kimdan olib, jahldan qandoq tushishini bilolmay turibman...

BEZOFTA BO'LMANG

Haykaltarosh Hikmat yomon odam emas-u, lekin bechoraning bitta aybi bor-da: haddan ziyod sertakalluf. Ikkovimiz o'n besh yillik qadrdon bo'lishimizga qaramay, doimo meni „hazratlari“, „afandim“ deydi. Ba'zan takallufni shunaqayam oshirib yuboradiki, nazaringda xuddi seni kalaka qilayotganga o'xshaydi. U bilan birinchi tanishganimda men ham shunaqa bo'lgandim. Kichik odam bo'lishimga qaramay, men bilan xuddi hukumat boshida turgan partiyaning kattakon amaldoriga gapirayotgandek „hazratlari“ deb qulluq qilaverganidan biram xijolat bo'laman, biram o'sal torta-manki, asti qo'yavering.

Haykaltarosh Hikmatning nega bunchalik sertakalluf bo'lib qolganligining sirini keyinchalik bilib oldim. Unda ayb yo'q ekan, bir vaqtlari saroyga yaqin yurgan oilaning farzandi bo'lganligi uchun lutf-nazokat qon-qoniga singib ketgan ekan. Buvasining otasi sulton Azizning bosh qayiqchisi, ya'ni sulton tushadigan qayiqda eshkakchilarga buyruqbardor bo'lgan ekan.

Bosh qayiqchi deganda kishining ko'z o'ngiga ko'kraklarini jun bosgan, qoyadek qomatdor, qo'l-oyoqlari g'o'ladek bir pahlavon keladi. Bizning haykaltarosh Hikmat esa, buning aksi... pachoqqina. Buvadan to nabiraga qadar bo'yning kichrayib borishi xuddi hozirgi turmush darajamizni aks ettirganday. Hukumatimiz amalga oshirgan keyingi iqtisodiy tadbirning ta'siri ostida bo'lsa kerak, Hikmat ham shu siyosatdan „bahramand“ bo'layotgan demokratik grajdanning o'zi bo'lib qolgan.

U chuvakkina, yoqimtoy, nazokatli, artisttabiat odam. Boshqacha aytganda, turmushda biror narsani eplay olmaslik va och qolish uchun insonga nimaiki kerak bo'lsa, shularning hammasidan topiladi.

Tunov kuni shu qadrdon do'stimning uyiga bordik. Ko'z ko'zga tushishi bilan odatiy qilg'ini boshladi:

– Hazratlari!

– E, Hikmatbey, qo'ysang-chi shu hazratlaringni...

– Jonim bilan, afandim.

– Afandingni ham yig'ishtirib qo'y.

– Xo'p bo'ladi, taqsir.

– Nega odamni xunob qilasan, taqsir demasang turolmaysanmi?

– Aytmasligim mumkin, afandim, nega mumkin bo'lmasin, taqsir.

U, faqat menga emas, do'kondorga ham, etik moylaydiganga ham, qo'shnisiga ham, xullas, duch kelganga shunaqa murojaat qilaveradi. U shunaqa qilavergandan keyin sen ham muomalani noziklashtirishga majbur bo'lasan. Ammo bunaqasiga hech mening tilim kelishmaydi, u esa rasmana gap aytolmaydi.

Uning xonalari katakka o'xshagan shinamgina uyi bor. Bizni u katta xonaga olib kirdi. Endi kursiga o'tiray degandim, yugurib kelib:

– Yo'q-yo'q, Xudo haqqi, bu yer bo'lmaydi, yayrab o'tirolmaysiz, – deb qoldi.

– Qo'ysang-chi, bo'laveradi...

– Bo'lmaydi, afandim, qani bu yoqqa marhamat qiling.

Noiloj turib ko'rpachaga o'tirdim.

– Oh, bu joy ham menga yoqmayapti.

– Ovara bo'lma, menga ma'qul.

Yugurib kirib, ichkaridan uch-to'rtta bolish olib chiqib, belimga, tirsagim tagiga qo'ydi.

– O‘tinib so‘rayman, bezovta bo‘lmay o‘tiring...
– O‘zing bezovta bo‘lma, azizim, men juda yaxshi o‘tiribman...

– Yozilib o‘tirolmayapsiz-da.

– Yo‘q, juda yaxshi o‘tiribman.

– Azbaroyi xudo, to‘g‘risini ayting, bezovta bo‘layotganingiz yo‘qmi?

– Yo‘q-yo‘q, aslo.

Oshnam sira og‘iz ochishga imkon bermaydi.

– Noqulay joyda o‘tiribsiz, qani, bu tomonga o‘ting, suyanibroq o‘tirasiz.

O‘zim yaxshi o‘tiringandim, uni hadeb bezovta qilavermaslik uchun devorning narigi burchagiga o‘ta qoldim. U yana bir talay yostiqlik keltirib tashladi.

– To‘g‘risini ayting, tashvish chekayotganingiz yo‘qmi?

– Yo‘q, birodar, aslo. O‘zing ovoragarchilikni qo‘y, juda yayrab o‘tiribman.

– Nazarimda aziyat chekayotganga o‘xshaysiz...

– Nega endi, azizim, juda yaxshiman.

– Shabada kirib bezovta qilayotgan bo‘lsa, derazani yopib qo‘ya qolay?

– Yo‘q-yo‘q, shabada yaxshi bo‘lyapti.

– Kaminai kamtariningizning nazarida hazratlari bezovta bo‘layotgandek tuyulyaptilar, taqdir, o‘tirgan joyingiz noqulay...

– Joyim yaxshi.

– Ichkariga marhamat, o‘sha yer qulayroq.

Narigi xonaga ko‘chdik.

– Jon afandim, aybga buyurmang...

– Yo‘g‘-e, nega unday deysiz, juda soz, og‘aynijon!

– Ishqilib, ayb qilmasangiz bo‘lgani.

– Ayb deysizmi? Hech qanaqa aybli ish yo‘q-ku...

– Yaxshi o‘tirolmayapsiz-da...

– Yaxshi o‘tiribman-ku.

– Ha, o‘tirganday bo‘lmayapsiz... Chamamda, bezovta bo‘lyapsiz. O‘tirgan joyingiz ancha zax, qani, bu yoqqa marhamat qiling!

Xonadan xonaga, xonalarda esa burchakdan burchakka o‘taverish jonimga tegdi. Burma bolishlar ustma-ust kelib turibdi.

– Qalay endi, yaxshi o‘tiribsizmi?

– Yaxshi, juda yaxshi.

– Ishqilib, aziyat chekmang-da.

– Yo‘g‘-e.

– Aybga buyurmang, o‘zim bilib turibman...

– Xo‘p.

Undan bezovta bo‘lmaslik, aybga buyurmaslikdan bo‘lak gap eshitmay qoldim.

Xayriyat, oxiri dasturxon yozildi.

– Dasturxonga qarang, afandim.

Oshnam tushmagur qilig‘ini yana yangidan boshlab yubordi:

– Kursida yaxshi o‘tirolmayapsiz, mana bunisiga o‘ting.

Sho‘rvaga qoshiq solib endi ichay deb turgan edim:

– Yo‘q, taqsir, aziyat chekyapsiz, tagingizga bolish keltirishsin, – deb qoldi.

– Hojati yo‘q, shundoq ham yaxshi o‘tiribman.

– Marhamat qilib ovqatdan oling, iltimos qilaman!

– Olyapman, Hikmatbey.

– Marhamat qiling, xuddi o‘zingizning uyingizdagidek yeb-ichib o‘tiring...

– Rahmat.

– Shakarob og‘zingizga yoqmadi shekilli...

– Yo‘g‘-e, yeb o‘tiribman-ku.

– Tuzi kam bo‘lsa...

– Yo‘q, tuzi joyida...

– Xo‘p, aybga buyurmaysiz...

– Yo‘g‘-e...

– Marhamat qilib olib o‘tiring.

– Mersi... Bo‘ldim.

– Xudo haqqi, oling!

Qornim rosa to‘ygan bo‘lsa ham, oling deb qistayvergani uchun yana ozroq totindim.

– Ko‘rib turibman, ovqat sizga yoqmad.

– Juda ajoyib bo‘libdi, qo‘lingiz dard ko‘rmasin.

– Oling, osh bo‘lsin... Piyoz bilan qo‘shib oling... Lekin hech yemayapsiz-da, afandim. Hazratlariga bir iltimosim bor edi.

– Marhamat, Hikmatbey...

– Ammo aybga qo‘shmaysiz! Qorningiz och qoldi.

– Yo‘g‘-e, juda to‘ydim.

Ovqatdan keyin qahva uzatildi. Hikmatbey mening g‘a-mimni yeb, yana bir necha marta burchak bilan kursi al-mashtirishni taklif qildi... Toqatim toq bo‘ldi, Hikmatbey bilan ikki og‘iz tuzukroq gaplasha olmay, uyga qaytdim.

Kecha namozshomga yaqin eshik taqillab qoldi. Qa-rasam, haykaltarosh Hikmatbey. Ko‘rib juda xursand bo‘l-dim.

– Keling, marhamat, Hikmatbey...

– O‘zlarini bezovta qilmay qo‘ya qolay, afandim.

– Yo‘g‘-e, nega bezovta bo‘lar ekanmiz, qani, ichkariga marhamat qiling...

– Yo‘q-yo‘q, ortiqcha ovora qilmay qo‘ya qolay.

– Xizmat...

– Afandim, hazratlarini bezovta qilishdan maqsad...

– Bezovtasi bormi buning...

– Bizning kulbada siqilmay o‘tirdingizmi, shuni bilmoq-chi edim.

– Juda ko‘ngildagidek bo‘ldi, rahmat.

– To‘g‘risi, sizni yaxshi kutib ololmadik.

– Yo‘q-yo‘q, juda yaxshi bo‘ldi.

– Yo‘-o‘-o‘q, yozilib o‘tirolmadingiz.

– O‘lay agar, Xudoning balosiga uchray yolg‘on gapirsam, ostona hatlab ko‘chaga chiqolmay qolay, juda yaxshi o‘tirdim.

– Kaminangiz bilib turibdi, hazratlari ko‘ngil uchun shunday deyaftilar, aslida yaxshi o‘tirolganlari yo‘q.

Sabr kosam to‘lib ketdi. O‘t o‘chiruvchi mashinadek bir na‘ra tortib yuborgan ekanman, qo‘ni-qo‘shning hammasi uydan otilib ko‘chaga chiqdi.

– Bezovta bo‘lganim yo‘q! Yo‘q! Yo‘q!

Hikmatbey chuvakkina gavdasini eshik orqasiga oldi. Shunda ham u:

– Yo‘q, afandim, aybga buyurmang, yaxshi o‘tirolmadingiz. Endi kaminangizga ijozat, sizni ancha bezovta qildim, – deb chuldirardi.

SIGARET QUTISIDAGI ARZ-DODLAR

Biz qishloq baqqolining katalak do‘konchasi oldida to‘xtadik. Shisha idishga lampa moy quydirib olayotgan ayol ham, baqqol ham bizni ko‘rib miyig‘ida kulib qo‘ydi.

– Rashid og‘a sizlarni kutib o‘tiribdi, – dedi baqqol bizga qarab. – Huv yuqoridagi qahvaxonaga boraveringlar. Manavi tepalikdan o‘tib, o‘ng qo‘lga burilasizlar.

Ikkovining kulgisi g‘alati tuyuldi; bu kulgi ham piching, ham ta‘naga o‘xshab ketardi.

Hayron bo‘lib so‘radim:

– Rashid og‘a deganingiz kim o‘zi?

– Tezroq bora qolinglar. Ko‘zi to‘rt bo‘lib o‘tiribdi. Bor-ganda bilasizlar.

U ko‘rsatgan tepalikka chiqqan edik, uzoqdan qahvaxona ko‘rindi. Shu payt oldimizga bir bola chopqillab keldi-yu: „Rashid buvam kutib o‘tiribdilar“, – deganicha iziga qaytdi.

Qiziq, nima gap ekan o‘zi? To‘g‘ri qahvaxonaga qarab yurdik. Odam bilan liq to‘lgan qahvaxonaga kirib, o‘tirgan-

larga salom berdik. Qahvaxo‘rlar bizni ko‘rib, bir kulib qo‘yishdi. Yana o‘sha istehzo aralash kulgi...

– Rashid og‘a kim bo‘ladi?

– Ha, menman...

Devorga taqab qo‘yilgan uzun kursi ustida chordana qurib o‘tirgan paxmoq soqol, istarasi issiqqina bir dehqon shunday dedi-yu: o‘rnidan turib, biz tomon yurdi.

– Xush kelibsizlar!

– Xush ko‘rdik. Rashid og‘a siz bo‘lasizmi?

– Ha, menman.

– Bizni kutayotgan emishsiz, yo‘lda kimni ko‘rsak shunaqa deydi. Kutayotganingiz rostmi?

– Qani, o‘tiringlar, o‘tiringlar. Kutayotganimiz to‘g‘ri-yu, lekin sizlarni emas. Ustingizdagi shahar kiyimini ko‘rib, sizlarni o‘shalar deb o‘ylashibdi. Biror narsa icha-sizlarmi?

Bittadan ayron so‘radik. Keyin mashinamiz yo‘lda buzilib qolganligini, piyoda kelayotganimizda duch kelgan kishi: „Sizlarni Rashid og‘a kutib o‘tiribdi“, deganini aytdik. Rashid og‘a qahvaxonani to‘ldirib o‘tirgan dehqonlarga qarab:

– Biz kutgan odamlar bular emas. O‘tgan yili ko‘rmaningiz ularni? – dedi.

– Ha, ko‘rganmiz, ko‘rsak albatta taniymiz. Bular emas, – deb javob qildi bir necha kishi.

– O‘zi nima gap, Rashid og‘a, kimni kutyapsizlar?

Rashid og‘a oldimizga bir tuguncha keltirib qo‘ydi. So‘ngra uni avaylab ochib, ichidan to‘rt dona bo‘sh sigaret qutisi oldi.

– Biz mana shu qutilarning egalarini kutib o‘tiribmiz, – dedi u sigaret qutilarini bizga uzatar ekan. – Omonat narsa bo‘lgani uchun saqlab qo‘yibmiz.

Qutilarning ikkitasi „Enije“, qolganlari esa „Gelenjak“ va „Bo‘g‘oz ichi“ sigaretlaridan bo‘shagan ekan. Rashid og‘a

ulashayotganida menga tekkan „Gelenjak“ qutisiga razm solib qarasam, allaqanday ilon izi yozuvlarga, turli-tuman belgi va raqamlarga ko‘zim tushdi.

– Bu nima o‘zi, Rashid og‘a? – so‘radim choldan.

– Bular bizning arz-dodlarimiz bo‘ladi.

– Qanaqa arz-dodlar?

– Bizning arz-dodlarimiz. Hozir odat bo‘lib qolgan, yurt-da saylov yaqinlashdi deguncha baraka topkur ulug‘larimiz qishloqma-qishloq yurib, dehqonning arz-dodini eshitadigan bo‘lib qolganlar.

O‘tgan yili shunaqa bo‘ldi. Ular qishlog‘imizga kelib, kimning nima arzi bo‘lsa, aytaversin, deyishdi. Tumonat odam yig‘ildi. Ular to‘rt kishi ekan, aptambildan tushib kelishdi. Ichlaridan bittasi xaloyiqqa xitob qildi: „Og‘alar, shu vaqtgacha hech kim sizlarning arzlaringizga quloq solmagan edi. Demokratiya – xalqning diliga quloq solish degan gap. Shunga ko‘ra, biz bugun huzuringizga keldik. Kimning dilida nima gapi bo‘lsa, aytaversin, qulog‘imiz sizda“.

Mana, sizga arz kerak bo‘lsa, deb dilimizdagini to‘kib soldik. Bizlar gapirib turibmiz, ular yozib olishyapti.

– Afandim, bezgak tinkamizni quritib yubordi, shundan qutqaring bizni! – degan edik, ular darrov yozib olishdi.

– Yolg‘iz o‘zim besh sinf bolasini o‘qitib yuribman, qishloqqa o‘qituvchi yuboringlar! – Muallimning bu gapini ham to‘rttalasi barobar yozib olishdi.

Xullas, ular ketma-ket sigaret tutatib, biz nima desak, shuni yozib olishaverdi. „Hozircha bunga imkon yo‘q, to‘xtab turinglar“, degan gapni eshitmadik. Men yonimda turgan muallimning qulog‘iga shivirlab: „Bularga negadir ko‘nglim chopmayapti“, – deb qo‘ydim. Chindan ham ko‘zimga g‘alatiroq ko‘rinishardi. Nimaiki aytmaylik, hammasiga birpasda rozi bo‘lishaverdi.

Ularni bir sinab ko‘rmoqchi bo‘ldim.

– Ilohim kam bo‘lmanglar, – dedim ularga qarab, – hamma dardlarimizni yozib oldinglar, rahmat. Endi oxirgi iltimosimiz bor: qishloqqa poyezd yo‘li tushsa devdik.

Sigaret qutisining orqasiga buni ham yozib qo‘yishdi.

Qosh qoraydi. Mehmonlardan ikkitasi qo‘lidagi qutilarni tashlab yubordi. Darrov borib yerdan oldim-da, cho‘ntakka soldim. Qahvaxonadan chiqib ketishayotganida uloqtirilgan uchinchi qutini ham yonimga soldim. Ular aptambilga minishdi. G‘izillab yurib ketgan aptambil orqasidan qo‘l silkib turuvdik, yana allanarsa uloqtirilganini ko‘rib qoldim. Yugurib borib qaragam, sigaret qutisi ekan, darrov oldim. O‘sha to‘rtta sigaret qutisi shu bo‘ladi. Endi tushungan bo‘lsangiz kerak. Bizning jamiki arz-dodlarimiz shu qutilarga yozilgan. Yaqinda xabar keldi, bu yil ham arz tinglagani kelisharmish. Shularni kutib yotibmiz.

Qutilarni qo‘lga oldim. „Enije“ qutisining ustiga olti marta „Shukriya! Shukriya!“, bir marta „Shuk“ deb yozilibdi. Yana yonma-yon tushgan uch yulduz-u, bir qayiq surati. Katta va kichik qilib bir talay uchburchak va to‘rtburchak shakllari solingan. „Bo‘g‘oz ichi“ qutisining ustida mana shu yozuvlarni ko‘rdim: „Qaynag‘amning o‘rtog‘i haqida iltimos qilish... Vofibeyni durustroq ishga joylashtirib qo‘yish... Kuyovni Italiyaga ketayotgan delegatsiyaga kiritish... Aks holda, iste‘fo beradi, degan gapni tarqatish... Uch yuz ming mojarosi... Raqqosa, raqqosa“ (besh joyda qaytarilgan)... Sakkizta yurak rasmi.

„Gelenjak“ qutisiga kattakon ko‘z surati solingan bo‘lib, ichiga qimor soqqasi chizilgan. „Bo‘ladi, juda yaxshi, bo‘ladi, juda yaxshi“ degan so‘zlar goh yozma, goh bosma harflar bilan besh-o‘n marta yozib qo‘yilgan.

– Ana kelishyapti!

– Kelishyapti!

Qahvaxonaga jon kirgandek bo‘ldi. Uning oldida to‘xtagan mashinadan uch kishi tushdi.

- Marhabo, og‘alar! – dedi ulardan biri.
- Assalomu alaykum, vatandoshlar! – dedi ikkinchisi.
- Hormang birodarlar! – dedi uchinchisi.

Dehqonlar hozirgina bizni qandoq kutib olishgan bo‘lsa, ularni ham shu kulgi bilan qarshi olishdi.

Kelganlarning ikkitasi Rashid og‘aning yoniga, uchinchisi nariroqdagi uzun kursiga o‘tirdi. Ular o‘ng qo‘llarini ko‘krakka qo‘yib, qahvaxonadagilar bilan birma-bir so‘rashib chiqishdi.

– O‘tgan yildan beri ko‘rishmadik, qalaysizlar og‘alar? – so‘radi ichida semizrog‘i.

Hamma uchun Rashid og‘a javob berdi:

– Rahmat, yaxshimiz. O‘zlaringizdan so‘rasak?

– Biz ham yaxshimiz. Ilgarigidan durustmiz. Sizlar ham ilgarigidan durustga o‘xshaysizlar. Hammangiz quvnoq ko‘rinasiz. Ilohim vaqtingiz chog‘ bo‘laversin.

– Og‘alar! – xitob qildi ularning ichida yoshi eng kichigi, – demokratiya – xalqning diliga quloq solish demakdir. – U „Gelenjak“ sigaretini cho‘ntakdan olib, labiga qistirdi. Qahvaxonachi otashkurakda unga cho‘g‘ tutdi. – Biz sizlardan olgan ilhom bilan ishlaymiz. Mana, yana huzuringizga keldik. Hech tortinmay, dilingizda bor gaplarni aytavering... Sizlar aytgan narsalarga quloq solish bizning burchimizdir. Ko‘ngilda nima muddao bo‘lsa, barini andisha qilmay aytaveringlar!

Oldiniga atrof suv quygandek jim bo‘ldi-yu, keyin shivir-shivir gap boshlandi.

– Avvalo, shu bezgak dastidan dod, – gap boshladi tik turgan dehqonlardan biri. – Yostig‘imizni quritib ketyapti. Botqoq joylarni quritish kerak, dori sepgan bilan bo‘lmayapti.

Uchovi ham bu gapni sigaret qutisiga yozib oldi. Shu payt Rashid og‘a yonidagining yozuviga tikildi:

– Kechirasiz, afandim, noto‘g‘ri yozib olganga o‘xshaysiz?

„Bo‘g‘oz ichi“ sigaret qutisini qoralab o‘tirgan odam yozgan narsasini darrov o‘chirib tashladi-da, shosha-pisha yangidan chiziq tortdi.

– Nega endi? – so‘radi „Gelenjak“ qutisining egasi. – Axir botqoqning quritilishi...

– Darvoqe, ko‘zimga yangilish ko‘ringanga o‘xshaydi, – Rashid og‘a shu gapni aytdi-yu, yonidagi tugunchani tizza-siga qo‘yib, ichidan „Gelenjak“ sigaret qutisini oldi, keyin uning ustidagi aji-buji chiziqlarni egasiga ko‘rsatdi. – O‘tgan yili ham bezgak deganimizda shunaqa yozgan ekansiz.

Qahvaxonada „gur“ etib kulgi ko‘tarildi.

Boshqa bir dehqon arz qildi:

– Muallim so‘raymiz, qishloqda muallim yetishmaydi.

– Yetishmaydi! – dedi „Enije“ qutisining egasi.

– Noto‘g‘ri yozding, afandim, – dedi Rashid og‘a tugunchadan o‘tgan yilgi „Enije“ qutisini olib ko‘rsatib. – O‘tgan yili muallimimiz shu haqda gapirganda sen „Shukriya! Shukriya!“ deb yozgan eding.

Mehmonlar sigaret qutilarini birin-ketin cho‘ntakka solishdi.

– Ovora bo‘lib yozib o‘tirmanglar, hamma gap bu yerda bor. Manavi chiziqlar pabrikaniki, manavi oltita yurak esa poyezdniki bo‘ladi, – dedi Rashid og‘a qo‘lidagi qutilarni ularga uzatar ekan. – Manavi quti bugun kelmagan janobniki.

Boyagi semiz odamning jahli chiqdi:

– Bular nimasi?

– Nima bo‘lardi, arz-dodlar-da. Ammo siznikimi yoki biznikimi, bunisini bilolmayman.

Ular o‘rinlaridan turib, chiqib ketishayotganida chol yana gap qotdi:

– Shukriyaning ishini unutmanglar. Uch yuz ming-a. Tag‘in buning ustiga, yulduz bilan qayiqning rasmi-ya...

Hamma qahvaxonadan chiqib mashina tomon yurdi.

Oldinda borayotgan uch kishidan birini yo‘tal tutdi:

– Sigaretni tashlash kerak.

Ikkinchisi unga qo'shildi.

– Meniyam mazamni qochiryapti.

– To'g'ri, tashlamasa bo'lmaydi, zarari tegyapti, – qo'shib qo'ydi uchinchisi.

Uchovi mashinaga o'tirib jo'nab qoldi. Dehqonlar esa hamon qotib-qotib kulishardi.

NAZOKAT-U NAFOSAT

Stol tagidan muqovasi ko'k, mo'jazgina, usti zarhal yon daftarcha topib oldim. Kimniki bo'ldi ekan, degan xayolda ichini ochdim. Iya, bu nimasi? Daftarchaning birinchi betiga baobro' bir kishining, juda ham baobro' kishining turar joyi, telefon nomeri yozib qo'yilgan. Qani, bu yog'ini ko'raychi! Voybo'y, ikkinchi betida bir emas, naq uchta shunaqa odamning nomi bor-a. Daftarni betma-bet varaqlaganim sari hayratim oshaverdi.

Nega desangiz, mamlakatimizda siyosat va davlat tepasida turgan nufuzli odamlarning hammasi daftarga birma-bir yozib chiqilgan ekan. Bundoq, qarasam, bularning ichida eng kichigi bosh direktorlik lavozimida. Qizig'i shundaki, nomi daftarga tushgan siyosat arboblarning hammasi hozir hokimiyat tepasida.

Shu tobda o'rnimda boshqa odam bo'lganida ham bari-bir boshi qotib garang bo'lishi turgan gap edi. Rost-da, kazo-kazolarimizning turar joyi aniq ko'rsatilgan, bu daftarcha xuddi biror falokatni boshlab beradigan bombaga o'xshaydi. Buni mening payimga tushgan biror odam ataylab tashlab ketgan bo'lsa kerak. Ulug'larimizning ism-u shariflari bitilgan bu ro'yxat hali boshimga qanday kulfatlar solishini aniq bilmasam ham shunisiga aminmanki, uni uyimdagi stol tagiga xolis niyat bilan tashlab ketishmagan. Meni vahima bosdi. Nazarimda, shu tobda hozir eshik dukillaydi-yu, uyga beforma politsiyachilar bostirib kirib: „Qani, daftarni cho'z!“ deya menga do'q uradi. Dir-dir qaltirab: „Qanaqa

daftar?“ deb so‘raydigan bo‘lsam, uyda tintuv boshlashadi, keyin xuddi o‘zlari ilgari yashirib qo‘yganday birpasda stol tagidagi daftarni topib olishadi.

Shunday bo‘lishiga imonim komil. Mening uyimga daftarni tashlab ketgan o‘sha razil odam, albatta politsiyaga shipshitib qo‘ygan. Kattakon fitnaga men ham aralashib qol-ganga o‘xshayman.

„Qani, sayra endi! – deydi menga daftarni topib olgan politsiyachilar. – Sen nima uchun kattadan kichik hamma ulug‘larimizning turar joylarini bu daftarga yozib olgan-san? Xo‘sh, sen ularga maxsus daftar ochganmisan? Yoki tovlamachilik hunaring bormi? To‘g‘risini ayt, yoki ularning joniga qasd qilganmisan?

Xudoyo mushkulimni o‘zing oson qil. Rost, agar shu-naqa deb qolishsa, qo‘limdan nima keladi? Hoziroq daftarga o‘t qo‘yib, kulini ko‘kka sovurishim kerak!

Meni domiga ilintirmoqchi bo‘lgan pastkashning o‘zi kim bo‘ldi ekan? Kecha kechqurun uchta oshnam uyimga kelgan edi. Ularning qo‘lidan bunaqa ish kelmasligiga amin-man. Sababi, biri dotsent, ikkinchisi universitet kutubxonasi-da xizmatchi, uchinchisi esa adabiyot o‘qituvchisi.

Vannaxonaga kirib, daftarni endi o‘txonaga tashlayman deb turgan edim, to‘satdan eshik dukullab qoldi. Yurak o‘ynog‘ida borib eshikni ochgan edim, qaragam, kechagi ulfatlardan biri, universitet kutubxonasida ishlaydigani kel-gan ekan. Xolid – yigirma yillik qadrdon do‘stim. Menga o‘xshab u ham juda sertashvish ko‘rinadi.

– Nima gap, nega ranging quv o‘chgan? – deb so‘radi u.
– O‘zing-chi? O‘zingga nima bo‘ldi?
– Kecha shu yerda daftarim tushib qolmabdimi?
– Manavimi? – qo‘limdagi daftarchani unga ko‘rsatdim.
– Ha, ha, xuddi shuning o‘zi, – dedi u daftarga chang solib. – Shuning o‘zi. Yo‘qolib qoldimi deb o‘takam yorildi. Shunaqayam qo‘rqib ketdimki, asti qo‘yaver.

Qo‘lidan tutib, uni ishxonamga olib kirdim.

– Meni o‘ldirayozding-ku, – dedim unga qarab. – To‘g‘risini ayt, bunaqa baobro‘ kishilarning turar joyi senga nimaga kerak bo‘lib qoldi?

Bu gal u hayron bo‘ldi:

– Iya, hali sen bunaqa daftarcha tutmaganmisan?

– Yo‘q.

– Ana xolos, shu ham ish bo‘ldimi. Meni do‘stim desang, sen ham shunaqa qil. Bunaqa adreslar nimaga kerakligini men senga hozir tushuntirib beraman. Mana, quloq sol:

– Bir vaqtlari men avtoruchka jinnisi bo‘lib qolgan edim. Goh o‘zim do‘kondan sotib olaman, goh o‘rtoqlarim men-ga sovg‘a qilishadi. Bir payt yonimda o‘n beshtacha ruchka yig‘ilib qolibdi. O‘sha kezlari Germaniyadan bir shoir oshnam kelgan edi, shuni yo‘qlab mehmonxonaga bordim. U ham ruchka jinnisi ekanligimni bilib, ketar chog‘imda bir dona avtoruchka taqdim qildi. Mehmonxonadan chiqib muyulishga burilgan edim, chidab turolmadim, ruchkasini bir ko‘ray dedim. O‘zing yaxshi bilasan, men hamisha yonimda lupa olib yuraman. Peroni shu lupaga solib ko‘rgan edim, ko‘zimga qalinroq yozadiganga o‘xshadi. Yon daftarchamni oldim-da, peroni sinab ko‘rish uchun dastlab miyamga kelgan so‘zlarni yozdim. „Nazokat-u nafosat“. Ha, mayli, sal qalinroq yozar ekan, uyga kelib qum qog‘oz bilan ishqalasam uchi ingichka bo‘lar, deb o‘yladim. Yana bir ko‘rmoqchi bo‘lib qo‘limga lupa olganimni bilaman – ikki yelkamga ikki qo‘l tushdi:

– Nima qilyapsan?

– Menmi? O‘zim, shunday, avtoruchkani ko‘rayotgan edim.

– Shunaqami? Ruchka ko‘ryapman degin. Qani, o‘zing qayerda ishlaysan?

– Men universitetda... – gapim bo‘g‘zimda qoldi.

– O, professorman deng. Hali siz professor bo‘ldingizmi? Ho‘v o‘sha professor bo‘lgan seni! Mana senga professor...

Bittasi chap biqinimga bir musht tushirdi:

– Qani yur, talmovsirama!

– Bu qanaqa gap, janoblar... Biron anglashilmovchilik bo‘lganga o‘xshaydi!

O‘ng biqinimga yana bir musht tushgan edi, yurishga majbur bo‘ldim. Qani yurmay ham ko‘r-chi!

Politsiya uchastkasiga olib kelishdi. Keyin tepib-surib bir xonaga qamab qo‘yishdi. Toza kutib o‘tirdim, oldimga hech kim kirmadi. Bir payt allakim eshikni ochib:

– Yerga o‘tir! – deb do‘q urdi.

– O‘tirolmayman, taqsir!

– Ha, ha, hali o‘tirolmaysanmi? Voy professor bo‘lgan seni... Qani ag‘dar cho‘ntaklaringni!

Cho‘ntakdagi bor narsani chiqarib stolga qo‘ydim: o‘n to‘rt dona avtoruchka, ikkita kitobcha, bitta yon daftar, bir dona lupa bilan ikkita qum qog‘oz chiqdi.

– Bu nima? – so‘radi u avtoruchkalarga ishora qilib.

– Bumi? Avtoruchka!

– Hm, avtoruchka degin! Voy professor bo‘lgan seni...

Men professor emasman, universitet kutubxonasida oddiy xizmatchi bo‘lib ishlayman, degim keldi-yu, qani endi og‘iz ochirsa. Stoldan lupani oldi:

– Xo‘sh, manavi nima?

– Lupa...

– Lupa degin... Voy professor bo‘lgan seni...

Yana uch kishi ichkari kirdi. To‘rttovi bir bo‘lib stoldagi narsalarni sinchiklab ko‘zdan kechiryapti. Ulardan biri qum qog‘ozni qo‘liga olib so‘radi:

– Bu nima?

– Qum qog‘oz.

– Bu qanaqa qum qog‘oz o‘zi? Sip-silliq-ku... Bizni laqillatmoqchimisan?

– O‘zi shunaqa, maxsus silliq ishlangan.

– Qih, qih... Silliq qog‘oz degin! Voy professor bo‘lgan seni...

Yelkamga bir musht tushdi. Bundoq qaragam, ahvol tobora chatoqlashib ketyapti.

– Janoblar, – dedim ularga qarab, – bu yerda biror anglashilmovchilik borgan o‘xshaydi... Meni bu yerga nima sababdan olib kelganingizni bilmayman-u, lekin butun universitet, hamma jurnalistlar qanday odamligimni yaxshi bilishadi. Menga bunday muomala qilishingiz yaxshi emas.

Yon daftirimni titkilab turgan odam baqirib berdi:

– O‘chir ovozingni!

Keyin to‘satdan ko‘zi chaqrab ketdi:

– Manavi nima?

U avtoruchkani sinab ko‘rish uchun yozilgan boyagi „Nazokat-u nafasat“ degan so‘zlarga ishora qilayotgan – edi.

– Nima bo‘lardi, „nazokat-u nafasat“.

– Nazokat-u nafasat?

– Ha, „nazokat-u nafasat!“

– Buning ma‘nosi nima?

– Hech nima...

– Hech nima bo‘lsa nega yozding?

– Peroni sinab ko‘rmoqchi bo‘lgan edim...

– Shunaqami hali! Xo‘sh, unaqa bo‘lsa nima uchun kelib-kelib shu so‘zlarni yozasan? Gapir!

– To‘g‘risini aytsam, bu haqda o‘ylamagan edim.

– Bilmadim, kallamga shu keluvdi, yozdim-qo‘ydim.

– Xo‘sh! Nazokat-u nafasat-a! Voy professor bo‘lgan seni... Nazokat-u nafasat nimaligini ko‘rsatib qo‘yamiz senga! Hali kallangizga shu keldimi? Boshqasi topilmabdi-da, a?

Biri mashinistkaning yoniga kelib protokol yozdira boshladi. Meni dahshat bosdi. „Nazokat-u nafasat“ degani biror josuslar tashkilotining shartli belgisi bo‘lib chiqsa-ya? O‘n to‘rt dona avtoruchka, yon daftar, lupa, ikkita kitob, qum qog‘oz, buning ustiga „nazokat-u nafasat“ degan yozuv. Bularni ko‘rgan har qanaqa odam ham shubhaga tushishi mumkin. Endi nima qilsamikin? Protokol bo‘lsa shig‘illab yozilyapti,

yon daftarim hali titkilab bo'lingani yo'q. Shu payt daftarini kovlashtirib o'tirgan odam taqqa to'xtadi; So'ngra o'zi ko'rayotgan varaqni yonidagi sheriklariga tutdi. O'rtalarida pichir-pichir gap boshlanib, bir nimani kelishib olishdi. Hech kutilmaganda birpasda vaziyat o'zgardi. Haligi odam yon daftarchaga yozilgan bir adresni menga ko'rsata turib so'radi:

– Aybga buyurmaysiz, beyafandim, bu kishi sizga kim bo'ladilar?

– Sinfdosh o'rtog'im bo'ladi, – dedim. – Tunov kuni uchrashib qolgan edik, qo'yarda-qo'ymay meni restoranga olib bordi. Keta turib uy adresini bergan edi, shu daftarga yozib oldim.

To'g'risi ham shu. Ko'pdan ko'rmagan o'rtog'im bilan uchrashib qolganim rost. Hattoki men uning bosh direktor bo'lib ishlashidan ham bexabar edim.

U istihola aralash kulgan bo'ldi:

– Buni qarang-a, demak, bosh direktor o'zlarining yaqin o'rtoqlari bo'larkan-da.

– Ha, shunaqa. Birga o'qiganmiz, maktabda biz uni Riza tirtiq deb chaqirardik.

– Juda xursandman, beyafandim. Iya, iya, nega tikka turib qoldingiz? Qani, marhamat, o'tirsinlar!

Keyin sheriklaridan so'radi:

– Beyafandimni bu yerga nega olib keldilaring?

U so'rog'iga javob kutmay, yana menga murojaat qildi:

– Qani, marhamat qiling, beyafandim!

Yaxshilab jihozlangan xonaga o'tdik. Eshikdan oldin men, ketimdan ular kirishdi.

– Bugun havo judayam dim bo'ldi-ya, – dedi ulardan biri menga ko'z qirini tashlab. – Janoblariga gazoz¹ buyuraylikmi?

– Yo'g'-e...

Gazoz olib kelindi. Xonada ikki kishi qoldik.

¹Gazoz – gazli shirin suv.

Yolg'iz qolgach, u mendan so'radi:

– Afandim, biz tomonga tashrif buyurganlarining boisi nima? Biror amri farmonlari bormi bizga?

Yo tavba! Amri farmon degani nimasi? Meni bu yerga urib-so'kib sudrab kelgan shularning o'zi emasmi?

Bu tomonga musht va tepki zarbi bilan kelganligimni aytsam, hozir ko'rsatilayotgan iltifot oldida hurmatsizlik bo'ladi. Shuning uchun boshqacha javob berdim:

– O'zlarining hol-ahvollarini bir so'rab o'tay degan edim.

– O, minnatdorman, afandim, g'oyat minnatdorman. Boshim osmonga yetdi. Biz uchun katta baxt bu.

Vaziyat yaxshilandi. Yana biror ishkal chiqishini kutmay, issig'ida jo'nab qolganim ma'qul. Shuni o'ylab, ketishga ruxsat so'radim:

– Beyafandim, endi menga ruxsat bersangiz.

U o'rnidan turib, meni eshikkacha kuzatib qo'ydi. Shu joydan tezroq chiqib ketay degan maqsadda qadamni tezlatdim. Avtoruchkalarni, daftarcha bilan lupani so'ray desam, boyagi anglashilmovchilikni eslatgan bo'laman. Ayb bo'ladi!

– Beyafandim! Beyafandim! Professor hazratlari! Buyumlaringizni esdan chiqaribsiz!

Boyagilardan biri ruchka, qum qog'oz, lupa va yon daftarchani ko'tarib orqamdan yugurib keldi.

– Bir narsani so'ramoqchi edim, bosh direktor chindan ham janoblariga o'rtoq bo'ladimi?

– Ha, albatta! – javob berdim. – Nega surishtirib qoldingiz?

– Shunchaki... Hozir, bilasizmi, bir odat paydo bo'lgan. Har xil bo'lmag'ur odamlar ulug'larimizning ismi bilan turar joyini yon daftarga yozib qo'yishadi, keyin ishkal chiqib qolsa, „bu mening o'rtog'im bo'ladi“ deb suvdan quruq chiqib ketishadi. Tushundingizmi? Biz bo'lsak bu gap to'g'ri yo noto'g'ri ekanligini bilmaymiz. Demak, siz u kishi bilan chindan o'rtoqsiz-a?

– Ha, u mening chindan o'rtog'im bo'ladi.

U menga bir parcha qog'oz uzatdi...

– Beyafandim, o'zim haqimda ikki og'iz so'z qoralab qo'yuvdim. Agar bosh direktor janoblarini yana bir uchratib qolsangiz...

Xolid voqeani gapirib bo'lgach, qo'shib qo'ydi:

– O'sha kundan buyon men ulug'larimizdan qaysi birining turar joyini eshitib qolsam, shu daftarga yozib qo'yadigan bo'ldim. Kecha daftarni yo'qotib qo'ydimmi, deb rosa qo'rqib ketdim. Bu yerdagi adreslar mol-mulkni, hayotni sug'urta qilish bilan teng. Birodar, sen ham albatta shunaqa daftar tutib ol. Lekin bir narsaga ehtiyot bo'l: daftarga yozilgan odamlardan birortasi iste'foga chiqib ketsa, darrov uning nomini o'chirib tashla. Aks holda, boshing baloga qoladi. Demak, sen ulug' odamlarimizni daftarga yozib yurish odatidan bexabar ekansan-da...

– Hech eshitmagan edim.

– Lekin ko'p narsani boy beribsan, oshnam. Hozir shunaqa zamon. Har bir kishi har ehtimolga qarshi yonida mana shunaqa daftarcha olib yurishi kerak. Ostona hatlab ko'chaga chiqqaningda boshingga qanaqa balo tushishini oldindan bilib bo'ladimi? Qadimda odamlar kasaldan, yomon ko'zdan saqlasin deb yonlarida duo bitilgan tumor olib yurishardi... Hozir esa buning o'rniga mana shu adresli daftarchalar chiqqan. Daftar bo'lganda ham nafasi o'tkir daftar!

ORKESTR ODAM

Dunyoda shunday odamlar borki, ularning har bir barmog'ida bittadan hunar bo'ladi. Bizga o'xshash mulla quuruqlarning bo'lsa o'nta barmog'ida o'nta tirnoqdan boshqa narsasi yo'q. Darvoqe, mening qo'limdan ham bir hunar keladi: odam ko'p joyga tushib qolsam, darrov qo'limni ishga solib, atrofimdagi xotinlarni et-betidan chimchilab olaman. Lekin bu hunarim hozircha faqat menga shapaloq yeyishdan boshqaga yaramay turibdi, xolos.

Mening san'atim tilim bilan burnimda joylashgan. Sababini so'rasangiz, dimog'da xirgoyi qilib, burundan chiqarsam, odamlar surnay chalyapti, deb o'ylashadi. Keyin tilni takillatib, unga oyoqni jo'r qilsam, naq nog'ora ovozing o'zi bo'ladi.

Lekin burunni surnay-yu, og'izni nog'ora qilib chalib yurgan bilan tirikchilik o'tmas ekan. Odamlar muzikani yaxshi tushunavermasligi, didining pastligi uchun men o'z qad-rini topmagan san'atkorga o'xshab ko'pincha och qolaman.

Eh-ha, bir burda non topaman deb ozmuncha sarson bo'ldimmi?

Qayerga bormay, mendan:

– Qo'lingdan nima ish keladi? – deb so'rashadi.

Hammaga o'xshab:

– Nima ish bo'lsa shuni qilaveraman! – deb aytolmasam nima qilay?

Har kimning o'ziga yarasha kasb-kori bo'lishi kerak. Lekin menga qolsa har bir kishi o'ziga yarashadigan ishni qilishi lozim. Modomiki, menga burunda surnay chalish san'ati nasib bo'lgan ekan, shuni qilishim kerak-da.

Ammo men; „Janoblar, mening qo'limdan burunda surnay chalish keladi“, – deb gap boshlashim bilanoq, „gur“ etib kulgi ko'tariladi, hamma meni kalaka qila boshlaydi.

Shunda men:

– Ruxsat eting, bir chalib beray, yoqmasa yo'limni berasiz! – deyman.

– Qani, nag'mangni eshitsak eshita qolaylik! – deyishadi ular.

Kuyning daromad qismini boshlayman. Dam-badam „nog'ora“ chalaman. Buni ko'rib, ularning og'zi ochilib, qoladi. Sizga yolg'on, menga chin-u, lekin mutlaqo tishining oqini ko'rsatmaydigan ne-ne baobro' kishilar ham bunaqa paytlarda qizishib ketib, yechinib tashlaydilar, qorin o'yiniga tushib ketadilar.

Men chalib bergan „Surnay navosi“dan keyin nima bo‘lishini aytib beraymi?

– Voy-bo‘, agar bu odam Yevropa yoki Amerikada yashasa bormi, bir zumda millioner bo‘lib ketar ekan, – deyshadi nuqul.

Mamlakatimizda och-yalang‘och odamlarga nuqul shunaqa deyishadi.

Buni qarangki, o‘z vatanimizda emas-u, Yevropa yoki Amerikada emish. Bundan chiqdi, Xudoyo taolo odamlarni ikki toifa qilib – bir toifasini osiyolik bilan afrikalig-u, ikkinchisini yevropalik bilan amerikalik qilib yaratgan ekan-da. Biz sho‘ring qurg‘ur kambag‘al bechoralar yaratilishimizdan vatangado ekanmiz, qismatimiz doim shunaqa ekan. Bisotinda qanchalik ilm-u hunaring bo‘lmasin, sen va senga o‘xshaganlarga baribir ish topilmas ekan.

Bu yog‘ini so‘rasangiz, ana shunday himmat-iltifotlardan keyin qo‘limga besh-o‘n qurush pul tutqazishadida, keyin oldilariga solib quvlab berishadi.

Mana, o‘zingiz ko‘rib turgandek, men san‘atning hamma mashaqqatlarini totib ko‘rgan odamman. Xudoga ming qatla shukrki, agar men mehribon, san‘atsevar bir xo‘jayinni uchratmaganimda umrimning oxirigacha burunda surnay chaladigan havaskor sozanda bo‘lib qolaverar ekanman.

U bilan uchrashishimiz qiziq bo‘ldi. O‘sha paytlarda men sayyor teatrda orkestr bo‘lib ishlar edim. Iya, bu gapga hayron qolyapsizmi?

Ha, men chindan ham orkestr bo‘lib ishlardim. Axir bir odam ham surnay, ham nog‘ora chalishni bilsa, uni orkestr demay bo‘ladimi! Lekin mening boshqa vazifalarim ham bor edi: men ham sahnaga chiqar, ashula aytar, buning ustiga xotinchasiga kiyinib, o‘yinga ham tushar edim. Ustiga ustak kassada bilet sotish, sahna bezash, chodir buzib, chodir tikish, bezaklarni tashish ham menga yuklatilgan edi.

Mabodo birorta artist betob bo‘lib qolsa, uning o‘rniga ham men chiqishim kerak edi.

Shekspirning „Gamlet“i qo‘yiladigan kun edi. Gamlet roli menga topshirilgan. Lekin nima sababdandir bugun shu spektakl ketishini menga aytib qo‘yishmabdi, aytishgan bo‘lsa ham, yodimdan ko‘tarilibdi. Shundan bir kun oldin „Lablamachi Xorxor“ pyesasini ko‘rsatganligimiz uchun bugun ham shu ketsa kerak, deb o‘ylabman. Navbat menga kelishi bilan burnimda surnay, og‘izda nog‘ora chalib, Xorxor rolida sahnaga chiqib keldim. Sahna bezagi bilan artistlarga bundoq razm solib qaragam, biz Daniyadagi saroydamiz-u, men daniyalik shahzoda ekanman. Oldiniga nima qilishimni bilmay esankirab qoldim: lablamachining rolini davom ettirib, surnay bilan nog‘oramni chalaveraymi yo Gamletga o‘tib ketaymi? Bir lahza ikkilandim-u, darrov qarorga keldim: tomosha mening sahnaga chiqishimdan oldin boshlangan, demak, Gamlet rolini o‘ynashim kerak. Skripkachi Xristosning xotini semiz Yelena qarshimda turibdi. U qizi Maroning neylondan tikilgan ko‘ylagini kiyib olgan, kampirning sigir yelinini eslatadigan gumbaz ko‘kraklari qizg‘ish ko‘ylakdan xurmachaga o‘xshab turtib chiqqan.

Men darrov Gamletning monologini boshlab yubordim: „Men onam atalmish bu benomus qirolichadan otamning qasosini olaman. Men shahzoda Gamlet bo‘laman! Otamning bu sirli o‘limining aybdori bir umr topilmagan jinoyatlar ichida qolib ketmaydi. Men jasadni tabiblarga tekshirtiraman. Men go‘rni qazib, otamning jasadini oldiraman va bu sirli jinoyat jumbog‘ini yechaman. Va men amakim atalmish qotilni politsiyaga topshiraman“ gapni tugatishim bilanoq, bor ovozim bilan qichqirdim:

– Ofeliya!.. Ofe-e-liya! Ofe-e-liya!

– Politsiyadan xabar keldi: bemahalda baqirish man etilibdi! – deya shivirlab qoldi shu payt sufliyor.

Men o‘zimni semiz Yelenaning quchog‘iga otdim.

Haloyiqqa Gamlet roli manzur bo‘lmabdi shekilli:

– Surnaydan bo‘lsin! Surnay! – deya shovqin ko‘tarishdi. Bu janjalni ko‘rib xo‘jayin darg‘azab bo‘ldi. Darrov pardani tushirib, menga do‘q ura ketdi.

– Ho‘v mahmadana, bu yer senga va‘z aytadigan joy emaski, og‘zingga kelganini gapiraversang. Bu yerni sahna deydilar!

Birpasda pattamni qo‘limga berdi. Qo‘limga osongina patta tekkanligining sababi shundaki, men bu yerda haq olmasdan ishlayotgan edim.

Odam biror joyda ishlasa, qarz olishi oson bo‘ladi. Mana endi men boshqalarni shilib yurishdan ham mahrum bo‘ldim.

Gamlet rovida chiqqanimda kiyish uchun harbiylarning qishki kiyimidan tikilgan kalta shimni, asli futbolchilarga atalgan ola-bula paypog‘imni hamda bitta ustara bilan nimchani qo‘ltiqlab, chodirdan chiqdim. Shu atrofda o‘ralashib yurgan bekorchi odamlar meni ko‘ra solib, bir-birini turta ketdi:

– Ana, ana boyagi artist! Burnida surnay chalishni shundoq boplab tashlaydiki!

Shu payt bir odam oldimga kelib, murojaat qildi:

– Afandim, sizga ikki og‘iz gapim bor edi.

– Vaqt masalasi chatoqroq, – javob berdim unga. – Oldin mendan rozilik oling, keyin navbat kuting.

– Sizga aytadigan zarur gapim bor edi-da!

– Qani, bo‘lmasa menga bir dona sigaret bering-chi, sal o‘zimga kelib olay.

U menga xushbo‘y sigaret uzatdi. Keyin uning mashinasiga o‘tirib, katta fabrikaga bordik. U meni dabdaba bilan yasatilgan xonaga olib kirdi.

– Ayni Gamlet o‘ynaydigan joy ekan-a! – deb yuboribman.

– Qani, maqsadga o‘ta qolaylik, – dedi u menga qarab. – Men shu fabrikaning egasi bo‘laman.

– Bunaqa narsani oldindan aytib qo‘yish kerak, – dedim unga bir oz o‘ng‘aysizlanib. – Har holda shunga qarab to‘n bichgan bo‘lardik.

– Sen bu yog‘idan xotirjam bo‘laver, men demokrat odamman, bunaqa narsalarga e‘tibor bermayman. Gapimni jon qulog‘ing bilan eshit. Men fabrika egasi bo‘lsam ham, hech kimning haqiga xiyonat qilmayman.

– Iya, unaqa bo‘lsa, qorning nonga to‘ymas ekan-da!

Suhbatdoshimning jahli chiqdi:

– Bema‘ni gapingni qo‘y! Men senga ekspluatatsiyaga qarshiman, deyapman. Agar ishonmasang duch kelgan ishchidan so‘ra!

Fabrikaga kirgan edik, birinchi uchragan ishchidan so‘radim:

– Sen nima deysan, xo‘jayinning gapi to‘g‘rimi?

– Ha, xo‘jayin to‘g‘ri gapiryapti, – javob berdi u. – Bu yerda oladigan kundalik ish haqimiz boshqa fabrikalardagidan ikki hissa ko‘p. Har yili bir oy mehnat otpuskasiga chiqamiz. Otpuska uchun alohida haq to‘lanadi. Bundan tashqari, ortiqcha qilingan ish uchun mukofot berib turiladi. Bayram kunlari va yangi yilda hayitlik ham olamiz.

Bu gaplarga hayron bo‘lganimdan „ana xolos!“ deb yubordim.

Kabinetiga qaytib kelishimiz bilan o‘zidan so‘radim:

– Men tushunolmay qoldim, sen o‘zing kallavaram odammisan yo jinni-pinni bo‘lib qolganmisan?

– Yo‘-o‘-o‘q, – dedi u. – Aqli-hushim juda joyida.

– Bo‘lmasa buni qanday tushunsa bo‘ladi?

– Mana, men gapirib bera qolay, sen eshit. Ilgari fabrikamda uch yuzta odam ishlardi. Tabiiy, ular kam haq olishardi. „Xo‘sh, bordi-yu, maoshingizga o‘n foiz qo‘shib bersam, ish unumingiz qancha oshishi mumkin?“ deb so‘radim ular-dan. „Ikki hissa oshadi“, degan javobni oldim. Men darrov ishchilarning sonini kamaytirib, fabrikada ikki yuzta odam

qoldirdim. Chindan ham ish unumi ikki baravar oshdi. „Kundalik ish haqingizni yana o'n foiz oshirib bersam, ish unumi qancha ko'tariladi?“ deb yana so'ragan edim. „Yana ikki marta ko'payadi“, deb javob berishdi. Men ham yana ellik kishini ishdan bo'shatdim. Ish unumi to'rt hissa ko'paydi. Nihoyat, bora-bora fabrikada yigirma besh ishchi qoldi. Hozir ular (bir oy mehnat otpuskasiga chiqishadi, oladigan maoshlari ham boshqa joylardagidan ancha ko'p, qolaversa, men ham ilgariigiga qaraganda o'n hissa ko'p daromad olyapman.

– Xo'p, menga nima demoqchi edingiz?

– Hovliqma, hozir aytaman. Gap mundoq. Mana endi ishchilar sonini bundan ortiq kamaytirib bo'lmaydi. Shuning uchun mehnat unumdorligini oshirishning boshqa yo'llarini o'ylab yuribman. Fabrika ichini juda ozoda qilib tashlaganman, boshqa yerdagilarga sira o'xshamaydi. Odamlar toza joyda yaxshi ishlashadi. Innaykeyin, ish paytida oynani ochtirib qo'yaman. Yorug' tushib tursa, ish barakali bo'ladi. Qolaversa, sen o'zing ham ko'rgan bo'lsang kerak, binolarning devori bilan shifti yangi bo'yoqdan chiqqan. Rangning kishiga ta'siri katta bo'ladi. Moviy va oq rang odamning asabini bo'shashtiradi, uni taskin toptiradi, shuning uchun ham kasalxonalarni mana shu ranglarga bo'yashadi. Qora rang kishini ezib tashlaydi. Pushti bilan sariq rang xayolni bo'ladi. Qizil va yashil ranglar esa odamni qitiqlaydi, hayajonga soladi, qonini jo'shtirib yuboradi. Shuning uchun yotoqxona devorlari doim qizil rangga bo'yaladi. Men ham fabrika binolarini shunday rangga bo'yatdimki, natijada mehnat unumi yana ikki baravar oshdi.

– Xo'p, mayliku-ya, lekin menga nima demoqchisan?

– Hovliqaverma, hozir aytaman. Men hech kimni ekspluatatsiya qilmay, ish unumini tag'in ham oshirmoqchiman. Buning uchun esa ishchilarning muzikaga bo'lgan ehtiyojini qondirishim kerak. Odam muzika tinglab ishlasa, o'zi ham sezmaganda holda barakaliroq ishlaydi. Senga aytmoqchi

bo'lgan gapim mana shu. Orkestr yollamoqchi bo'lgan ham edim, lekin qimmatga tushadigan ko'rinadi.

– Plastinka qo'yib eshitaversang bo'lmaydimi?

– Undan quruq tovush chiqadi. Bu narsa kishining asabiga tegadi, ishiga xalal beradi. Eshitilayotgan ovoz tabiiy bo'lishi kerak.

– Juda soz! Men roziman.

– Lekin bitta shartim bor: muzika turkcha bo'lmasligi kerak. G'arb kuylarini chalishni bilasanmi?

– Bilganda qandoq!

– Qani, bo'lmasa venger rapsodiyalaridan birortasini chalib ber-chi!

Burunni surnay, labimni nog'ora qilib rapsodiyani boplab chalib bergan edim, xo'jayinning o'zi ham qoyil qoldi.

– Lekin bilasanmi, – dedi u menga qarab. – Surnay bilan nog'ora kamlik qilarkan. Burning bilan og'zing ishlayotganda oyog'ing bekor turmasin-da. Agar bunisini ham eplasang, maoshingni ikki hissa oshirib beraman.

– Xo'p bo'ladi, – dedim. – O'ng qo'lim bilan qorinni childirma qilib chalib turaman.

– Juda soz. Iya, oyog'ing bekor qoladimi unda?

– Botinkamning tagidagi nag'alini taqillatib tursam bo'ladi.

– Ajoyib! Yana?

– Yanami? Yana... Yana... Topdim, topdim! Chap qo'lim bo'sh-ku, uni orqamga urib, muzikaga jo'r qilib turishim mumkin.

– Xo'sh, yana?

– Yana bir-ikki bo'sh joyim bor-u, lekin o'zimga ham kerak-da!

– Xo'p, mayli bo'lmasa. Demak, sen oltita sozandadan iborat orkestrning ishini qilasan-da. Agar men bunday orkestr yollaydigan bo'lsam, kuniga ikki yuz lira haq to'lashim kerak bo'lardi. Sen bo'lsang ellik liraga ham rozisan, shundaymi?

– Itifotlariga rahmat! Men bir haftada ham buncha pul olmaganman.

– Unday bo'lsa kelishdik. Ishchilarga boshqa joydagilarga nisbatan ikki-uch hissa oshiq haq to'lashimni endi o'zing ham ko'rib turibsan. Men faqat haq to'lash bilan cheklanayotganim yo'q. Ularning ishi unumli bo'lsin deb qo'limdan kelgan narsani qilyapman. Qani, ayt, senga nima kerak? O'tiradigan joyingning bo'yog'i yashil bo'lsinmi? Yoki senga qizili ma'qulmi? Ha, tortinmay aytaver, yoki ki-yimingni yangi qilib beraymi?

Mahobatli xo'jayinning betiga tikilib aytdim:

– Menga hech narsa kerak emas, shunisiga ham rahmat. Lekin meni unumli ishlasin desangiz, faqatgina bir iltimosimni bajo keltiring.

– Gapiraver, darrov qilib beraman.

– Ruxsoringni ko'zimdan nari qilsang bo'ldi!

Xo'jayin suyunib ketdi:

– Qani, xo'roz, qo'lingni ber. Mana endi bu yog'iga chavaver surnayingni!

MUNDARIJA

Dahshatli tush.....	5
Afsuski, iloji yo‘q!.....	13
Xotin kishi bo‘lganimda-yu.....	19
Farzand.....	24
Ustasi faranglar.....	28
Ming marta shukur!.....	35
Xilvatgoh.....	40
Yashasin qashshoqlik.....	47
Tomdagi jinni.....	53
Nozik barometr.....	59
Hushtak afandim.....	68
Kaltsiz turolmayman.....	74
Asabiy odam.....	79
Keyin xursand bo‘lasiz.....	83
Da‘vodan kechasizmi.....	87
Hazilkash odamlar.....	91
Biz u yerga bormaymiz!.....	101
Demokratiya shunqori.....	107
Shukur qilsang arziydi.....	113
Pulimga yarasha yer bering.....	120
Musht ketdi.....	125
Bezovta bo‘lmang!.....	132
Sigaret qutisidagi arz-dodlar.....	137
Nazokat-u nafosat.....	143
Orkestr odam.....	150

Adabiy-badiiy nashr

AZIZ NESIN

HAZILKASH ODAMLAR

Hikoyalar

„Ziyo nashr“ nashriyoti
Toshkent – 2022

Muharrir	<i>Malika Kamolova</i>
Badiiy muharrir	<i>Bahodir Ibragimov</i>
Musahhah	<i>Zikrilla Mamatov</i>
Sahifalovchi	<i>Surayyo Sunnatullayeva</i>

Nashriyot litsenziyasi AA № 0008, 27.03.2019
08.08.2022-yilda bosishga ruxsat etildi. Qog‘oz bichimi 84x108^{1/32}.
Ofset qog‘oz. „Times“ garniturasida ofset usulida bosildi.
Shartli bosma tabog‘i 8,4. Adadi 1000. Shartnoma № 5-22.
Buyurtma raqami

„Ziyo nashr“
Mas‘uliyati cheklangan jamiyat
Toshkent shahri, Uchtepa tumani, 23-mavze, 42-uy.

„DIZAYN-PRINT“ va „Yangi asr avlodi“
bosmaxonalarida chop etildi.

„DIZAYN-PRINT“ MCHJ,
Toshkent shahar, Chilonzor tumani, Cho‘ponota ko‘chasi, 28-a uy.

„Yangi asr avlodi“ MCHJ
Toshkent shahar, Chilonzor tumani, Qatortol ko‘chasi, 60-uy.

eng sara halviy hikoyalar to'plami

AZIZ NESIN
HAZILKASH ODAMLAR
HIKOYALAR



ZIYO NASHR



fb.com/ziyo.nashr



ziyonashr@mail.ru



ISBN 978-9943-6833-6-5



9 789943 683365